It can be understood from the above explanations that a translator is a mediator between two different languages two different cultures. A translator is also an expert in intercultural communication, whose task is to create a bridge and aid others to cross cultural and linguistic boundaries. Therefore, a translator should have the mastery of fields like translation, interpretation, work organization, procurement of services, and management of intercultural communication processes. Translations indeed represent the place where cultures, previously separated, come together and establish ongoing relations. So, it is quite obvious why translations have become so important and the translator is not just the person who translate words, but the one who can find the best way to transpose the main ideas, so that the intended audience gets them right. He/She should also take into consideration the social and political background, within which the translation takes place.

The purpose of translation is to serve as a substitute for the original, making it intelligible for people who cannot read the language in which it was written. This heavy responsibility creates a burden on the translator. Awareness of history is an essential requirement for the translator of a work coming from a totally different country culture. Knowledge of a foreign language with its vocabulary and grammar is not enough to make one competent as a translator. It is essential to have a thorough knowledge of his/her own culture and own language and be aware of the source-language culture before attempting to build any bridge between them.

In order to understand the responsibilities of a translator/interpreter during communication process, there is a need to explain the differences between translator and interpreter. Both are closely related, and quite similar to each other, yet they are also very different. They both basically translate from one language into another; however, there are several differences too.

Most people know that translation involves retaining the original meaning of the source text, and not a literal translation. The words used are often different, but they convey the same meaning. Surprisingly, people think of interpretation as a word for word translation

– but that is not the case. An interpretation is often a paraphrased version of the original message. The followings are the similarities between these two professionals:

- They are both linguists.
- They both translate a message from one language to another.
- Both professionals have thorough knowledge of the two languages they work with. This includes fluency, sentence structure, grammar, idioms, slang, and more.
- They both have an in-depth knowledge of the culture, customs, traditions, and so on of both the languages they work with.

- They both require professional qualifications.
- Neither interpretation nor translation is a word-to-word translation.
- Both translators and interpreters have to translate into the target language without changing the meaning of the message.

When the above items are examined, a translator and an interpreter have lots of features in common. However, there are also differences between these two professionals. The biggest difference between the two professionals is that the interpreter's role involves working with spoken communication, while a translator's role involves working with writing – websites, scripts, legal, technical or medical documents, manuals, and so on. Interpreting is all about translating something that is said, and translation is about translating something that is written. An interpreter is often required to translate back and forth; that is, from and into a particular language. However, translators usually only translate into a specific language – they don't have to translate from that language back into the original source language.

Interpreters are required to translate on the spot; at conferences, meetings, TV coverage signing for hearing impaired individuals, diplomatic mediations between nations, voice or video calls and so on. They have to listen very carefully to what the person is saying, retain it, and immediately translate it into the target language. A translation can be delivered long after the creation of the source text. So a translator gets much more time to perform the translation, and can be more thorough and precise, and deliver high quality work. Therefore, interpreters have to rely on their learning, knowledge and experience because they have to translate immediately. They don't have the convenience of any reference materials but translators have more time to search online, use dictionaries, style guides, glossaries, or even take the help of others to deliver an accurate translation. For example, when they have completed translating a document, they often pass it on to an editor, who will check the document for accuracy but no such process happens in interpretation.

Translators often benefit from technology; they use some computer aided translation tools to provide the best possible work. An interpreter has no such facility because they do not have enough time to access such tools. Another difference between translators and interpreters is related to accuracy. Translators are required to maintain a very high level of accuracy in their work but it is acceptable for interpreters if the accuracy is slightly lower because the emphasis is on conveying the message without altering the meaning in any way. Sometimes, it is not really necessary to translate the entire speech so, they have the liberty to leave out certain parts. A translator on the other hand, must translate the source document entirely; they do not have the freedom to choose what to translate and what not to.

Translators have to maintain a particular format and style of writing; there are different styles of writing for technical documents, legal documents, user manuals, medical reports, film scripts and so on; the translator also has to be careful with punctuations. However, an interpreter does not have to bother with all these things; they have something else to worry about: they need to match the tone, the modulation and inflections of the

speaker, because they are vital in spoken communication. These are verbal cues which convey a lot to the audience.

Both translation and interpretation are sensitive processes. Therefore, it is very important to choose the right words and to convey them in an appropriate language otherwise this may cause some translation errors.

1. The Reasons for Translation Errors

1.1. Inexperienced Interpreters. Although not very common, inexperienced translators are prone to error. If inexperienced interpreters are involved in interpreting, then many mistakes are inevitable and they may cause a big crisis. As an example, in 2012, two interpreters' crisis created a crisis during an important symposium due to the lack of legal terminology. At the symposium organized by Turkish Academy of Justice, the public prosecutor Felice Casson shared his experiences with judges and prosecutors. During the presentation of Italian Senator Casson, simultaneous translation was abandoned when two interpreters had difficulty in translation.

1.2. Lack of editorial supervision in written translations. Translation errors are often encountered in oral translations, but mistakes are also made in written translations. Although some of these errors are minimized nowadays, one of the most important reasons for errors in written translations is the lack of editorial supervision. Editors' check for errors made the last time files are delivered. It reviews dozens of factors, especially spelling mistakes. Usually, files that need to be delivered quickly will be overridden by the editor control. Therefore, mistakes are inevitable.

1.3. Inaccurate Terminology. In technical, medical, legal and academic terminology, texts can be translated perfectly according to the experience and knowledge capacity of the translator. For example, it is impossible to translate the text accurately if you do not have enough knowledge of medical issues. Therefore, texts and projects should be directed to interpreters in the fields they specialize.

1.4. Pressure on Interpreters. Interpreting is an area that needs not only knowledge but also talent. On the one hand, interpreter tries to understand what is spoken, and on the other hand, he passes it on. All translation takes place in a few seconds. Therefore, an interpreter has to have a cache memory that can extract the words that are stored in the deepest within 400-500 milliseconds.

In such a kind of race against time, the participation of diplomats and professors as speakers in verbal translations increases the tension in the environment. Interpreters are exposed to lots of words, terms and expressions so; the interpreter needs to be talented and knowledgeable, as well as self-confident.

1.5. Avoiding Translation. One of the most recent translation problems is not related to translation error itself; it is interpreter's "preference not to translate". Sometimes interpreters either soften or skip the whole subject while interpreting to avoid damaging diplomatic relations or inclining cultural and social misunderstandings. These events are mentioned translation/interpretation errors in the news on TV. However, it is more a matter of choice.

2. Conclusions

The progress of modern social life, new development in international relations and formation of so-called "intercultural communication" requires abandoning many of the traditional stereotypes and methods of translation. Intercultural communication with a highlight on specific cultural background knowledge has commenced to play an utmost role shaping broad-minded translators, well-aware of ethnic, cultural and other peculiarities of given language. The notion of intercultural communication is defined by Council of Europe (2001) as "the ability to communicate effectively in cross-cultural situations and to relate appropriately in a variety of cultural contexts".

In this regard, the term of 'intercultural communication' has a primordial significance within growing tendencies of globalization and international cooperation in different spheres, where the translator is required to receive a proper training not only in the sphere of foreign languages but also in the intercultural communication. Thus, according to the "White Paper on Intercultural Communication" by the Council of Europe (2001), the intercultural communication is understood as "a process that comprises an open and respectful exchange of views between individuals and groups with different ethnic, cultural, religious and linguistic backgrounds and heritage, on the basis of mutual understanding and respect. It requires the freedom and ability to express oneself, as well as the willingness and capacity to listen to the views of others." Intercultural communication plays an essential role in such fields as political, social, cultural and economic integration and the cohesion of culturally diverse societies. It is aimed at developing a deeper understanding of diverse perspectives, visions of the world and practices; enhancing integration and co-operation, as well as fostering equality and tolerance.

The prerequisites of an effective intercultural communication cannot be limited to a merely good command of an international language. Still, apart from the linguistic factor, such notions as equal dignity and mutual respect, gender equality, the universal values of human rights, democracy and the rule of the law comprise a set of conditions, necessary for a fruitful intercultural communication. It should not be overlooked that there are a lot of barriers to intercultural communication. Some of these are the outcomes of the difficulty in communicating in several languages. But others concern the domain of politics: racism, xenophobia, intolerance and all other forms of hate speech confront to the very idea of dialogue and create structural barriers, hindering the communication.

It is evident that the interpreters play a vital role as cultural mediators between people who need to communicate but do not speak the same language. The role of interpretation as an intercultural communication is like a bridge, which demands that interpreters not only master exquisite language techniques, but also rich and generous knowledge of different cultural backgrounds. The important functions of intercultural awareness during intercultural communication were always kept in mind. Therefore, it can be concluded that the interpreter/translator needs to strengthen the sensitivity not only to linguistic differences but also to cultural differences, so that misunderstandings can be effectively reduced, and intercultural communication can be successfully achieved.

References:

1. Aerospace Scholars. (2009). An Educational Outreach Program, NASA's Johnson Space Center, Texas.
2. BBC Culture. (n.d.). The Greatest Mistranslations Ever
3. Burroughs, E. R. (1911). A Princess of Mars, All-story Magazine, USA.
4. Council of Europe (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment, Strasbourg.
5. Lowell, P. (1911): Mars and its Canals. 3th edition. The Macmillan Company, New-York. Marx, K. (1990). Capital, Volume I. Fowkes, Ben (trans.). London: Penguin Books.
6. Ministry for Culture and Heritage. (2017, May 17). The Treaty in brief, Sözcü Gazetesi. (2017, May 17) Erdoğan ve Trump Basın Toplantısında Çeviri Hataları. <https://www.sozcu.com.tr/2017/dunya/erdogan-ve-trumpin-basin-toplantisina-ceviri-hatasi-damga-vurdu-1854422>.
7. The Openmic. (2017, September 30). What does it mean to be a translator?
8. Your Dictionary.(n.d.). Definition <https://www.yourdictionary.com>.
9. The role of translator in intercultural communication <https://www.studocu.com/in/document/university-of-calicut/translation-studies/the-role-of-translator-in-intercultural-communication/23408077>
10. <http://www.bbc.com/culture/story/20150202>.
11. <https://theopenmic.co/what-does-it-mean-to-be-a-translator>.

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA METAFORANING O'RGANILISHI

Sh.K.Eshimova,

Koreys filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi

Tildagi ma'no ko'chish hodisasi juda qadimdanolimlar diqqatini o'ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o'rganishdi. Tilshunoslarning qayd etishicha, mazkur muammo bilan xitoy va hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug'ullanishgan. Metafora Aristoteldan keyin o'tgan yillar davomida to'xtovsiz ravishda muhokama qilingan. Dastlab, adabiyotning ritorik nuqtai nazaridan bu ifoda o'ziga xos ta'sir ko'rsatadigan bezak turi sifatida qaraldi va u adabiy maydon bilan chegaralanib qoldi, ammo so'nggi yillarda u faylasuflarning qiziqish mavzusiga aylandi. Ya'ni tilshunoslar, shuningdek, psixologlar, metafora sifatida, oddiy ritorik nuqtai nazardan adabiy bezak sifatida emas, balki hamma joyda tarqalgan va hamma tillarda bir-biriga bog'langan fikrning asosiy kontseptual tizimi sifatida qaraladi. Shuning uchun metaforani o'rganish inson tili tabiatini o'rganishdir, agar til inson fikrining ifodasi bo'lsa, metafora o'rganish inson tafakkurining mohiyatini o'rganishdir. Tilshunoslikning asosiy oqimini tashkil etgan Xomskiyning (1965) transformatsiyani hosil qiluvchi grammatikasi deb nomlangan asarida u metaforalarni deviant iboralar sifatida ko'rib

tushuntirishga harakat qiladi. Shuningdek, Black (1962), Cohen (1979) va Levin (1977) kabi faylasuflar buni o'xshashlik asosida tushuntirishga harakat qilishadi. Biroq, ularning tushuntirishlari metafora mohiyatiga yaqinlashmaydi. 70-yillarning oxiridan boshlab metaforalarni tushuntirish bo'yicha ish olib borilib metaforalarni istisno iboralar sifatida emas, balki oddiy iboralar sifatida ko'rish va ularni odamlarning idrokiga va xulq-atvoriga haddan tashqari odatiy va keng tarqalgan ta'sir ko'rsatadigan muhim omillar sifatida qarashdan boshlanadi. Qomusiy olim M.Qoshg'ariy ham o'zining mashhur "Devonu lug'atit turk" asarida turkiy tilda metafolarni qayd etadi. Biroq unda so'zning har bir ma'nosi alohida so'z sifatida berilgan. Buyuk mutafakkir A.Navoiy ham turkiy til imkoniyatlarini fors tiliga qiyoslab tahlil qilganida, so'zlardagi ma'no boyligiga to'xtalgan edi. Lakoff va Jonson (1980), Lakoff (1987, 1993), Langacker (1987,1991), Lakoff Tyorner (1989), Jonson (1987) va Tyorner (1987) kabi ko'plab olimlar metaforalarni kognitiv lingvistik nuqtai nazardan muhokama qilib kelishgan. Ushbu akademik tendentsiyadan so'ng, ushbu tadqiqot metafora mohiyatiga kognitiv grammatika asosida yondashishga harakat qilgan. Shunday qilib, metafora ifoda - bu ritorik vosita yoki favqulodda hodisa emas, balki kundalik til hayotida ko'p joylarga singib ketgan juda normal va kundalik og'zaki ibora hisoblanadi. Shuning uchun ushbu tadqiqot avval bir metafora xususiyatlarini aniqlab beradi va keyin shu qadar aniq bo'lgan mavjud yondashuvlarni o'rganib chiqadi va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlaydi. Metaforalarning ta'sirchanligi va ta'siriga qarab, metafora eng ijodiy qo'llaniladigan she'rlarga e'tibor qaratib, metafora bizning fikrlashimizga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz. Ushbu maqsadga erishish uchun ushbu tadqiqotni rivojlantirish maqsadi qo'yildi. Kognitiv xususiyatlari tekshirilganidan so'ng, metafora kognitiv xususiyatlarga asoslangan holda talqin qilinishi kerakligi aniqlandi. Tarjimon Mirzaali Akbarov Hermann Hessening «Cho'l bo'risi» romanini tarjima qilish jarayonida o'zbek tilining imkoniyatlarini chetda qoldirmadi. Metaforani metafora tarzida tarjimada aks ettirish, adekvat tarjima usulining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda, metafora xususida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Metafora haqida benihoya katta miqdordagi ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Adabiyotlarning aksariyatida metaforaning asosiy mohiyati o'xshatish, qiyoslashdan iborat. Xulosa qilib aytganda shu paytgacha tadqiqot mazmuni asosida yaxlit xulosa qilingan va metaforaning kognitiv xususiyatlari bayon qilingan, so'ngra metaforani kognitiv o'rganish metaforik ma'noga xos xususiyatlar til ma'nosini o'rganishda metafora o'tgan asrning o'rtalariga qadar chetlab o'tilgan. Tilning ma'no hodisasiga qiziqqan faylasuflar va tilshunoslarning aksariyati so'zma-so'z ma'noga e'tibor berishgan va uning ma'nosini izohlashga harakat qilishgan. Ular so'z yoki jumladagi lingvistik ibora tom ma'noda ma'noga ega bo'lmasa, u she'riyat yoki ritorikada o'rganish ob'ekti bo'lishi mumkin, ammo tilshunoslik semantikasida ko'rib chiqiladigan o'rganish ob'ekti bo'lishi mumkin emas deb ta'kidlaydilar. Bular o'zlarining ona tili sifatida koreys tilida so'zlashadigan odamlar kundalik til hayotida bimalol aytadigan yoki eshitadigan jumladir. Ular ushbu jumalarni metafora bilan o'zlarining kundalik til hayotini boshqarish uchun ishlatmoqdalar.

Chet tilini o'rganadigan kishilarning asosiy maqsadlaridan biri bu o'sha tilda erkin muloqot qilishdir. Chet tilida muammosiz muloqot qila olish qobiliyatini o'stirish uchun

tilning sintaktik, semantik va morfologik xususiyatlarini bilish kerak, lekin o'sha tilning madaniy ta'lim-tarbiyasi ham birdek muhim. Ba'zilar grammatik va leksik bilim bo'lsa bo'ldi muloqotda katta muammo bo'lmaydi deb ta'kidlashadi ham, ammo bunday qarash muloqot so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro faoliyat degan asosiy tamoyilni tushunmaslikning natijasi sifatida ko'rish mumkin. Til ta'limida o'rganilayotgan til doirasida madaniy ta'lim ham birgalikda amalga oshirilishi kerak. O'rganilayotgan tilni yaxshi o'zlashtirganda ham o'sha mamlakatning til madaniyatini bilmasa ko'p xatolarga yo'l qo'yish mumkin. Madaniy ta'limning Koreys tili ta'limining hozirgi asosiy tendentsiyasi konstruktivistik nuqtai nazardan muloqotga yo'naltirilgan o'qitish-ta'lim va o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishdir. O'quvchilarni ta'lim markaziga qo'yadigan, ularning faol ishtiroki va erkin bilim olishlarini qayta qurishni ko'zda tutuvchi koreys tilini o'qitish usullari turli yo'llar bilan muhokama qilinmoqda. Ulardan biri yaqinda bo'lib o'tgan tilshunoslarning faol tadqiqot natijalari tufayli koreys tili ta'limiga metaforani o'rganishga kirishish to'g'risidagi muhokamasidir.

An'anaviy nuqtai nazarga ko'ra, metafora ritorik ulug'vorlik va adabiy tasavvurni ochib beradigan, kundalik inson tafakkuridan ajralib turadigan lingvistik mahorat vositasi sifatida qaralgan. Biroq Lakoff va Johnson (1980) boshchiligidagi kognitiv tilshunoslar metafora haqidagi an'anaviy qarashlarni tanqid qilib, metaforani kundalik til va tafakkurni qamrab olgan kontseptual hodisa sifatida qabul qildi. Ular ta'kidlab o'tgan kontseptual metafora nazariyasiga ko'ra til tabiatan metafora bo'lganligi sababli metafora inson tafakkuri va kontseptual tizimlarida mavjuddir. Demak, metafora nafaqat she'r yoki roman kabi badiiy asarlarda balki kundalik muloqotda ham keng qo'llaniladigan til ifodalash vositalarining keng doirasi bo'lib, til foydalanuvchilarining psixologik, lingvistik, madaniy jihatlarini ochib berishda qo'l keladi. Shu nuqtai nazardan bir tilning metaforik hodisasini kontseptual tushunmasdan u tildan foydalanib muammosiz muloqot qilish qiyindir. [김영실, 2006: 1].

Yaqinda Koreyada kontseptual metafora nazariyasi joriy etildi va u birinchi navbatda koreys tili ta'limi sohasiga ta'sir ko'rsatdi. Koreys tili ta'limi sohasida jadallashgan tadqiqot faoliyati orqali o'qitishda yangi metafora kontseptsiyasini aks ettirishga harakat qilindi (Kim Ki Su 1993; Kim Song Te 2000; Kim Jong Do 1997, 2004; Pak Jin Yong 1999; Im Ji Ryong 1995). Ular metaforalarning semantik tuzilishini kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan o'rganib chiqdilar va koreys tili darslarida kontseptual metaforalarni o'rganish zarurligini ta'kidlab, metaforalarning kundalik tilda keng tarqalganligini ochib berishdi [김영실 2006, 참조].

Kognitiv tilshunoslikning tadqiqot yutuqlari nafaqat koreys tiliga balki koreys tili ta'limiga ham ta'sir korsatdi. Chet tilini o'rganish bu – o'rganilayotgan til xalqining kontseptual tizimini, firklash tarzini va madaniy yo'llari kabilarini tushunishni talab qiladigan o'quv faoliyatidir. Shu jihatdan o'rganilayotgan tilning metaforik ifodasini o'rganish nafaqat o'rganish maqsad qilingan tilning lingvistik funktsiyasini, balki ijtimoiy va madaniy tushunishni ham yaxshilash mumkin bo'lgan muhim ta'lim faoliyatidir. Chet tili sifatida koreys tilini o'rganayotgan turli chet ellik o'rganuvchilar koreys tili metaforasi ta'limi orqali koreys madaniyati tafakkuri va madaniy tizimini tushunishlari mumkin bo'ladi.

Biroq, koreys tili ta'limi sohasiga kontseptual metaforalarning kiritilishi juda yaqinda sodir bo'ldi, shuning uchun koreys tili ta'limida kontseptual metaforalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar hali faol o'rganilmagan. Bundan tashqari tegishli tadqiqotlar koreys tili va o'rganuvchilarning ona tilidagi metaforik iboralar o'rtasidagi qiyosiy tahlilga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, koreys tilini o'qitishda kontseptual metaforalarni o'rganish zarurati koreys tili darslarida bevosita qo'llash orqali muhokama qilinmaydi. Shuning uchun kontseptual metafora ta'limining aniq usullarini muhokama qilish kerak. Koreys tilini o'qitish sohasida eng keng tarqalgan usul bu o'qituvchi – ta'lim jarayonida madaniy xususiyat bilan bog'liq bo'lgan kontseptual metaforaga duch kelinganda ushbu metaforik iboraning madaniy fonini tushuntirish usulidir. Masalan, “sevgi – loviya po'stlog'i” iborasi koreys tilining madaniy xususiyatlariga ko'ra sevgining kontseptualizatsiyasi qanday qilib loviya po'stlog'i bo'lishi mumkinligini yoki koreys tilining madaniy xususiyatlarini ochib beruvchi maqol yoki idiomatik iboraga duch kelinganda u haqida tushuntirib berish kabilardir. Bu usul hozirda koreys tili ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan usul deb ham aytiladi [언어문화 교육의 방법에 관한 논의는 구분관 (2015) 을 참조할 수 있다]. Lekin, “sevgi – loviya po'stlog'i” iborasi koreys tiliga xos bo'lib, boshqa tillar va madaniyatlardan bo'lgan chet ellik o'rganuvchilarning oson tushunishlari qiyin bo'lgan iboralardan biridir. Shu sababdan, bunday turli til madaniyatlarining o'ziga xos iboralari bilan umumiy ifodalari haqidagi chet ellik talabalarning tushunchalarini o'rganib chiqib, koreys tilini o'qitish va o'rganish jarayonida amaliy vosita sifatida foydalana olishlari uchun aniq strategik usullar haqida ham muhokama qilish lozim [Ku Bon Gvan 2015].

Kontseptual metafora nazariyasiga ko'ra [Lakoff 1980; 1989; 1993; 1999; Kovecses 2005; 2010], tildagi metaforalar borliqning ma'lum bir aspektlari haqidagi tizimli fikrlash tarzini shakllantiradigan kontseptual metaforalarning ifodalanishidir. [Lakoff 1980: 7]. Masalan, tarjima nazariyasi haqida so'zlayotgan tarjimon tarjimoni “harbiy qurol”, uzun tarjimoni “uzoq qamal”, tarjimonning tugashini esa “g'alabali hujum” deya kontseptual metaforadan foydalanadi (И.А.Кашкин). Bu iboralar tarjimon ongida bir-biri bilan bog'lanadi, chunki u har gal ulardan foydalanganda tarjimoni urush sifatida qabul qiladi. Bu metafora, masalan, tarjimonning askar kabi jasur va qat'iyatli bo'lishi kerakligini yoki tarjima muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishini, odatda g'alaba yoki mag'lubiyat bilan tugaydigan urushni anglatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 김영실 ‘고등학교 영어교육에서의 은유 교수-학습 모형 연구’, 경상 대학교 대학원 박사학위 논문, 2006
2. 구분관 ‘한국어 어휘에 나타나는 언어문화에 대한 학습자와 교수자의 인식 연구’ 한국어언어문화교육학회, 2015
4. Lakoff ‘Metaphors We Live By’ Chicago 1980
5. Kovecses ‘Metaphor in Culture Universality and Variation’ Cambridge 2005

ЎЗБЕК ВА КОРЕЙС ЭРТАКЛАРИ ВА УЛАРДА ТАСВИРЛАНГАН ОБРАЗЛАРДАГИ ЎХШАШЛИК ВА ФАРҚЛАР

Ш. Базарова,
СамДЧТИ катта ўқитувчиси.

Аннотация. Бошқа халқлар фольклори каби корейс халқ эртаклари ҳам келиб чиқиш жиҳатидан реал ҳаёт билан боғлиқдир. Шундай қилиб, корейс халқининг турли тарихий жараёнида эртақлар бадиий хусусиятларга эга бўлди. Корейс афсона ва асотирлари сеҳрли эртақлар билан яқиндан алоқадордир, шунинг учун бўлса керак уларни афсона сифатида яқун топиб, эртақ Базасифатида бошланишини фарқлаш қийин кечади. Эртақ сюжетини мамлакат тарихидан алоҳида ажратиш мушкул. Шунинг учун ҳам корейс фольклоридаги сюжетлар қадимий корейс давлатлари: «Чосон», «Когуре», «Силла» каби давлатлар билан боғлиқ. Корейс мифологик персонажлар ярим тарихий ярим афсонавий ҳукмронлар ва қаҳрамонлардан иборатдир.

Эртақлар корейс халқининг ҳам севимли оғзаки ижодидир. Баъзилар уни “옛말” – «ўтмиш тўғрисида сўз» деб атасалар, бошқалар уни – “옛이야기” – “ўтмиш ҳақида ҳикоя” деб атайдилар. Корейс сеҳрли эртаклари анъанавий қаҳрамони сеҳргар донишманд «현인» раҳмдил қария образи орқали ифодаланади. Яна шундай эртақлар ҳам мавжудки, ундаги асосий қаҳрамон монахлардир. У будда ибодатхонаси билан боғлиқ бўлмаган ҳолда, қишлоқма-қишлоқ юриб яхшилик тарқатади ва ёмонликни жазолайди (“Сеул пўлат пойтахти” каби).

Корейс халқининг асрий орзуси ажойиботлар ярата оладиган ва одамларни бахтли қила оладиган «чжансу» кўркмас баҳодир образи орқали намоён бўлади (“Баҳодирнинг қонли кўз ёши”, “Баҳодирлар кўли” каби эртақларда). Бошқа дунё халқлари каби корейсларда ҳам машҳур эртақлар ўғай қиз ва золим ўғай она ҳақидадир (“Атиргул ва нилуфар”).

Корейслар севимли қаҳрамонларидан яна бири балиқчи бўлиб, бу образ орқали оддий корейс халқининг сахийлиги мужассам бўлади. У одатда тўрига тушган балиқни озодликка чиқаради ва у эса аслида денгиз ҳукмдорининг ўғли бўлиб чиқади.

Ҳайвонлар тўғрисидаги корейс эртаклари бу турдаги бошқа халқлар эртаклари билан умумийлиги кўпроқдир, фақатгина уларда ҳайвонлар бошқача гавдаланади. Масалан, бўри тимсоли ўрнини корейс эртақларида йўлбарс ўрин эгаллайди. Йўлбарс тимсоли нафақат куч-қудратни ифодаламасдан, балки хурофий сиғиниш объектини ҳам ифодалайди. Шарқ халқлари фольклорида ягона образ – оддий халқнинг ҳимоячиси бўлса, корейс халқининг бундай қаҳрамони «Ким Сон Дал»дир.

Корейс фольклори сеҳрли, маиший ва ҳайвонлар тўғрисидаги эртақларда кўплаб турли хил эртақ сюжетлар, қаҳрамонлар яратди. Шарқнинг турли диний-фалсафий билимлари эртақлар тузилишига ўз таъсирини кўрсатди.

Ўзбек ва корейс эртаклари ва уларда тасвирланган образлардаги ўхшашлик ва

фарқлар мавжуддир. Албатта, тўғри таржима қилишда нафақат тил, балки ушбу халқ маданиятини ҳам билиш керак. Тилда ҳам маданиятда ҳам керакли жиҳатларни ҳисобга олиш керак. Масалан, бир халқнинг маданий мероси иккинчи халқда мавжуд эмас, ёки фарқланади, шундай экан тилда ҳам бу ўз аксини топади. Маданият, анъаналар, урф-одатлар, яшаш тарзи тарихий далиллар – ҳаммаси лингвоэтник реалиялардир.

Лингвоэтник хусусиятларни корейс эртаклари «Алданган аждаҳо» ва «Қирқ минг йил яшаган одам») эртаклари мисолида кўриш мумкин.

«구렁이» - мифологияда катта илондир. Фольклорда эса 구렁이нинг турли хил турлари мавжуд. Тўрт бошли аждарнинг бир қисми – оловли оғизли, булутлар орасида учадиган ва душманини мағлуб этадиган аждарҳодир.

Корейс фольклорида ҳайвонлар алоҳида ўрин тутади. Аждаҳо қадимдан шарқ мифологиясида қўлланиб келинган. Илон эса бизнинг тушунчамизча, унчалик катта бўлмаган, лекин қўрқинчли жонивордир. Шунинг учун ҳам эртакнинг лингвоэтник хусусиятларни ҳисобга олиб таржимада «илон» сўзи «аждаҳо» сўзига алмашган, бу билан эртакнинг миллий колорити сақланиб қолган.

Эртакнинг асосий қаҳрамонлари бу камбағал ва аждаҳодир. Ўзбек халқ эртакларида ҳам шунга ўхшаш мавзу “Аждаҳо ва малика” эртагида учрайди.

Ўзбек ва корейс эртаклари ўртасида умумий жиҳатлар мавжуд: булар охири-оқибат эртак охири яхшилик билан якун топади, инсоннинг ижобий хислатларидан унинг раҳмдиллиги, самимийлиги, олийҳимматлиги, мардлиги, ҳалоллиги, сабр-тоқати, топқирлиги, ақл-зеҳни ва асосийси унинг муҳаббати ёвузлик устидан ғолиб чиқади. «Алданган аждаҳо» эртагида камбағал ўзининг топқирлиги, ақллилиги сабаб аждаҳодан қутилиб қолади ва бошқа бир корейс эртагида «Қирқ минг йил яшаган одам» бунинг акси бўлиб, алдов жазоланади.

Икки халқ эртакларида баъзан шафқатсизликка мойиллик ҳолларини учратиш мумкин. Масалан, бу эртакда аждаҳога айланган аёл одамларни ейди. Лекин, қаҳрамонлар характери ва темпераментлари, фикрни баён қилиш усуллари ҳам фарқланади. Ҳар бир халқ ўзининг ифода усулига эга. Эртакнинг кириш қисми ўзбек эртакларида “Бир бор экан, бир йўқ экан”, рус эртакларида деярли «жили-были» шаклида учрайди. Корейс эртаклари эса «Қадим-қадим замонларда...» сўзлари билан бошланади.

Яна шуни ҳам таъкидлаш лозимки, корейс эртакларида аждаҳо ҳам, кўза ҳам, рух образлари ҳам аёл киёфасида ифодаланиб эртакнинг салбий образларини ташкил этади. Бежизга корейс эртакларида аёллар салбий образ сифатида гавдаланмайди, чунки шарқда узоқ вақт аёллар ўз ҳақ-хуқуқларига эга бўлмасдан саводсиз бўлишган. Улар эркак киши билан гаплашиш, ҳатто бир уйда бўлиши ҳам мумкин бўлмаган. Ҳатто, Жанубий Корея байроғи «Инь – Янь», Инь – зулмат, совуқ, табиатнинг аёллар томонидан бошланиши, Янь – эса ёруғлик, иссиқлик ва эркак киши рамзлари тасвирланган.

Бемалол айтишимиз мумкинки, эртакларда ўзбек ва корейс маданияти ўртасидаги тафовутли томонлар акс этади. Маданият, анъаналар, урф-одатлар ва

удумлар, ҳаёт тарзи, тарихий далиллар – булар ҳаммаси лингвоэтник реалияларда ўз ифодасини топади.

Ўзбек ва корейс халқ эртаклари ўхшаш томонлар билан бир қаторда фарқли жиҳатлари ҳам мавжуд. Эртакнинг кириш қисми, қаҳрамонлар характери ва темпераменти, ифода усули, географик муҳити, борлиққа бўлган муносабатлари, аниқлик ва реаллика интилиш, - булар ҳаммаси корейс эртакларини ўзбек эртакларидан фарқлайди.

Юқорида баён қилинганлардан шундай хулоса чиқарсак бўладики, хорижий тилдаги матнни тушиниш, бу эса мураккаб жараён эканлигини ва бу нафақат филологик билимларни, балки маданий, ижтимоий билим фонларини ва ўзга тилга хос хусусиятларни билишни талаб қилади.

Корейс ва ўзбек эртакларида маданий тафовут бўлишига қарамасдан, ўхшаш жиҳатлар кўпчиликини ташкил этади. Биз эртакларда маълум бир халқнинг тарихи, анъаналари, удумлари билан танишамиз. Шундай экан, корейс ва ўзбек эртакларида халқ маданиятини ифодаловчи реалияларга дуч келамиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. Тошкент, 1964, 110 б.
2. Канг Бонг Кю. Tradisional Korean lifestyles. – Сеул, 1995, -219 б.
3. 박 해 숙. 속담의 문화적 배경을 활용한 한국어 교육방안. 2009 년 2 월.- В.878.
4. 살아있는 한국어 속담 1078 В.
5. Chong Jong Jin. Koreys maqollari lug'ati. –Seul:Tehaksa, 2006, -2107 б.
6. Kim Jong Suk, Pak Dong Ho. Koreys tili grammatikasi. 1 qism. –Seul, 2005, -570 б.
7. Корейский язык. Сборник статей. – М.: Изд.вост.лит., 1961. – 239 с.

ЎЗБЕК ВА КОРЕЙС ТИЛИДА КОМПАРАТИВ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ УМУМИЙ ХАРАКТЕРИСТИКАСИ

И.Ф. Баёнханова,
СамДЧТИ ўқитувчиси.

Ҳар бир тилда одамлар нарса ва ходисалар дунёсига нисбатан ўз муносабатларини образли, ҳиссий таъсирчан, ҳаяжонли тарзда ифода этиш мақсадида турли-туман муқоясага асосланган лисоний воситалардан фойдаланадилар ва натижада компаратив фразеологизмлар ҳосил бўлади. Қиёсланаётган шахс, нарса, ҳислат-хусусият, воқеа–ҳодиса ва табиат манзаралари кўпинча муқояса (метафора) тарзда тингловчига яхши таниш бўлган образлар билан муқояса қилинади. Натижада тасвир янада ойдинлашади, ифоданинг образлилиги ошади, юқори таъсирчанлик ва ҳиссий туйғу вужудга келади.

Бадий муқояса, одатда, муқояса субъекти, муқояса объекти, ҳамда муқоясани вужудга келтирувчи белги-аломатлар асосида яратилади. Бошқача айтганда, муқоясанинг биринчи компоненти (субъект) ўзининг асосий маъносида қўлланилиб, иккинчи компоненти (объект) эса муқояса нимага қиёсланаётганини билдирувчи

сўздан иборат бўлади. Бундай тил воситалари компаратив фразеологик birlikлар деб юритилади.

Бундай барқарор воситалар ўзбек тилида «худди», «каби», «бамисоли», «гўёки», «сингари», «айнан» каби боғловчилар ва «-дек», «-дай» «каби» кўшимчалар, корейс тилида эса «*처럼*», «*같은*», «*는 만김*» ёки кўшимчаларсиз қўлланилиши мумкин.

Кишиларнинг табиат ва жамиятдаги нарса ва воқеа-ҳодисаларни ҳайвонат олами, ўсимликлар дунёси, табиат ҳодисалари билан муқояса қилишлари натижасида юзага келган турғун бирикмаларнинг образли асослари аксарият ҳолларда тимсолий мазмун касб этади. Масалан, кишилар у ёки бу ҳислат тимсоли сифатида муайян бир ҳайвон ёки паррандани танлар эканлар, бундай пайтда улар шубҳасиз ўша жониворнинг хулқ-атвори, ташқи кўриниши ва хатти-ҳаракатларига асосландилар. Бинобарин, халқлар тафаккур йўналишининг, ҳаёт тажрибасининг ўзаро ўхшашлиги, уларнинг турли-туман хулқ-атвор ҳамда ҳислат-хусусиятларга нисбатан муносабатларининг аксарият ҳолларда бир-бирлариникига ўхшашлиги турли тиллар таркибидаги кўпчилик компаратив фразеологик birlikларнинг бир хил образли асосга эга бўлиб қолишлигига олиб келган. [Қ.Мусаев. Таржима назарияси асослари.- Т. 2005. –Б 209]

Турли тиллар компаратив фразеологик birlikлари табиатини кузатиш халқларда умумий ва хусусий тимсоллар мавжудлигини кўрсатади. Аммо бу ҳар қайси тил ифода воситаларининг тарихий тараққиёт натижасида мустақил шакланганлигини инкор этмайди. Турли тиллар лисоний воситаларининг ўхшаш жиҳатлари мавжудлиги эса, халқлар турмуш тарзидаги яқинликнинг улар тилларида ўз аксини топганлиги билан изоҳланади.

Компаратив фразеологизмларда учрайдиган барча тилларга хос умумий тимсоллар тиллар шаклий тузилиши ва семантик қурилиши жиҳатидан кўп ҳолларда бир-бирларидан фарқ қилсаларда, кўп жиҳатлари билан ўхшаш тимсолларга асосланишига боғлиқ. Масалан, «оқ» сўзи барча халқлар тилида софлик, ростгўйлик, «қора» - *гам-гусса*, *ўлим*, «гул» *гўзаллик* ва *маъшуқа*, «бўри» *вахшийлик* ва *ёвузлик*, «тулки» *айёрлик* ва *муғамбирлик*, «илон» ва «чаён» *зараркунандалик* ва *бадхўрлик* тимсоллари сифатида қабул қилинган. Масалан, ўзбек, рус, корейс тилларида хомсемиз кишиларга нисбатан салбий муносабат «чўчкадек семиз» - *돼지처럼 뚝뚝해요* компаратив фразеологизмлари билан ифодаланади. Ниҳоятда тезлик тимсоли эса, ўзбек тилида ҳам, корейс тилида ҳам «яшин» сўзи билан муқояса қилинади:

Яшиндек тез- 가시 관성 같은 급하다.

Айрим ҳолларда тимсолларнинг қисман ўзгариши ҳам кузатилади. Масалан, ўзбеклар «қушдек енгил» дейишсалар, корейслар «пардек енгил» - *깃 같은 가볍다* дейишади.

Корейс тили фразеологиясида компаратив фразеологик birlikлар катта қатламни ташкил қилади. Бундай фразеологик birlikларнинг грамматик, семантик структураси қатор хусусиятлари билан бошқа типдаги фразеологизмлардан ажралиб туради. Мантиқан олиб қараганда, компаратив фразеологик birlikларнинг вужудга

келиши одамларнинг абстракт фикрлашларининг оғзаки ва ёзма нутққа кўчган лисоний натижасидир.

Р.А.Будагов компаратив фразеологизмларнинг мантиқий ва лисоний аспекти ҳақида гапириб «бизнинг абстракт фикрлашимиз натижасида мантиқий категориялар ҳосил бўлади ва улар нутқ жараёнига кўчиб, тил категорияларига айланади» [14: - С.285] деганида мутлақ ҳақ эди. Бундан лисоний категориялар турли тилларда қандай ўзига хос тушунчалар ифода этишидан қатъий назар, барча тилларда учрайдиган категориядир, деган хулосага келиш мумкин. Дарҳақиқат, ҳар қандай тил турли муқоясага асосланган образли ибораларга бой бўлади. Уларни одатда стилистиканинг тропалар бўлимида ўрганилади ва бир предмет, нарса ёки ҳодисанинг иккинчи бир нарса предмет, ҳодисага қиёсланиши, яъни турли компонентларнинг бирикуви асосида пайдо бўлади.

Корейс тили компаратив фразеологик бирликлари қуйидаги компонентлардан ташкил топади:

1. Қиёсланадиган предмет, нарса, воқеа номини ифодаловчи компонент. Бу компонент бошқа компонентларга нисбатан субъект вазифасини бажаради.

2. Қиёслашда таянч восита вазифасини бажарувчи компонент. Бу компонент одатда образ яратувчи сўз воситасини бажариб у муқоясанинг объекти дейилади.

3. Объект ва субъектни(биринчи ва иккинчи компонентни) ўзаро бириктирувчи қиёсловчи боғловчи.

4. Субъект ва объектнинг умумий белгиларини ифодаловчи, уларнинг ўртасида ишлатилувчи воситачи компонент.

Компаратив фразеологик бирликни нутқ жараёнида қўллаш учун унинг биринчи компоненти (субъекти) бўлиши зарур. Аммо бу субъект доимий бўлмаслиги, бошқа сўзлар билан осонгина алмаштирилиши мумкин. Бу субъектни материал ифодалаш доим ўзгариб туришидан далолат беради, объект эса доимий, яъни, ўзгармай қолаверади. Масалан, юқоридаги компаратив бирликнинг субъекти ҳисобланмиш «바람» компонентини осонгина бошқа феъл билан алмаштириб янги компаратив фразеологик бирлик ҳосил қилиш мумкин:

바람이 프우다

발람이 나다.

Субъект компонентнинг бундай алмаштирилиши объект ифодалаган маънонинг функционаллигига, лексик-семантик хусусиятларига умуман таъсир қилмайди. Чунки улар орасида мустаҳкам мантиқий (логик) боғланиш мавжуд- улардан бири иккинчисига ҳам характерли. Умумий бўлган белгини ифодалаб келяпти. Шу сабабли образли қиёслашлар тил бирлиги сифатида икки компонентли ҳосилалар ҳисобланади ва улардан биринчиси иккинчисига ҳам дахлдор бўлган белгиларни, хусусиятларни ифодалаб келади.

Корейс тилида образли қиёслашларнинг компонентлари: -дек, худди, айнан, каби - *처럼*, -는 만큼, 같은, 마치... *처럼* сингари қўшимча ва боғловчилар билан ёки уларсиз бирикади. Бироқ қиёсий компаратив бирликларнинг вужудга келишида энг кўп қўлланиладигани «-дек» *~처럼*, қўшимчаси ва «худди» *마치...처럼* боғловчисидир.

Айнан шу воситалар ёрдамида кўплаб компаратив фразеологик бирликлар яратилганлиги кузатилади. Аммо таъкидлаш жоизки «-дек» боғловчиси билан ясалган барча бирликлар фразеологик бирликлар ҳисобланавермайди, балки муайян муаллиф томонидан яратилган, тилда турғинлик касб этмаган индивидуал компаратив иборалар ҳисобланади.

Образли компаратив фразеологик бирликларнинг семантик структурасидаги ўзига хос хусусиятларни ўрганиш учун дастлаб уларни бир хил грамматик структурага эга бўлган оддий қиёсий иборалардан фарқини ўрганишимиз лозим. Бу мақсадда қуйидаги икки мисолни қиёслаб кўрамиз:

모델처럼 날씬해요

인형처럼 예뻐요

Биринчи мисолда қиёслаш конкрет. Биринчи компонентга (субъектга) хос бўлган сифат (гўзаллик) тенг равишда иккинчи компонентга (объектга) ҳам тегишли эканлиги таъкидланаяпти. Агар биз субъектни ифодаловчи сўзни объектни ифодаловчи сўз билан алмаштирган тақдиримизда ҳам уларнинг синтактик функцияси ўзгарса ҳам, мантиқий қиёсланиши сақланиб қолади. Иккинчи мисолда эса субъектга мансуб бўлган сифат яъни гўзаллик объектга нисбатан орттирма даражада ифодаланаяпти. Бу ўринда гўзаллик объектга ва субъектга баб- баравар хос сифат эканлиги ҳақида эмас, субъектнинг объектдан ҳам гўзалроқ эканлиги ҳақида гап кетаяпти. Айни пайтда “*кўғрчоқ*”, “*인형*” оти ҳам конкрет маънода эмас образли, кўчирма маънода ишлатиляпти. Шу сабабли ибора таркибидаги “*кўғрчоқ*”, “*인형*” оти экспрессив-эмотсионал функцияни бажараяпти. Яъни чиройли сўзининг маъносини янада кучайтиряпти. Бундай образлилик уларнинг таржимасида қуйидагича ифодаланади:

Моделдек келишган

Кўғирчоқдек чиройли

Демак, образли компаратив бирликлар оддий қиёслашлардан биринчи навбатда компаратив бирликнинг иккинчи компонентининг муайян бир сифат ёки белгининг намунаси сифатида метафорик (кўчма) маънода ишлатилиши билан фарқ қилади. Айни пайтда компаратив фразеологик бирликлар, образли қиёслашлар орқали вужудга келса ҳам, барча образли қиёслашлар тилнинг фразеологик фондидан жой олавермайди. Демак, микдорий фарқлар нафақат образли ва оддий қиёслашларда, балки образли қиёслашлар ва образли компаратив фразеологик бирликлар орасида ҳам ўзига хос равишда намаён бўлади. Бу фарқларни аниқлаш фразеологик бирликларнинг семантик структурасининг ўзига хос хусусиятларини очиш, уларнинг фразеологик характерини илмий асосда далиллашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Авдеева, Л.А., Воронцова, Т.В. Язык одного народа как средства трансляции культур народов мира // Международная конференция «Язык и культура». -М., 2001. - С. 85-86.
2. Апресян Т.Я., Апресян Ю.Д. Об изучении смысловых связей слов. //ИЯШ, 1970, № 2, с. 32-56.

3. Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц. – Казань: изд-во Казанского университета, 1989, -126 с.
4. Бакиров П.У. Универсальные пословицы разных языков обозначающие одну ситуацию. //Бадий таржиманинг лингво-поетик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани. 2012-йил 23-24-ноябр, Самарқанд, 31-32 бетлар.
5. Брюховская Л.С. Язык как инвариант национального менталитета // Международная конференция. «Язык и культура». — М., 2001. -С. 90.
6. Васкин Т.З. Основные способы перевода корейских пословиц и поговорок на русский язык. //Бадий таржиманинг лингво-поетик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани. 2012-йил 23-24-ноябр, Самарқанд, 47-48 бетлар.
7. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры. /Фразеология в контексте культуры. – М., 1999, -С. 13-24.
8. Телия В.Н. Что такое фразеология. -М., 1966.
9. Корейс халқ мақоллари. «Жаҳон адабиёти» , 2005, №5.
10. Лингвистический энциклопедический словарь — Москва, 1990
11. Лим Су. Корейские народные изречения. -М.:Главная редакция восточной литературы. «Наука», 182. -359 с.
12. Шонг эонг Жин. Корейс мақоллари луғати Сеул-Техакса, 2006. - 217 б.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати –Т., “Ўқитувчи”, 1978.
14. 윤희수. 관용어의 고정된 어순 분석 // 논문집 10. 금오 공과대학, 1989. – 11 п.
15. 김 문 옥 한-우 사전 도서출판 베텔사 2006

KONSEPTNING LINGVOKOGNITIV TALQINI

U.M. Elmuratova,

Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

XX-asrning 60-yillarida kognitiv tilshunoslik tilning semantik aspektiga o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Bu kompleks aspekt inson tili va mental (ruhiy) faoliyatning o‘zaro ta‘siri, ya‘ni inson tili va bilish faoliyatini o‘rganuvchi fandır. Kognitiv tilshunoslikning asoschisi Amerikalik lingvist va psixolog Noam Xomskiy hisoblanadi. U bilish nazariyasiga ijodiy yondashadi va kognitsiya tushunchasini quyidagi uch asosiy masalalar bilan bog‘laydi:

1. Bilishning tabiati (bilish nimani ifodalaydi)
2. Inson ongida bilimlar sistemasining shakllanishi
3. Bilimni ma‘lumotlar banki shaklida kompyuterda va zamonaviy tadqiqot texnologiyalarida qo‘llash.

“Konsept”- atamasi tilshunoslikda ham yangi ham eski atama hisoblanadi. Hozirda tilshunoslikda Konsept tushunchasiga juda katta e‘tibor berilib kelinmoqda. 1974 yillar atrofida an‘anaviy tilshunoslikda Konsept atamasi o‘zgacha chuqur izohlar talab qiladigan

muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasidan to`la huquqli foydalanish 80-yillarda avtorlar Cheyf, R. Jakendof, G.Lakof, R.Langaskerlarning asarlarini tarjima qilinishi bilan bog`liq. Aynan o`sha matnlarda odatda Konseptualizatsiya, Konseptual mohiyat atamaları uchrab turadi. Konsept tushunchasining lug`aviy ma`nosi ustida ko`pgina avtorlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. Kognitiv atamalar lug`atida “Konsept” atamasiga quyidagicha ta`rif beradi: Konsept- bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarining inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir.

“Konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda u yoki bu leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo`llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda tez-tez Konsept atamasi tushuncha bilan sinonim sifatida qo`llaniladi. “Konsept”- lotincha “conceptus” so`zidan olingan bo`lib, tushuncha ma`nosini bildiradi. Konsept tushunchalar yig`indisidir. Masalan, biror predmet haqida aytilgan yoki bildirilgan har qanday fikrlar yig`indisi Konseptni tashkil etuvchilaridir.

Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni koreyscha cognitive- “bilishga oid” so`zi bilan bog`liq. (Qiyoslang: cognize- bilmoq, anglamoq, tushinmoq. cognition– bilish, tushinish). Ma`lumki, dunyoni, voqe`likni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to`g`ridan-to`g`ri fahmlash, tushinish harakatlari bilan bog`lab qo`yishadi. Ammo, hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo`lsa ham) fahmlash, tushinish, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma`lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda faqatgina cogitation - lotincha aql, tafakkur hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki, cogitorium –tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog`liq bo`lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) xodisalarni ham inobatga olish kerak bo`ladi. Shuni unutmaslik lozimki, tafakkurning o`zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo`lib, u insonlar o`rtasidagi muloqot jarayonida voqe`likka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir.

Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma`no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug`ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo`lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog J.Fodor voqe`likning ongda in`ikos etishi va bu in`ikosning tafakkurda qayta ishlanishi jarayonini o`rganayotib, bu jarayonni tafakkur lisoniga o`xshatadi. Chunki “har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma`lum ko`rinishdagi strukturaga ega bo`ladi, hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir”.¹⁰

Konsept – mental tuzilma bo`lib, u turli tarkibdagi va ko`rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir.¹¹ Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo`lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilishi jihatidan aniq tuzilishga ega emasligi qayd qilinadi. Biroq bu qayd unchalik haqiqatga ega emas. Zero, kontsertning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o`rinni egallagan bo`laklari

¹⁰ Fodor J. The Language of Thought. - Sussex, 1975, 110-бет

¹¹ Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. Падежная грамматика. В кн. Современные зарубежные грамматические теории. М.: ИНИОН. 1985. –90-бет

mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli, konsept tarkibining tizimiy xususiyatlari tuzulish jihatdan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida nomoyon bo'ladi. Amerikalik kognitivistlar konseptual semantikaning keyingi rivojida tilshunoslikdagi umumnazariy qarashlarga yangicha yondashishni taklif qildilar va bu qarashlar ma'noni chuqurroq anglashga imkon beradi.

Agar ma'no "Konsept" shaklida tushuntirilsa, aynan, Langaker ham bu qarashlarga qo'shilgan holda, shuni ta'kidlaydiki, "Konsept" inson tafakkuridagi bilimlar bilan bir xil joylashgan bo'lishi mumkin.

Konsept so'zi aslida lotincha conceptus bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Hozir ham ko'pincha "Konsept" terminidan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo'llanilmoqda.

YE.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, "Konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokul'turologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi. Til inson ongida Konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, Konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda Konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, Konsept dunyoni bilish va u haqda o'z tasavvuriga ega bo'lish demakdir. Intensivlikning Konseptualizatsiyalashuvi til jarayoni bo'lib, unda til birliklari ma'no jihatdan qayta ishlanadi. Intensifikator ham so'zga nisbatan qo'llanadi, natijada o'sha so'zning konseptiga aloqador bo'ladi.

Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi. Oddiy tushuncha va konsept o'zining farqli hamda o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasi asosida shakllanadi. Bir umumiy tushuncha turli tillarda turli so'zlar orqali ifodalanadi. Masalan, koreys tilida – water, nemis tilida wasser, o'zbek tilida suv, rus tilida voda kabi. Ushbu misollar so'z ma'nosi va tushunchaning bir-biri bilan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli turli millatlar tillaridagi so'zlar o'z ma'nosiga ko'ra bir-biriga qisman yoki aynan mos kelishi mumkin. Shuningdek, so'z tushunchaning ifodalovchisi hisoblanadi va shu asosda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyati tug'iladi. Ba'zi olimlar tushuncha va so'z ma'nosining bir-biriga mos kelishini ta'kidlaydilar hamda shu asosda tushuncha va so'z ma'nosini mohiyatan bir narsa deb qaraydilar. Bu masala munozaraligicha qolmoqda. Tushuncha va so'z ma'nosining birligi nimada ko'rinadi, degan savol tug'ilishi mumkin. Har ikkalasi ham

bir xil predmet yoki hodisani ifodalaydi, umumlashtiradi. Bu tarzda ularni bir-biridan ajratib bo`lmaydi. Tushuncha so`z va uning ma`nolisiz mavjud bo`lmaydi va, aksincha, so`z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. So`z ma`nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo`lishi sababli ular bir-biridan farq qiladi.

Ma`lumki, tafakkur qonunlari ob`ektiv olam bilan bog`liq. Tushuncha mazmuni millatga bog`liq emas, u umuminsoniy xarakterga ega. Shuning uchun ham turli millat vakillari bir-birlarini oson tushunadi, fikr almasha oladi. So`z esa milliy xarakterga ega bo`lib, mazkur xalq tilining o`ziga hos qonun-qoidalari asosida shakllanadi. Shu bois ham bir so`zning ma`nosi boshqa tildagi so`z ma`nosi bilan har doim ham mos kelavermaydi. B. Ismoilov o`z tadqiqotida rus tilidagi “stol” tushunchasi ingliz va rus kishisi uchun bir xil bo`lsa-da, uni leksik ma`nosiga ko`ra ingliz tilidagi “table” so`zi bilan bir xil ma`noda qo`llab bo`lmasligini to`g`ri ta`kidlaydi. Lug`aviy ma`nosiga ko`ra konsept va tushuncha bir-biriga umuman yaqin, lekin konsept tushunchaga nisbatan keng ko`lamga ega. Masalan “stol” so`zining ma`nosini tushuntirishda biz “to`rt oyoqli, ust qismi silliq, yozish yoki ovqatlanish uchun foydalaniladigan mebel turi” deb izohlaymiz. Tushunchada stolning eng muhim tomonlari aks etadi, xolos. Konsept lingvistik kategoriya sifatida tushuncha kategoriyasini til tizimida namoyon etuvchisidir. Akademik I.I.Meshchaninov tushuncha kategoriyasiga oydinlik kiritadi. Uning fikricha, tilda ifodalanayotgan har qanday narsani tushuncha kategoriyasi deb bo`lmaydi. Tushuncha kategoriyalari tilning turli sathlarida, turli vositalar orqali ifodalanish imkoniyatiga ega bo`lgan tushunchalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Fodor J. The Language of Thought. - Sussex, 1975, 110-бет
2. Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. Падежная грамматика. В кн. Современные зарубежные грамматические теории. М.: ИНИОН. 1985. –90-бет
3. В кн. Современные зарубежные грамматические теории. М.: ИНИОН. 1985. – 90-бет

한국어와 러시아어의 과거 시제에 있어서의 상 대조 분석

M. Vakhobova

Teacher of Korean language of SamSIFL.

Abstract. The purpose of learning a language, especially a foreign language, is to increase communication skills. One of the biggest difficulties in learning Korean as a foreign language is learning various categories such as tense, aspect, mood and modality. In this study, we decided to contrast and examine the perfect and repetitive forms of the past tense in Korean and Russian.

Key words: Korean, Russian, past tense, aspect, contrastive analysis.

한국어에는 러시아어의 전체성에 해당되는 상 형태가 없으므로 한국어의 상 개념을 설정하는 데는 전체성이 제외될 수밖에 없다. 즉 한국어는 유무대립에 의한 상을 해석할 수 없다.

과거 완료상은 과거의 어느 한 시점에서 완료된 행위나 상태가 발화시점까지 미치는 것이다. 따라서 과거의 어느 때를 기준으로 하고 있으며, 과거에서 본 과거로, 사건이나 상태가 과거의 일정한 시간의 발화시점 이전의 과거에 속하는 것을 의미한다.

한국어에서는 동사에 표현되는 형태소만으로 시제와 상 범주의 의미를 구별하는 것이 어렵다. 그렇다면 이 상의 의미는 동사에 표현되는 형태소뿐만 아니라 또 다른 어휘적 요소들과 부사에 의해 표현되는 결합적 표현방법에 의한 것이다.

(1) Мой брат сделал все, что должен был сделать.

(1-1) 우리 형은 해야만 하는 모든 것을 다 했다.

(1-2) 우리 형은 해야만 하는 모든 것을 했다.

위의 한국어 예문 (1-1)에서 부사 ‘다’를 삭제하면 단순과거 시제의 문장 (1-2)가 되는데 그 해야 할 일을 완수했는지는 알 수 없다. 러시아어 예문 (1)의 동사 ‘сделал’은 완료상 동사 과거 시제라서 이미 완료, 다 끝남의 뜻을 의미한다. 그리고 한국어로 옮길 때 반드시 ‘모든 것을 다 했다’라고 해야 된다. 단순히 과거시제인 ‘해야만 하는 것을 했다’를 옮기면 ‘сделал’은 ‘делал’로 옮긴 것이 된다. 즉 러시아어에서는 과거시점에 일어나는 행위가 모두 끝난, 완료된 것인지 아닌지의 여부가 완료상/미완료상 동사에 의해 되고 한국어에서는 때때로 완료된 뜻을 지니는 부사도 있어야 된다고 할 수 있다.

그러나 한국어에서 완료 의미를 가지는 동사의 과거 시제는 러시아어의 완료상 동사의 과거시제와 대응할 수 있는 경우도 있다. 그 때는 ‘결과를 보유하는 의미’를 표현할 수 있다.

(2) Я тоже как-то сразу устал.

나도 웬일인지 곧 피곤해졌다.

위에 예문 (2)는 결과를 보유함의 의미가 나타난다. 완료상동사 ‘устал’을 사용하고 표현한다. 대응하는 한국어 예문을 보면 한국어 예문의 경우는 별 다른 부사가 없어도 이미 완료된 상태를 나타낸다.

(3) Он отдал мне книгу ушел.

그는 나한테 책을 주고 가 버렸다.

예문 (3)은 완료상 동사 ‘ушел’로 일회적인 결과 완료 의미를 표현한다. 화자는 ‘그는 어디로 가든지’ 다 상관없고, ‘가다’는 행위만 강조한다. 과거시제를 사용해서 이미 완료, 끝나는 의미도 강조한다. 예문 (3)과 대응하는 한국어 예문을 보면 완료된 의미는 ‘연결어미 + 보조동사’의 형식으로 표현된다. 즉 ‘가 버리-’는 가는 행위가 완성됨을 뜻한다. 따라서 일회성의 의미를 표현할 때 한국어의 ‘연결어미 + 보조동사’ 형식의 과거 시제는 러시아어 완료상 동사 과거 시제와 대응될 수 있다는 것을 확인할 수 있다.

다음은 과거 시제의 반복상을 살펴보겠다.

러시아어의 완료상 동사나 미완료상 동사는 다 반복적인 의미를 실현할 수 있다. 한국어는 어떻게 대응되는지 알아보자.

(4) Она несколько раз постучала в дверь и ушла.

그녀는 몇 번 문을 두드리고 떠났다.

예문 (4)의 완료상 동사 ‘постучала’과 ‘ушла’은 한 행위의 완성과 새로운 동적 상황의 발생의 의미 기능을 실현한다. 이 문장에서 반복을 나타내기 위해서 미완료상 동사를 사용하지 않고 완료상 동사를 사용한다. 완료상 동사는 일회성 의미를 가지고 있기 때문에 반복성 의미와 충돌하게 된다. 그래서 이 예문은 부가적인 의미를 가지고 있다. 즉 행위는 순차적으로 발생하고, ‘несколько раз’는 한정된 시간 내에서 행위가 몇 번 하고 나서 끝난다는 것을 의미한다. 이 반복 행위는 발화시점 전에만 나타나고 발화시점 이후에 다시 안 나오고 행위가 이미 끝나서 다음 행동의 발생을 예시한다는 의미도 표현되어 있다. 한국어 번역을 보면 반복 의미를 지니는 부사 ‘몇 번’과 어미 ‘-었-’으로 실현된다.

(5) Я два раза завтракал и ходил на озеро.

난 아침을 먹고 호수에 오기를 두 번 반복했다.

예문 (5)에서 ‘два раза’에 의해서 제한적인 반복 의미가 표현된다. 그런데 (4)와 (5)의 차이는 (5)에서 완료상 동사를 사용하지 않고 미완료상 동사 ‘завтракал’와 ‘ходил’로 실현된다는 것이다. 완료상 동사는 반복적인 과정을 강조하지 않고 미완료상 동사는 딱 두 번만 반복적으로 하는 과정을 강조한다. 그리고 완료상 동사는 앞에 계속되는 과정을 완성하고 다음 행위를 예시한다. 미완료상 동사는 완료상 동사와 다르다. 미완료상 동사는 행위가 같은 시간에 순차적으로 완성을 강조하는 것이 아니라 일련 행위의 경과를 강조하는 것이다. 한국어의 번역을 보면 예문 (5)와 똑 같이 반복적인 의미를 지니는 부사 ‘두 번’, ‘몇 번’과 어미 ‘-었-’으로 반복된 행동을 실현한다.

이상 두 예문을 통해 한국어는 러시아어의 완료상 동사로 표현된 반복과 미완료상 동사로 표현된 반복은 맥락에 의해 모두 표현할 수 있고 동사의 형태적인 차이가 없다는 것을 볼 수 있다. 이런 제한적인 의미를 가지는 반복과 제한적인 의미가 없는 반복의 구분도 상황어에 의해서 실현되며 동사의 형태적인 차이가 없다는 것을 확인할 수 있다.

(6) Он часто приходил к нам домой и рассказывал интересные истории.

그는 자주 우리 집에 와서 재미있는 이야기를 해주곤 했다.

예문 (6)에서 미완료상 동사 ‘рассказывал’와 상황어 ‘часто’에 의해서 반복적인 의미가 실현된다. 번역된 한국어를 보면 상황어 ‘자주’와 보조동사 ‘-곤 하-’가 결합해서 실현된다. 한국어 보조동사 ‘-곤 하-’는 특히 상황어와 같이 사용하면 더욱 반복상의 의미가 강조된다. 여기서 상황어 ‘자주’ 때문에 비규칙적인 반복상이 실현된다. 예문 (6)를 통해서 알 수 있는 것은 ‘-곤 하-’는 러시아어 미완료상 동사의 반복상과 대응될 수 있다.

한국어를 배울 때에는 학습자들 어려움을 겪는다. 그 이유는 서로 다른 언어로서 다른 문법 체계를 가지고 있기 때문이다. 이때는 학습자의 목표는 모국어와 한국어 사이에 있는 공통점과 차이점을 알아내고 대응하며 배우는 것이다.

그러므로 본 연구는 한국어와 러시아어의 시제와 상을 살펴보면서 러시아어 학습자들은 한국어를 배울 때에는 나타나는 특징들을 알아보았다. 즉 양 언어의 과거 시제에 있어서의 완료상과 반복상 중심으로 대조를 하면서 나타나는 특징들을 (공통점과 차이점) 알아보았다. 그 결과는 다음과 같다.

- 러시아어에서는 과거시점에 일어나는 행위가 모두 끝난, 완료된 것인지 아닌지의 여부가 완료상/미완료상 동사에 의해 되고 한국어에서는 때때로 완료된 뜻을 지니는 부사도 있어야 된다. 그러나 한국어에서 완료 의미를 가지는 동사의 과거 시제는 러시아어의 완료상 동사의 과거시제와 대응할 수 있는 경우도 있다.
- 일회성의 의미를 표현할 때 한국어의 ‘연결어미 + 보조동사’ 형식의 과거 시제는 러시아어 완료상 동사 과거 시제와 대응될 수 있다.
- 한국어는 러시아어의 완료상 동사로 표현된 반복과 미완료상 동사로 표현된 반복은 맥락에 의해 모두 표현할 수 있고 동사의 형태적인 차이가 없다.

※ 참고 문헌

1. 고영근(2004), ‘현대 국어 시제, 서법, 동작상’, 서울, 태학사.
2. 남기심 고영근(1985), ‘표준국어문법론’, 탑출판사, 304-309 쪽.
3. 문숙영(2009), ‘한국어의 시제 범주’, 태학사
4. 최동주(1998), ‘시제와 상’, 문법 연구와 자료, 서태룡 외, 태학사, 227-260 쪽.
5. 김태희(2014), ‘러시아어와 한국어의 상 대조 연구 -인식과 표현을 중심으로’, 고려대학교 대학원 석사학위논문.
6. 남기심(1978), ‘국어문법의 상과 시제’, ‘한국학보’, 4(3): 164-175.
7. Авилова. Н. С (1976), ‘Вид глагола и семантика глагольного слова’, Москва.
8. Бондарко. А. В (1971), ‘Вид и время русского глагола’, Москва, Просвещение, с 80-100.

KOREYS TILIDA FE'L SO'Z TURKUMI VA UNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

B.Bakhtiyorov. Koreys tili yo'nalishi talabasi,
Sh. Eshimova. Koreys filologiyasi katta o'qituvchisi

Fe'l — harakat bildiruvchi so'zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so'z. Grammatikada "harakat" so'zi keng tushunchali bo'lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, Masalan:

달리다 chopmoq, 뛰다 sakramoq, 울다 yig'lamoq, 잠자다 uxlamoq, 생각하다 o'ylamoq, 사랑하다 yaxshi ko'rmoq, 쉬다 dam olmoq, 시들다 so'limoq, 번식하다 ko'paymoq

Fe'llar lug'aviy ma'noga ega yoki ega emasligiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Mustaqil fe'llar. Mustaqil fe'llar boshqa mustaqil so'z turkumlariga oid fe'llar gapda predikat vazifasini bajaradi va mavzuni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Harakatni ifodalovchi, masalan, gap predmetining harakati yoki tabiat yoki materiyaning harakatini ifodalovchi fe'llar harakat fe'llari, predmetning xususiyati yoki holatini ifodalovchi fe'llar esa holat fe'llari yoki sifat deyiladi.

가다 bormoq, 오다 kelmoq, 읽다 o'qimoq, 공부하다 dars qilmoq

2. Yordamchi fe'llar. Yordamchi fe'llar (bular, odatda, "ko'makchi fe'llar" deb yuritiladi). Fe'ning bunday shakllari turli grammatik, modal va boshqa ma'nolarni ifodalaydi:

읽어 주다 o'qib bermoq, 읽어 보다 o'qib ko'rmoq, 읽어 되다 o'qib bo'lmoq, 읽을 수 있다 o'qiy olmoq

3. Bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar.

Masalan: 운동선수가 되다 sport ustasi bo'lmoq, 교사가 되다 o'qituvchi bo'lmoq
Harakat va holat fe'llari.

1. 동작동사 harakat fe'li

사물의 움직임이나 작용을 나타낸다. Ob'ektning harakatini bildiradi

예문: 학생이 학교에 간다 O'quvchi maktabga boryapti

비가 옵니다 Yomg'ir yog'yapti

아이가 밥을 먹습니다 Bola ovqat yeyapti

나는 노란 색 옷을 입었습니다 Men sariq rang kiyimni kiydim

강물이 흐른다 Daryo suvi oqyapti

2. 상태동사 Holat fe'li

사물의 성질이나 상태를 나타낸다. Narsaning sifati yoki holatini bildiradi.

예문: 이 백화점은 물건값이 싸입니다 Bu univermagda mahsulotlar narxi arzon

오늘 날씨가 매우 좋습니다 Bugun havo juda yaxshi

여기에 꽃이 아주 많습니다 Bu yerda gullar juda ko'p

저 아이는 예쁩니다 Anavi bola chiroyli

Holat fe'llari shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llarga holat fe'llar deyiladi: Harakat fe'llaridan farqli ravishda holat fe'llari buyruq yoki so'roq shakllariga ega emas: (동사 71p)

예문: 식당에서 밥을 먹어라 Restoranda ovqat ye

날마다 한국말을 열심히 공부하자 Har kuni koreys tilini g'ayrat bilan o'qiylik

이 물건은 질이 좋다 Bu narsaning sifati yaxshi

그 아이의 얼굴은 매우 예쁘다 U bolaning yuzi juda chiroyli

3. '이다' 동사 Ot kesim

Ushbu "ot kesim" fe'li predmet va tasvirlanmoqchi bo'lgan otning kelishikda ekanligini yoki gapdagi predikativ ot tarkibiga kirishini bildiradi. Ot odatda oldiga qo'yiladi, lekin otlar bilan bir xil rol o'ynaydigan iboralar va bo'laklar ham kelishi mumkin.

Demak, “dir” fe’li ot yoki ot ekvivalentini predikativ holga keltiradigan bosh gap zarrasi vazifasini bajaradi.

예문: 가는 사람이 김영수입니다 Ketayotgan kishi Kim Yong Su

이것은 책입니다 Bu kitob

이 책은 한국말 교과서이다 Bu kitob koreys tili darsligi

오늘은 금요일이에요 Bugun juma

오늘 숙제는 45 페이지까지입니다 Bugungi uyga vazifa 45-betgacha

4. '있다' 동사

‘있다’ fe’li sub’ektning biror narsaning mavjudligini yoki egaligini bildiradi. “Bo’lmoq” fe’lining borlik ma’nosidagi tarjimasini “mavjud”, egalik ma’nosida esa “bo’lmoq”dir.

예문: 책이 책상에 있어요 Kitob partada (bor, turibdi)

부모님이 집에 계십니다 Ota-onam uyda (bor)

너희 회사는 어디에 있니? Sizlarning firmangiz qayerda (joylashgan)?

할머니, 돈이 얼마나 있으세요? Buvi qancha pulingiz bor?

너, 오늘 할 일이 있니? Sening bugun qiladigan ishing bormi?

5. 동사의 활용 Fe’llarning tuslanishi

1) 활용의 방법 - Koreys tilidagi fe’llar asos va qo’shimchadan tuzilgan, lekin o’zak o’zgaraydi va qo’shimchadan esa turli shakllarda o’zgaradi. Shu tariqa o’zgaraydi o’zakka o’zgaruvchan qo’shimcha qo’shish orqali gapning xarakterini turli yo’llar bilan o’zgartirishga - TUSLANISH deyiladi

2) 활용의 종류- Fe’llar tuslanish orqali turli vazifalarni bajaradi va vazifalariga ko’ra ularni quyida ko’rsatilganidek tasniflash mumkin.

3) 활용과 접미사 - Fe’l “O’zak + nisbat” dan iborat bo’lib, turli grammatik vazifalarni bajarish uchun fe’lning boshi va oxiriga kiruvchi qo’shimcha mavjud. Bu qo’shimchalar o’zlik, majhul, aniq, birgalik, orttirma nisbatlar turli ma’no kabilarni bildiradi va ularning bir nechitasi birga kelganda ma’lum bir tartibni bildiradi. Va quyidagi tartibga muvofiq birlashtiriladi

예문: 어머니께서 아이에게 밥을 먹이셨습니다 Ona bolasiga ovqat yedirtdi

떡- -이- -시 -었 -습니다.

어간 사동 존대 시제 어미

김 선생은 회사에 갔더군요 Kim domla firmaga ketibdi ekanku

가- -왔 - -더- -군요.

어간 시제 시상 어미

4) 불규칙동사 - Fe’llar orasida grammatik shakli o’zak va oxiri o’zgaraydigan fe’llar ham bor bo’lib, shakli o’zgaraydigan fe’llar esa tartibsiz ya’ni noto’g’ri fe’llar deyiladi. Noto’g’ri fe’llarning ba’zilari o’zak sonlari o’zgaradi yoki tushib qoladi, ba’zan ba’zi fonemalar qo’shiladi, ba’zilari esa o’zgartiriladi. Jadval sifatida u quyidagicha ko’rinadi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 신개정 외국인을 위한 한국어 문법
2. Никольский Л. Б. Служебные слова в корейском языке / Отв. ред. Ю. Н. Мазур. - М.: Изд-во вост. лит., 1962. — С. 128-129.
3. Kyubyong Park. 500 Basic Korean Verbs: The Only Comprehensive Guide to Conjugation and Usage. - Tokyo, Rutland, Singapore: Tuttle Publishing, 2011. - p.
4. Никольский Л. Б. Служебные слова в корейском языке / Отв. ред. Ю. Н. Мазур. - М.: Изд-во вост. лит., 1962. — С. 129-131.112 Там же, С. 132-136.
5. Васильев А. Г. О детерминативных связках хада и тведа в корейском языке // Филология и история стран зарубежной Азии и Африки. Кратк. тез. науч. конф. вост. фак-та. — Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1972. — С. 14-16.
6. Jaehoon Yeon, Lucien Brown. Korean: A Comprehensive Grammar. London, New-York: Routledge, 2011. - p. 68.

ЖОНГ ХО СУНГНИНГ “КЎЗА” ҲИКОЯСИДА ЁЗУВЧИ ҒОЯСИ

Р. Муродова,
ТДШУ 1- курс магистранти

Замонавий корейс адабиёти намоёндаси Жонг Хо Сунгнинг “Кўза” ҳикояси 2008 йили Ёлимвон нашриёти томонидан йигирмата ҳикоя ва эртақлар жамланган тўпламда шу ном остида чоп этилди.

Ҳикоя кулолчилик хунарини отасидан мерос қилиб олган ёш йигитнинг илк ижод намунаси – кўза ясашидан бошланади. Табиийки, кулол ўзининг илк ишидан кўнгли тўлмади. Кўза худди шошма-шошарлик билан ясалгандек ғашига тегди ва ёш кулол уни орқа ховлига элтиб кўйди. Ёруғ дунёни кўриш илинжида кулолнинг оёқлари остида лой бўлиб эзгиланган, шаклга келгунча унинг чархида айланган, тандирдаги оловда тобланган кўза аниқ шаклга кирди-ю, кулол мени бежизга яратмади, деб ўйлади. Аммо инсонлар эҳтиёжи учун керакли ва азиз буюм бўлиб хизмат қиламан, деган умидлар пучга айланди.

Маълумки, сарлавҳа бадий асарнинг муҳим элементи саналади. Муаллиф ўз ҳикоясини “Кўза” деб номлаши ҳам бежизга эмас. Ҳикоя сарлавҳасида кўзанинг корейс халқи турмуш-тарзида муҳим элемент эканлиги, унинг корейс миллий ошхонасидан тортиб то ибодатхоналарида ҳам кенг ишлатилишида поклик, софлик рамзи мужассам. Шу билан бирга кўза авлоддан авлодда ўтиб келаётган миллатнинг борлигини кўрсатувчи муҳим омил ҳамдир. Шу сабабли муаллифнинг қарашлари мазкур ҳикоя сарлавҳасида ўз ифодасини топган: *“Ижодкор матн мазмунини маълум бир сўз, ёхуд жумлага жо қилар экан, бадий асар моҳиятини сарлавҳада бекитади. Бошқача айтганда, сарлавҳа ижодкорнинг бадий нияти, асар ғояси, образлар тизими ва барча унсурларни ягона фокусга жамловчи митти асардир”* [Ҳамраев 2018: 24]

Кулолнинг кўзани ташлаб қўйиши оддий ҳолга ўхшайди, аммо унинг замирида чуқур мазмун мужассам. Корейс халқи учун муқаддас саналган буюмнинг оёқости қилиниши, қадриятларнинг, хусусан, инсон қадрининг йўқотилишига ишора. Ўз ишидан қониқмаган кулол орқа ҳовлига ташлаб қўйган, ташландиқ буюмга айланган кўза изтиробни табиат тасвирида берилади:

“Жала қуйиб ўтди, бағрим сувга тўлди. Ўз аксини томоша қилиб булутлар бироз тўхтаб ўтиб кетдилар. Баъзан сарғайган япроқлар бағримда сузарди. Тунда юлдузларнинг ёздуси юзларимни силарди. Агар улар бўлмаганида аллақачон ҳаётдан кўз юмган бўлар эдим”. [정호승 2008:14]

Булутлар, шаррос қуйган ёмғир, сарғайган япроқлар кўзанинг кўнглини синдирса, олис осмондаги митти юлдузлар унга эртанги кундан эртаси айтади, тонг отишига умид бахшида қилади.

Аммо тажрибасиз йигит кўзага жароҳат етказишда давом этди: уни ерга кўмди ҳамда баҳорда ерга ўғит сочиш учун ундан “ҳожат туваги” сифатида фойдалана бошлади. Кўза яхши кунлар умидида яшайди:

“Ўша тун, хурмо дарахти шохига тилларанг тўлин ой илдинди...Юрагим дукурлаб ура бошлади. Ойдинда йигитнинг шарпаси кўринди”. [정호승 2008:16]

Аммо бу интиқиб кутилган дақиқалар ўз самарасини бермади, фасллар алмашаверди, вақт ўтаверди, кўзанинг ўрни ва вазифаси ўзгармади.

Ҳикояда ҳожат тувагига айланган кўза шундай дейди. *“Кун совуқлашиб борар экан ичимдаги пешоб ҳам музга айланиб қотиб қолди. Қишни музлаб қолган танам ёрилиб кетмасмикин деган ҳавотирда ўтказдим”* [정호승 2008:17]

Халқимиз орасида Кўза кунда синади деган ибратли сўз бор. Келинг, бу ҳикматли сўзни тўғри талқин қилган ҳолда таҳлил қилайлик Дарҳақиқат, эътиборсизлик қилиб, қишнинг совуқ кунларида сувли кўзани далада қолдирсак сувнинг музлаши туфайли кўза синади. Совуқда қолган сувли кумфон ёки пақир ҳам ёрилиб қолганини кўрганмиз. Ёки совуткичда туриб қолган газли сув тўлдирилган шишаларнинг синганини бекалар кўп кузатади. Бу идишлар синишига сабаб нима? Ватандошимиз, улуғ табиб Абу Али лбн Сино ал- Берунийнинг саволига жавоб бериб ёзади: “Ҳеч ерда бўшлиқ-вакуум болиши мумкин эмас, фазонинг ҳар бир бўлаги моддий жисмлар билан тўлдирилган”. Қишда сув билан ташқарида қолган кўзадаги сув музлаши натижасида торайиб (яъни, ҳажми кичиклашиб), муз билан кўза девори орасида бўшлиқ (вакуум) ҳосил бўлиш имкони туғилади, бу мумкин эмас. Шунинг учун кўза идиши девори бу бўшлиқни толдиришга уринади, натижада кўза синади...

Кўзани ҳам кулол эътиборсизлик қилиб ташлаб қўйган, ташландиқ буюмга айланган кўзанинг қалбида уйғонган бўшлиқ кадр ва эътибор топмаслиги уни ҳалок қилишидан кўрқиб яшайди. Ёзувчи мана шундай табиат ҳодисасини ҳикояда мантиқли ўхшатишга айлантириб ёритиб берган.

Йиллар ўтиб ёш кулол кексайиб, оламдан ўтгач, унинг устахонаси ўрнига ибодатхона қурилди. Ногоҳ роҳиб топиб олган кўза ўзи ясалган устахона ўрнига

курулган ибодатхона айвонига кўнғироқ остига ўрнатилди. Кўнғироқ ҳаётга чорлов тимсоли бўлиб, кўзанинг бахтли кунлари бошланаётганидан хабар беради.

Асар сюжети бир чизикли хроникал бўлиб, воқеалар кетма-кетлигида кузатилади: кўза кузда дунёга келади, қишда ерга ярим кўмилади, баҳор тонгида роҳиб томонидан айвонга ўрнатилади. Ёзувчининг айнан кўза образини ҳикояда жонлантиришида ҳам рамзий маъно бор. Чосон сулоласи давридан бошлаб конфуцийчилик таълимотига кўра, кўза поклик, ҳалоллик ва софлик маъноларини англатади. Мазкур даврда оддийлик ва соддалик – мукамаллик маъносини билдирган. Шунингдек, уни яшаш жараёнидаги турли хил босқичлар: қуритиш, қуйдириш ва сирлаш; оддий лойдан мукамал буюм тайёрлаш каби синовлардан ўтган кўза сабр ва матонат рамзи ҳисобланади.

Йиллар давомида “ҳожат туваги” бўлиб хизмат қилган кўзанинг кўнглининг тубидаги энг олий мақсади ва орзуси амалга ошди. Жонг Ҳо-сунг ҳикоясининг бош ғояси сабр, чидам ва келажакка бўлган умидни йўқотмаслик, инсон ўз кадр-қийматини топиши ҳаётнинг асл мазмунини топиш билан чамбарчас боғлиқлиги ҳисобланади. Бу йиллар давомида кўзанинг сабр ва матонат, ишончи учун тақдирнинг инъоми эди: кўза муқаддас ибодатхонанинг кўнғироғи ўрнатилган айвон остига аксадо қайтарувчи хум сифатида жойлаштирилди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: Филол. фанл. б-ча фалс. д-ри (PhD)...дис. – Тошкент. 2018.
2. 향아리, 정호승, 열림원. – 서울. 2008.
3. <https://thesoulofseoul.net/korean-moon-jar/>
4. <https://baxtiyor.uz/ko-za-har-kuni-sinmaydi-ibratli-so-z-ma-nosi/>

БАДИЙ МАТНДА ПЕРФЕКТИВ ВА ИМПЕРФЕКТИВ ВАЗИЯТЛАР ҚИЁСИ ХУСУСИДА

Л. Кудратов,

Инглиз тили лексикологияси ва стилистикаси кафедраси ўқитувчиси.

Аспектual семантикани матн шунингдек дискурсдаги тадқиқи борасида докторлик диссертациясини олиб борган В. Белошопкова рус тилида аспектual маъноларни дискурсив хусусиятларини таҳлил қилади. У дискурс тушунчасининг аспектualлик доирасида қўлланишига қуйидагича изоҳ беради. Аспектual сатҳда дискурс маълум бир формал ва семантик таркибда вақт, ижтимоий муҳит, макон детерминатлардан тортиб турли сатҳдаги продуктив маъно оламни англашда хизмат қиладиган тил воситаларининг нутқда қўлланилиши деган изоҳни беради. (Белошопкова А.В., 2008. 40с.). Бу аспектua маъноларни дискурсда ёритишда матнда иштирок этадиган замон, макон, пайт кўрсаткичларини имкониятини эътиборга олиш назарда тутилади. Қуйидаги мисолга эътибор қаратамиз: *Иккинчи йили тактик ўқиш бўлсин, умумий маълумот бўлсин, жуда жиддий кетди. Мен, айниқса, ҳарбий*

билимлар билан биргаликда чала қолган ўрта мактабимни битиришига ҳам уриндим. Ҳатто йил ўртасига бориб, командир отделения қилиб кўтаришди (Ғ. Фулом, 125). Ушбу лавҳада воқеа-ҳодисалар матн семантикасига хос хусусият сифатида қайд этилган яъни воқеа-ҳодисалар алоҳида-алоҳида воқелик сифатида намоён бўлган. Бунда ҳар бир воқеа-ҳодиса маълум темпорал муносабат орқали баҳоланган. Матндаги тил самарадорлиги семантик таркиби шаклий ўзгариши билан характерланади. Бунга кўра лисоний ифодага эга бўлган мунтазамлик, даврийлик ифодалари амалга оширилган. Жумладан матнни ёритишда қўйилган мақсад, вақт темпорал нуқтаи назаридан мос равишда амалга оширилган. Воқеа-ҳодисалар ифодаси ўзига хос кетма-кетликни ташкил қилади. Аспектуал хусусиятни кўрсатувчи воситалар ушбу лавҳада воқеа-ҳодисанинг дуративлигини, перфективлигини ёки имперфективлигини ёритиш учун хизмат қилган. Мисол учун юқорида кўрсатилган лавҳадаги “*жиддий кетди*” предикати дуратив аспектуал семантикага эга. Лавҳа сўнгидаги “*командир отделения қилиб кўтаришди*” имперфектив ҳодиса сифатида намоён бўлади. Эътибор қаратадиган бўлсак икала предикатда ҳам “*жиддий кетди*”, “*кўтаришди*” маълум бир яқин ўтган замон шаклига эга бўлсада, феълнинг лексик қўлланилиш нуқтаи назаридан иккаласи ҳам икки хил аспектуал семантикани ифодалаб келган. Ушбу лавҳадаги “*жиддий кетди*” предикатини айнан “*командир отделения қилиб кўтаришди*” предикати семантик жиҳатдан тўлдириш учун ҳам хизмат қилган. Агар гап ва матн ўртасидаги муносабат предикат темасида амалга оширилса, перфектив ва имперфектив шакллардан фойдаланиш фақат ушбу грамматик шаклларнинг ўзгармас қийматлари: процессуаллик, яхлитлик яъни перфективлик (имперфективлик) сифатида тушунтирилиши мумкин. Предикат темасидаги гап ва матннинг семантик ривожланиши маъно жиҳатдан боғлиқ бўлганда, феълнинг замон шаклини танлаш матннинг коммуникатив истиқболини белгилаб беради. Шу ўринда Колшанскийнинг фикрини келтириб ўтишни мақсадга мувофиқ деб билдик: “жумлани шакллантиришнинг ҳар бир босқичида у ёки бу лексемани ёки грамматик шаклни танлаш-ифодаланадиган жумланинг бутун контексти орқали амалга оширилиши лозим” (Колшанский Г. В., 1963, с.3-12). Ушбу койда ўз-ўзидан семантик шаклланишнинг асосий қонунларидан бири, бу матннинг семантик яхлитлиги ҳамда жумлалар ўртасида маъно мослигини назарда тутади. Таркибий ҳамда коммуникатив жиҳатдан ўзаро муросабатларни шакллантириш қонунига асосланади. Масалан: *He moved around to stand behind her, studying the page over her shoulder. She leaned back to allow him a better view, and her shoulder brushed...oh, mustn't think about what she'd just bumped up against! She jerked forward, her cheeks so fiery hot that she was glad he was behind her, for she couldn't have faced him straight on.* (Susan Law, 42). Чарос унинг чўян эшигини беркитмай чўнқайиб ўтирганича оловнинг ёнишини томоша қиларди. Ўтиннинг чарсиллаши, сукунатни ўхтин-ўхтин бузиб қўяр, аланга яллиги деворларда буфет ойналарида ўйнарди. Уй деразалари зириллаб кетди, сўнг яна сукунат чўкди. (Ўткир Ҳошимов, “Танланган асарлар 50-бет”). Келтирилган инглизча лавҳадаги “*moved around*”, “*leaned back*”, “*brushed*”, “*jerked*” предикатлари перфектив хусусиятга эга саналади. Бу эса

матннинг нарратив хусусиятини белгилаш учун хизмат қилган. Матн семантикасининг боғлиқлиги маълум бир вақт жараёнида кетма-кет перфектив воқеа-ҳодисаларни узвийлигини таъминлаш учун хизмат қилган. Ушбу лавҳадаги “*her cheeks so fiery hot*”, “*she was glad*”, “*couldn't have faced him straight on*” каби бирикмалари замон шакллари танланиши воқеа-ҳодисалар кечими билан боғлиқ тарзда амалга оширилган. Бу эса матннинг коммуникатив хусусияти билан чамбарчас боғлиқ. Ўзбек тилидаги мисолда маълум танланган вақт жараёнида ҳаракатнинг давомийлиги кузатилади. Жумладан, “*томоша қиларди*” предикати кузатувчи нуқтаи назаридан аниқ бир вақтда воқеа-ҳодисанинг давомийлигини ифодалайди. Лавҳадаги “*ўхтин-ўхтин бузиб қўяр*”, “*буфет ойналарида ўйнарди*” каби предикатлари эса ўша вақт жараёнида итиратив мазмунли аспектual семантикаин юзага келтирган яъни алоҳида-алоҳида кичик воқеа-ҳодисалар бутун лавҳа ичига сингдирилган. Лавҳа сўнгидаги “*зириллаб кетди*”, “*сукунат чўкди*” предикатлари эса ушбу лавҳага яқун ясовчи хусусиятни ифодалаган. Шу билан бирга “*чўкди*”, “*зириллаб кетди*” предикатлари аспектual перфектив семантикани англантиб келган. Матн семантикасини белгиловчи яна бир хусусиятлардан бири бу матндаги прогрессивликни сақланиши ёки матн ривожланишини таъминловчи лексик воситаларнинг танланиши билан ҳам боғлиқ. Бу каби хусусиятлар маълум бир гуруҳни ташкил қиладиган феъллар билан ҳам боғлиқ. Феъллар шу билан бирга ушбу матнда қўлланилган замон шакллари билан ҳам боғлиқ. Бу борада Маскольская кўйидаги фикрни билдиради: Матн таркибида ҳар бир феъл шаклининг танланиши ўзига хос меъзонга амалга оширилади. (Москальская О.И., 1981. 175 с.).

“*Oh, for heaven's sake!*” Mrs. Bossidy clipped across the square, her skirts snapping with each determined stride, her voice carrying clearly on the spring breeze. “*Did I not tell you to stay beneath the umbrella? You are unused to so much sun so early in the year, and it is much stronger here.*” (Susan Law, 23). *Василя Назаровна индамасдан бурилиб кетди. Парталар орасидан ўтиб бораркан қоғозга кўз ташлади-ю хат эканлигини билиб тена сочи тикка бўлиб кетди. (Ўтқир Ҳошимов, “Танланган асарлар” 86-бет).* Инглиз тилидаги лавҳадаги “*Oh, for heaven's sake!*” ҳис-ҳаяжон гапи матннинг кейинги ривожланишига дейктик вазифани бажариб келган. Бунда қаҳрамон Mrs. Bossidy нинг кейинги ҳаракатлари матн ривожланиши семантикасини таъминлаш учун хизмат қилган. Албатта бу ерда бош қаҳрамоннинг ҳаракатлари алоҳида-алоҳида ҳодисаларга эга саналади. Жумладан “*clipped across*”, “*determined*”, “*stride*” каби предикатлари матн ривожланиши жараёнида амалга оширилган кетма-кет ҳаракатларни ифодалаб келган. Матндаги ундов гапларнинг, сўроқ гапларнинг қўлланилиши эса матннинг ематив семантикасини юзага келтирган. Ўзбек тилидаги лавҳада эса қаҳрамон томонидан кетма-кет уч хил вазиятни кузатишимиз мумкин. Шу билан бирга Василя Назаровна яъни асар қаҳрамонинг ҳаракатга келиши яъни “*бурилиб кетди*” бирикмаси матннинг кейинги ривожи учун референция вазифасини бажарган. “*Ўтиб бораркан*” бирикмаси эса кейинги бўлиб ўтган воқеа-ҳодиса жараёнида давомли иш ҳаракат билан тўлдирилган. Матндаги кульминацион нуқта эса “*тена сочи тикка бўлиб кетди*” предикати саналади. Ўз новбатада ушбу

фразеологик бирикма натижавий яъни резултатив аспектун семантикага эга. Шундай қилиб, матннинг коммуникатив мазмун моҳияти феъл шаклларининг семантикаси билан боғлиқ бўлиб, уларни матнда қўлланилиши формал-семантик кўрсаткичи бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Гапдаги феълнинг замон шаклини танлашнинг яна бир муҳим мезони – гапнинг матн бўлагидаги ўрни. Дастлабки ҳолатда, юқорида келтириб ўтилганидек, интродуктив функцияга эга бўлган шаклидаги феъллар предикат мавзусидаги матннинг семантик ривожланишини яқунлайди. Матнга постпозициядаги феълларнинг имперфект шакли, шунингдек, оддий шаклга ўтиши услубий жиҳатдан белгиланган. Истисно ҳолат – бу феълларнинг кичик гуруҳи бўлиб, уларнинг лексик семантикаси инхоативлик, перфективлик, имперфективлик семасини ўз ичига олади, бу уларнинг бошланғич жумлаларда тугалланган маънони олишига ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Белошапкина А.В. Когнитивно-дискурсивное описание категории аспектуальности в современном русском языке. Автореф.док.фил.наук. Москва, 2008. -40 с.
2. Колшанский Г.В. Прагматическая: характеристика вербальной коммуникации. - в кн.: лингвистика и методика в высшей школе (XI). Сб. научн. трудов М., 1963, вып 205, с.3-12.
3. Москальская О.И. Грамматика текста. - М.: высшая школа, 1981. - 175 с.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MODIFIKATSIYANING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI.

Sh.S. Uzoqova
JDPU doktoranti

Annotation. In linguistics, the concept of modification is a universal process that indicates the meaning, sign, quality-property of an object, as well as the change and uniqueness of a different character occurring in it. However, the nature and extent of modification varies across cultures, and understanding these cross-cultural characteristics is critical to effective cross-cultural communication. In this article, it was explained that modification is a selective process, the reasons why speakers choose different structures when expressing the same idea in a discourse or a speech act, give different identifiers to objects, and choose different expressions, phrases, or adverbs when describing actions.

Key words. Modification, modifier, linguistic culture, culture, mental operation, intercultural communication.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır.

Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir" [3; 284]

G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Lingvokul'turologiya inson omiliga aniqrog'i insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigмага tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi." [4; 30]

Bugungi globallashtirilgan dunyoda madaniyatlar o'rtasidagi samarali muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyatlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan muloqotning bir jihati - bu modifikatsiya, tilni o'zgartirish yoki moslashtirish jarayoni. Muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqot uchun modifikatsiyaning madaniyatlararo xususiyatlarini tushunish juda muhimdir. Modifikatsiyani qo'llashdagi farqlarga e'tibor qaratish orqali odamlar kuchliroq munosabatlar o'rnatishlari va turli madaniyatdagi odamlar bilan muloqot qilishda tushunmovchiliklardan qochishlari mumkin.

Dunyoda turli millatlar bor ekan, ular bilan turli tillar va turlicha madaniyatlar yashaydi. Biror millat tilini o'rganish bilangina u millat vakili bilan erkin va ravon munosabatga kirishib bo'lmaydi. Albatta, buning uchun o'sha millat madaniyatini ham o'rganish, ayniqsa, uni til bilan bog'langan holda o'rganish orqali yuqoridagi natijaga erishish mumkin.

Dunyoning lisoniy tasvirini yaratish borliqdagi narsa, belgi va hodisalarning inson tomonidan anglanishini qayd etishiga olib kelishdir. [1; 81]

So'z tushunchaning mavjudlik shaklidir. Agar modifikatorlar mavjud bo'lmasa narsaning u yoki bu tomoni, belgisi talqinsiz, tasvirsiz qoladi. So'z-modifikator bo'lmasa u bildiradigan ma'no ham yo'q, natijada so'zlovchi va tinglovchida o'sha ob'ekt haqida bilim yo'q.

Demak modifikator zaruriy ifoda vositasidir. Faqat til orqaligina fikrlarimiz boshqa odamlarga yetib borishi, tushunarli bo'lishi mumkin ekan, demak modifikatsiyaning yordamisiz borliq haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaymiz.

Modifikatsiya selektiv jarayon bo'lar ekan, ko'p narsa, so'zlovchiga, uning pragmatik va lingvokul'turologik xarakteristikasiga bog'liq bo'ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bu jarayonda bir diskursda yoki bir nutq aktida bir fikrni ifodalashda so'zlovchilarning turli xil strukturalarni tanlashi, predmetlarga turlicha aniqlovchilar berishi, ish-harakatlarni tasvirlashda turli ravish, so'z birikmalari yoki ergash gaplar tanlashi sabablarini izohlab beriladi. [2; 264]

So'zlovchi yoki yozuvchi shaxsning moddiy dunyo haqidagi bilimlari nisbiydir, u doim rivojlanib boradi. Modifikatsiya ana shu jarayonni, inson bilimini rivojlanishini ta'minlovchi asosiy mental operatsiyadir. [5; 228]

Modifikatsiya – olamning inson ongida to'liq in'ikos etishini ta'minlovchi mental jarayondir. Inson o'zini qurshab olgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bu vazifani bajarishda insonga modifikatsiya jarayoni yordam beradi, chunki dunyo, borliq bu elementlar, sodda dunyo emas. Tillardagi so'zlar borliqdagi barcha narsa, hodisa yoki sifat xossa-xususiyatlarni ifoda qilib bera olmaydi. Hatto mana shu kamchilikni bartaraf qilish uchun

yaratilgan ko'pma'nolilik ham bu vazifani to'la-to'kis bajara olishga qodir emas. Inson miyasi borliqdagi barcha hodisa, narsa, belgi va h.k.larning har birini alohida nom berib uni xotirada saqlay olmaydi, inson miyasi bunga qodir emas va ikkinchi tomondan bunga ehtiyoj ham yo'q. Modifikatsiya jarayoni tilning bilish vazifasini bajarishini ta'minlovchi yagona hamda asosiy qurol va vositadir.

Demak modifikatsiya jarayonining turli tillarda turlicha kechishi, undagi o'xshash va farqli holatlarning bor-yo'qligi salmog'i, paydo bo'lish sabablari kabilarni o'rganish turli tillar tomonidan dunyoning lisoniy tasviri qanday yaratilishi mexanizmini tushunishga olib keladi. Ingliz va o'zbek xalqlari (aniqroq ifoda qilsak ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar va o'zbek tilida so'zlashuvchi xalqlar) borliqni sezishi, dunyoning lisoniy tasvirini yaratishdagi umumiy va xususiy holatlarini o'rganib chiqish esa til va tafakkur, til va ong, til va madaniyat kabi umummilliy, umumnazariy masalalarga yechim topishga ilmiy asos yaratadi.

Modifikatsiya mental jarayon ekan, u umuminsoniy harakterga ega bo'lishi kerak. Ammo irq, millatlar, etnoslar tafakkuri, ijtimoiy ongi, intellektual taraqqiyoti darajasi bir xil bo'lmaganligi, ularning dini, madaniyati va etnogenetik platformasi boshqacha bo'lganligi uchun modifikatsiya jarayonini strukturalash, rejalash va amalga oshirish strategiya va taktikalari turlicha bo'lishi tabiiydir.

Xulosa qilib aytganda, modifikatsiya tildan foydalanishning universal xususiyatidir, ammo modifikatsiyaning madaniyatlararo xususiyatlarini tushunish samarali madaniyatlararo muloqot uchun juda muhimdir. Turli madaniyatlarda til o'zgarishining turli usullarini tan olish orqali biz tushunmovchiliklardan qochishimiz va hayotning turli qatlamlaridagi odamlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Болдырев Н.Н. Язык как интерпретирующий фактор познания – в сб. теоретические основы языковой интерпретации. Тюмень. Из.ТГУ, 2016, стр.19-81.
2. Goldberg A. Constructions: A Construction grammar approach to argument structure – Chicaf : University of Chicago Press. 2005, p 264.
3. Телия В.Н.Русская фразеология : Семант., прагмат. и лингвокультурол. аспекты /. - Москва : Шк. "Языки рус. культуры", 1996. – 284.
4. Слишкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2004. №1.30 бет. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturnyy-kontsept-kak-sistemnoe-obrazovanie>.
5. Thomas E.Payne. Understanding English Grammar. Cambridge University Press, 2011. 228 p.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

S.B.Tashpulatova.

Assistant teacher of Tashkent International KIMYO University.

***Annotation.** The article deals with the problems of creating early artificial bilingualism, the methodological equivalent of the term: early learning of a foreign language from the point of view of psycholinguistics and the theory of speech activity.*

***Keywords:** linguistic competence, sociolinguistic competence, strategic compensatory, competence, social competence.*

В последнее время значительно изменился статус иностранного языка в нашем обществе. Знание иностранных языков становится необходимостью. Ценность выпускника на рынке труда в условиях активного развития международных контактов во многом определяется уровнем его языковой подготовки. На сегодняшний день образовательная политика Совета Европы в сфере иностранных языков направлена на формирование коммуникативной компетенции. [Chomsky Noam 1965:1] На современном этапе развития лингвистики исследователи выходят за рамки собственно лингвистических проблем, затрагивая в своих работах вопросы, находящиеся на границе наук: лингвистики и литературоведения, лингвистики и социологии, лингвистики и этнологии. Этому способствует общемировая ситуация взаимодействия языков и многоязычия, глобализация. Миграция и туризм создают предпосылки для развития билингвизма. В связи с этим в любом языке наблюдается множество заимствований, иноязычных вкраплений и других иносистемных явлений.

В статье Л.Ф.Низаевой выделены следующие ее составляющие:

1) лингвистическая компетенция это, знание системы языка на всех уровнях, правил функционирования языковых единиц речи, способность адекватно интерпретировать мысли другого человека и высказывать собственные суждения в устной и письменной форме;

2) социолингвистическая компетенция это, знание способов формирования и формулирования мыслей с помощью языка, а также способность пользоваться языком в зависимости от условий речевой ситуации, коммуникативных целей говорящего;

3) социокультурная компетенция – знание национально-культурных особенностей социального и речевого поведения носителей языка, способность пользоваться языком в процессе общения, следуя обычаям, правилам поведения, нормам этикета и т. д.;

4) стратегическая компенсаторная компетенция – способность восполнять в процессе общения недостаточность знания языка, а также речевого и социального опыта общения на иностранном языке;

5) социальная компетенция проявляется в желании и умении вступать в коммуникацию с другими людьми, в способности ориентироваться в ситуации общения и строить высказывание в соответствии с коммуникативным намерением говорящего и ситуацией [Elmslev Louis.1960: 2].

Также источником вышеуказанной проблемы может являться отсутствие поддержки со стороны. Как показывает практика, у большинства учеников родители обходятся без иностранного языка на протяжении всей жизни, следовательно, они не придают особого значения этому предмету в школе. Учителя-предметники, преподающие преимущественно русский язык и литературу, часто повторяют фразу: «Они русский язык не знают, как они выучат иностранный?!» Тогда дети теряют желание изучать другие языки, находят оправдание своему незнанию. [Marx K. & Engels F 1994: 5]

Прием – элементарный методический поступок, направленный на решение конкретных задач на определенном этапе урока. Метод реализуется в системе приёмов. [Е.И.Пассов 1981:4] Рассмотрены причины употребления вкраплений. Причины эти сходны с теми, по которым употребляются заимствования, однако некоторые из причин характерны исключительно для неосвоенных элементов. Одна из них – возможность с помощью иноязычных вкраплений делить аудиторию на своих и чужих, а также демонстрировать свое языковое превосходство.

Языковые контакты различного рода приводят к появлению в языке иноязычных элементов, поэтому следовало определить, результатом какого процесса являются вкрапления. Иноязычные вкрапления - это результат процесса переключения кодов, тогда как заимствования относят к лексической интерференции. Основанием для отнесения иноязычных вкраплений к процессу переключения кодов является то, что вкрапления в большинстве случаев не влияют на систему языка, в который попадают. Иноязычные вкрапления могут быть результатом смешения кодов. Смешение кодов мы считаем подвидом переключения кодов, при котором вкрапляются внутрисловные элементы и элементы уровня менее предложения.

Имеющиеся исследовательские классификации иноязычной лексики отличаются разнообразием критериев, выбираемых для объединения лексики в группы. По этой причине в работе обосновывается выбор понятия «иноязычные вкрапления» и его связь с другими явлениями: ксенонимами, варваризмами, экзотизмами, реалиями и прочими. Исследователи уделяют большое внимание признаку освоенности, выделяя, прежде всего, заимствования, варваризмы и иноязычные вкрапления. Вкрапления близки к варваризмам, поэтому во многих случаях трудно провести четкое разделение этих явлений. Критериями отличия остается словарная закреплённость варваризмов и незакреплённость иноязычных вкраплений, а также большая освоенность варваризмов. Похожими явлениями являются реалии и иноязычные вкрапления, поэтому важно было определить также границы этих понятий. Реалии и экзотизмы в тексте могут функционировать, проявляясь в качестве иноязычных вкраплений, но также могут выражаться и словами принимающего языка, а вкрапления могут не быть реалиями и лакунами.

Коммуникативно–ориентированный метод обучения реализуется в следующих приёмах:

- > приём ролевого общения;
- > приём формирования ориентировочной способности учащихся;

- приёмы обучения речевому взаимодействию;
- приёмы систематизации речевых знаний;
- приёмы углубления и расширения содержательности;
- повышение интенсивности самостоятельной работы;
- приёмы стандартизированного контроля.

Подход это общая исходная позиция, отталкиваясь от которой исследователь рассматривает большинство своих остальных положений. [Eagleton 1983: 3]

Дискуссионным остается вопрос соотношения метода и подхода. Отечественные методисты и большинство зарубежных исследователей считают, что подход к обучению играет основополагающую роль и является доминирующей идеей, на которой строится новый метод. Метод и подход взаимосвязаны и взаимозависимы, для них характерно постоянное взаимодействие.

Список литературы:

- 1) Chomsky, Noam (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press. 1965. -p. 46.
- 2) Elmslev Louis. Prolegomena to the theory of language [Russian translation: New in linguistics. Vol. 1, 1960. -p. 35.
- 3) Eagleton, Literary Theory, Minneapolis: Univ. of Minnesota Press, 1983, -p.108.
- 4) Е.И.Пассов Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. -М.: Просвещение, 1991. -111 с.
- 5) Marx K. and Engels F. Engels f. Anti-During. Vol.20 1994. Op.- p. 85.

LI XYOSOKNING “XAYOLOT KLUBI” HIKOYASIDA ROMANTIZM

B. Bekmirzayeva

Koreys adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Adabiyotshunoslikda ideal va voqelik o‘rtasidagi katta farq romantizmدا o‘zining yorqin ifodasini topadi. Romantizm jamiyatdagi rangsiz hollarga qarshi o‘laroq fantastika, xalq rivoyatlari, tabiat manzaralari, o‘tgan tarixiy kunlar, olis xalqlar va mamlakatlar turmushi, urf-odatlar hamda xulq-atvorlarini tasvir doirasiga tortadi. Romantizm XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida paydo bo‘lishiga qaramay, rivojlanish va yangilik kirib kelishi qiyin bo‘lgan sharoitdagi koreys adabiyotiga ham ta‘sirini ko‘rsatdi. Koreys ijodkorlari yapon anneksiyasi davrida romantizm yo‘nalishida samarali ijod qilishdi. Yapon anneksiyasi davrida yashab ijod qilgan adib, hikoyanavis Li Xyosokning “Xayolot klubi” hikoyasi mana shu toifadagi asarlari sirasiga kiradi.

Kalit so‘zlar: *ideal, voqelik, romantizm, kinoya, molibden, pul, Unsim, kelajak, hayot.*

XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmi Koreya tarixida eng og‘ir damlar bo‘lib, bu davrda koreys mumtoz davrining qahramonlik qissalariga, o‘tkinchi orzuga ishonch va qiziqish pasaygan edi. Jumladab, mashhur koreys adibi Li Xyosok qalamiga mansub “Xayolot klubi” hikoyasida shunday satrlar uchraydi:

– *Siz nimani orzu qilasiz? Axir yashash uchun hech bo‘lmasa bitta orzuga ega bo‘lishi kerak...*

– *O‘ttiz yoshga to‘libsiz-u, hali-hanuz o‘zingizni o‘zingiz aldash bilan shug‘ullanyapsiz, joningizga tegmadimi? Bizning davrimizda nimani orzu qilish mumkin?*

– *Orzusiz yashab bo‘larkanmi? Orzuingiz bo‘lmasa, yashash uchun kuchni qayerdan olasiz?*¹² [이효석 2016: 1]

– *Orzu- bu o‘rta asrlarga xos tushuncha, hozirgi vaqtda qanday orzu bo‘lishi mumkin?*”

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu davrga kelib koreys xalqi uchun orzu, qahramonlik xislatlari begona.

Endilikda koreys xalqi o‘zlarining oldidagi yangi real voqelikni tan olishi, yapon anneksiyasi davri sabab kirib kelayotgan Yevropalashuv jarayonini qabul qilishi, ilm-fanni taraqqiy ettirish uchun kurashishi, feodal qoloqlikdan ozod bo‘lishi, qashshoqlikdan qutulishi joiz edi. Yapon anneksiyasi davri koreys xalqining uyg‘onishi va kurashuvchanlik hissining ortishi uchun turtki bo‘ldi. O‘zgarib borayotgan zamondagi kitobxonlarga ta’sir kuchini o‘tkazish hamda muallif o‘zining ichki kechinmalarini bayon etishi yo‘lida yozuvchi va shoirlar yangi yo‘nalish, usul va janrlarga murojaat qila boshladi. Zero, Bartold Brext adolatli ravishda ta’kidlaganidek, “*Jadal o‘zgarib borayotgan real hayotni aks ettirish uchun, aks ettirishning yangi usullarini ham o‘zgartirishi kerak edi*”¹³. [Saydazimova U., Choi So Yong 2014: 5]

XIX-XX asr adabiyoti ayniqsa, 1910-1950- yillar koreys adabiyoti o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ayni shu davr koreys ba o‘zbek adabiyoti rivojlanishi o‘rtasida parallel o‘tkazsak, qator o‘xshashlik kuzatiladi. Ayniqsa, adabiyotning rivojlanishiga turtki bo‘lgan omillar, xususan, Koreya hududida ma’rifatchilik, mamlakatimizda jadidlar harakati va ularning natijasi ham bir-birini takrorlagandek go‘yo.

Jamiyatdagi insoniyat taraqqiyoti muammolariga e’tibor qaratish va ayni damdagi jamiyatda kelib chiqayotgan kelishmovchilik va nizolarning oqibati halokat bilan tugashi haqida so‘zlovchi asarlar soni keskin ko‘payib bordi. Va ushbu asarlarda insonlarning botiniy hissiyatini anglashga undovchi g‘oyalarni olg‘a surdilar. Bu kabi asarlarni yaratishda esa ijodkorlar romantizimga murojaat qildilar. Bunga Li Xyosokning “Xayolot klubi” hikoyasida yaqqol misol bo‘la oladi. Adib o‘z hikoyasida koreys xalqining romantik hissi va ma’naviy yetukligini tasvirga tushirdi.

Mohir hikoyanavis Li Xyosok “Xayolot klubi” hikoyasiga romantizm ruhini to‘liq singdira oldi. Xikoyada romantizmga murojaat sababi ma’rifatchilik, milliy ozodlik ruhi hamda adibning o‘ziga xos dunyosi bilan izohlanadi. Chunonchi, romantizm ayni milliy

¹² 공상구락부 : 이효석 3 (한국인이 가장 좋아하는 단편소설)

¹³ Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: U. Saydazimova, Choi So Yong va boshq. - Toshkent: “Istiqlol” nashriyoti, 2014.

g'oyalari yetakchilik qilayotgan, ma'rifatparvarlik g'oyalaridan yuz o'girmagan Yevropa davlatlari hamda Amerikada rivoj topgan. Romantizmga murojaati koreys adabiyoti taraqqiyotining yuksak bosqichiga kirganidan dalolat edi. Koreys adabiyotining iste'dodli sohibi Li Xyosok asarlarini yaratishda doimo yangilikka, murakkablik ostidagi soddalikka intildi. Li Xyosok hikoyasida jamiyatdagi zulm, adolatsizlik, ilojsizlik dunyosiga qarshi kurashish va unga norozilik kayfiyati yetakchilik qiladi. Romantizm ijodkorlari singari Li Xyosok ham sanoat, ilm-fan hayotda muhim rol kasb etishini tan oladi, ammo har qanday yangilik, этишини тан олади, ziddiyat asosidir. Shu sabab adib hayotni takomillashtirish emas, balki ziddiyatga barham berishni orzu qildi. Uning shu kabi g'oyalari bilan sug'orilgan "Xayolot klubi" hikoyasida taraqqiyot darajasiga ko'tarilmagan ilm-fan ziddiyatli, qaltis vaziyatga ro'para keldi. Ilm-fanni rivojlantirishga shiddat bilan kirishgan koreys xalqi milliy kadrlarni ish bilan ta'minlash haqida o'ylamagan edi: *"Bizdan farqli o'laroq, uning qo'liga qaraydigan odami yo'q edi va shu bois u ish topilmayotganidan uncha g'am chekmasdi"*¹⁴. [오]효석 2016:4]

Hikoyadagi Pekku obrazida koreys xalqining yapon istibdodi davrida qilgan orzularining bari ushalmas xom-xayol ekanligi o'z tasdig'ini topdi: *"Eh... Mana, mening birdan-bir orzuim-fazoni zabt etadigan uchuvchi bo'lish. Ilgari men bu orzuimni ro'yobga chiqarishni uddalayman, deb o'ylardim, biroq uchuvchilikka o'qish imkoniyatim mavjud bo'lgan paytni boy berdim va bu faqat orzu bo'lib qoldi..."*¹⁵. [오]효석 2016: 3]

Hikoyada choyxonada yig'ilib, o'zlarining orzulari haqida bo'lishuvchi to'rt do'st tasvirlangan. Koreys adabiyotida to'rt raqami mavhumlik, fojia, o'limga yuz tutish kabi ramziy ma'noga ega. Dunyoning to'rt tomoni kabi to'rt xil karakterli yoshlari ruhiyatidagi o'zgarishlar, muvafaqqiyatsizlik oldida o'limga yuzlanish kabilar *"to'rt"* raqami orqali ochib beriladi.

Hikoyada hikoyachi obrazi ham asarning boshqa qahramonlari sirasiga kiradi. Hikoyachi to'rt do'stdan qaysi biri ekanligi esa noma'lum. Asar bosh qahramonlardan biri Chonmaning rejalarini bayon qilishda adib mumtoz davr adabiyotiga murojaat qilgan: *"Janubiy dengiz musiqasini eshitganida unda kichik bir orolga borish va o'sha yerda qabila oqsoqoli bo'lish niyati paydo bo'ladi..."*.

*" – Bu orolda men yer yuzidagi eng barkamol jamiyatni yarataman. Yangi taraqqiyotparvar madaniyat, barcha sohalarda zamonaviy asbob-uskunalar; qishloq xo'jaligi va sanoat bir-biriga mos keladi; dehqonlar yerga ishlov berish va hosilni yig'ib-terib olish bilan bir qatorda, shaharlarda hordiq chiqaradilar; hamma zo'r berib ishlaydi va albatta san'at bilan shug'ullanadi. Mana, men qanday dunyoni yarataman"*¹⁶. [오]효석 2016:3]

Mumtoz davr koreys adabiyotida feodal qoloq jamiyatda orzular *"Turnalar voxasi"* (pxesol to'plamiga kiritilgan hikoyalar) da yoki utopik mamlakat (*"Xon Kil Don haqida qissa"*)da amalga oshadi. Shu bilan birga adib hikoyada ijtimoiy masalalarga ham alohida urg'u beradi. Chonma orzu qilgan jamiyat – insonlarning hordiq chiqarishi rejasi bunga

¹⁴ 공상구락부 :이효석 3 (한국인이 가장 좋아하는 단편소 설) - 대한민국, 2016.

¹⁵ 공상구락부 : 이효석 3 (한국인이 가장 좋아하는 단편소 설)- 대한민국, 2016.

¹⁶ 공상구락부: 이효석 3 (한국인이 가장 좋아하는 단편소 설) - 대한민국, 2016.

Yangi avlod o'z ona tilida ta'lim olgan avlod bo'lib, o'tgan hodisalarni yaxshi tushunardi. 20-asr o'rtalarida yuz bergan falokatlar ular uchun bir mavzu edi, ana shu mavzu o'sha davr odamlari shaxsiyatini, ularning xarakterini to'la yoritishga sabab bo'ldi. O'sha davr yozuvchilari insonning shaxsiy hayotini tasvirlashga alohida ahamiyat berishgan. Bundan tashqari shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, bu davrdagi koreys adabiyoti odatda urushdan keyingi travmalar, ijtimoiy o'zgarishlar va shaxsiy tajribalar bilan bog'liq. Mualliflar urushning halokatli oqibatlari, ijtimoiy adolatsizliklar va shaxsning ichki ziddiyatlarini muhokama qildilar.

Bu davrda ajralib turadigan ba'zi muhim yozuvchilar orasida Kim Sinok, Kim Nam Chong, Xvan Sun-von va Park Kyung-ni kabi nomlar bor. Bu yozuvchilar o'z asarlarida urushdan keyingi Koreya jamiyatining qiyinchiliklarini, xalqning iztiroblarini, odatda, tasvirlab berganlar.

1960-yillarda koreys adabiyoti ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida rang-barang bo'lib, turli mavzularni qamrab ola boshladi. Bu davrda adabiyot sahnasida ayol yozuvchilar ko'proq ishtirok eta boshlagani kuzatildi.

60-yillar yosh yozuvchilari orasida birmuncha ko'zga ko'ringani Kim Sinok Koreya Respublikasining buyuk romannavis ijodkorlaridan biri. U 1941-yil 23 dekabrda Yaponiyaning Osako shahrida tug'ilib, 1945-yil vataniga qaytib, Koreyada yashay boshladi. Sunchon oliy maktabini tugatib, 1960- yilda Seul davlat universiteti ijimoiy va adabiyot fakultetiga o'qishga kirib o'qishi dvomida 1960-yilda o'zining "Hayot sinovlari" nomli kichik hikoyasi chop etildi. U Koreya Yapon Shinchun Mun nashriyotida faoliyat yuritgan, Undan so'ng Kan Xomun, Kim Song Il, Kim Chang Ung, Kim Chi Sun, Kim Xyon, Yon Mu Ung So Chong In kabi adiblar bilan "San Mun davri" nashriyotida birga ishlab "Kon" Xuan Sang Su Chop" kabi asarlarini chop etgan. Universitet davrida bir yildan ortiq muddatga o'qishni to'xtatgani uchun 1965-yilda universitetni tamomlagan. Bu davrlarni o'zida ifodalagan "Muchin kixen" va "Seulning 1964-yilgi qishi" nomli asarini chop ettirib, "Seulning 1964-yilgi qishi" asari Tongin munxaksak namoyishining 10-bosqichida oliy o'rin bilan mukofotlangan. 1976-yilda nashr qilingan "Seulning oy nuri" asari chop etilgan.

Adib 1981-yilda diniy odatlarni qabul qilib, diniy hayotni boshladi. 1999-yilda Sejon universitetida Davlat tili va adabiyoti o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, 2003-yil falajlik sababli nafaqaga chiqadi. Uning asarlarida 60-yillarning qorong'i ruhi sezilib turar edi. "Mudjingga sayohat", "Hayot sinovlari", "Singlimni tushunish uchun" kabi asarlarida yakka holda yashovchilar, ularning tashvishli hayoti aks ettiriladi. Ular bo'layotgan voqealarga tamoman beparvo bo'lib, hech qanday nasihatlarini sezishmas edi. Ularning hayoti yolg'izlik tumanida kechadi. Kim va shunga o'xshash o'sha zamon yozuvchilari o'z davri avlodining qoloq hayotini tasvirlashadi.

April voqealari mamlakat aholisi o'rta qatlamidan yangicha harakatni vujudga keltiradi. Xalq qo'zg'olonida asosan shaharliklar ishtirok etgandi. 60-yillar prozasining o'ziga xos xususiyati yozuvchilarning shahar va shaharliklar muammolariga ahamiyat berishida ko'rinadi. O'sha qo'zg'olonning mag'lubiyati iqtisodiyotni zamonaviylashtirish, mamlakatni industriallashtirish, mamlakatdagi madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni o'zining asosiy mavzusi qilib olgan edilar. 60-yillarda Koreya jamiyati uchun xarakterli bo'Imagan muammolar yuzaga keldi. G'arbning ta'siri va yangi iqtisodiy siyosat mamlakatda begonalashish va shaxsning psixologik o'zgarishiga olib keladi. 60-yillarda shaharning oddiy yashovchilari hayoti Li Xochxolning "To'lib ketgan Seul" asarida tasvirlanadi. Koreya Respublikasining oddiy fuqarolari uchun agrar mamlakatdan industrial jihatdan taraqqiy etishi uchun juda ko'p psixologik qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Boshga jihatdan yozuvchilarni qishloq hayoti o'ziga jalb qiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot boshlanishi bilan dehqonlar muammosi davlat miqyosidagi muammoga aylanadi. Jamiyatning g'arblashishi mamlakat ayollari hayotini aks ettirishni ham muayyan masalaga aylantirdi. Bu 60-yillar yozuvchi ayollarining aktivlashishi bilan xarakterlanadi. Ayollar adabiyoti oqimining taraqqiyotida Kan Gyon E va Pak Kyonnilar ijodida alohida rol o'ynadi. Ular ijodi Koreya Respublikasida erkaklar ijodidan kam emas edi. Ayollar nasri o'sha zamonning eng qiziq hodisalarini tasvirlovchi adabiyot turiga

aylandi. 60-yillar ayollar prozasi erkaklar prozasidan uncha katta farq qilmaydi. Ayol yozuvchilar ham mamlakatning ajralishiga, urush, mafkura kabi zamonaviy muammolarga murojat qiladi.

Kim Sinokning “Singlimni tushunish uchun” asari kompozitsion xususiyatlari.

Biz bu asarning kompozitsion xususiyatlarini o’rganishimizdan oldin kompozitsioning o’zi nima ekanligi haqida ma’lumotga ega bo’lishimiz kerak. Har qanday asarning g’oyaviy-estetik ta’siri- undagi shaklning (obraz, syujet) mazmun bilan uyg’unlashuvi, bu hodisaning betakrorligiga bog’liqlik, bu vazifani asar kompozitsiyasi qiladi. Kompozitsiyada ham yozuvchi nuqtai nazari hal qiluvchilik vazifani bajaradi. Shu asos tufayli har bir asarda, dastavval kompozitsion markaz tayin etilishi shart, ya’ni kompozitsioning “o’q tomiri”ni anglab olish lozim bo’ladi; ana shu “o’q tomir”ga bog’liq holda asar qismcha zarralari o’z o’rinlariga, tayin joylariga, vazifalariga ega bo’ladi. Kompozitsiya badiiy asarning barcha unsurlari bilan uzviy bog’liq ekanini uning sujet bilan aloqasida ham yaqqol ko’rish mumkin. Yozuvchi g’oyaviy niyatiga va asar kompozitsiyasining “o’q tomiri”ga muvofiq sujet bo’laklari turli-tuman tarzda joylashtirilishi (kompozitsiyalash) mumkin. Kompozitsiya hodisasi – asarning tanasi (vujudi) desak, asarning qolgan unsurlarining hammasi ham uning ichida yashaydi, shu jihatdan sujetning bo’laklari ham, sujetdan tashqaridagi qismlar (asar nomi, epigraf, lirik, falsafiy, publisistik chekinishlar, qo’shimcha lavhalar, peyzaj, portret, ruhiy tahlil va h.) ham kompozitsioning ichida o’z o’rinlarida harakat qilishlari bilan ayni paytda, kompozitsioning barkamolligini ta’minlashlari lozim. Bu kompozitsiya (vujud)ning mazmun (ruh, g’oya) bilan yaxlitligi (bir-biriga o’tishi, to’ldirishi, joziba ato etishi)dan dalolat beradi.

Kim Sinokning ushbu asarida xalqning bunchalik abgorligini yozuvchi hayoti, holati, u harakat qilayotgan sharoit isbotlab, u davrning kir, qora kunlar ekaniga sha’ma qiladi. Yozuvchi asarda tasvir markaziga o’sha davr sharoitini qo’yadi va bu vazifani aka, singil, ona kabi xarakterlarga yuklaydi. Asarlarning ko’pchiligida tartib (Muqaddima – dastlabki holat – tugun – voqealar rivoji – kulminatsiya - yechim – xotima) saqlansa, ba’zilarida saqlanmaydi. Jumladan, “Singlimni tushunish uchun” asarida tartib saqlanmagan, ya’ni asar tugundan boshlanib ketgan. Asar tuguni telegrammadan boshlanadi, ya’ni shu telegramma sababli singilning boshqa joyda ekanligini, u joyga ketish sababi va keyingi voqealarni bilib olishimiz mumkin. Voqealar rivoji esa ikki yil oldin shaharga ketgan singilning qaytishi, uning nimadandir siqilganligi akasi va onasi buning sababini bilish uchun unga murojlat qilishi bilan davom etadi, kulminatsion nuqtasi esa qizning to’y bo’lishi, xotima esa akaning yana telegramma yuborishi bilan tugaydi. Lekin bu telegramma endi singlisining tug’ilgan kuni bilan emas, farzandining tug’ilgan kuni bilan qutlov telegrammasi bo’ladi. Asar boshqa asarlar singari oddiy usulda yozilmagan, u telegrammadan boshlangan. Telegramma akasidan singlisiga yuborilgan bo’lib, unga singlisining tug’ilgan kuni bilan qutlov yozilgan. Undan keyingi qism xarakteristika bo’lib, unda o’zini haqiqiy romannafis deb hisoblovchi bir yozuvchi haqida yozilgan. U yozuvchi ko’p ichadigan, qayerda kabak! Yoki mayxona bo’lsa o’sha joyda hozir bo’ladigan shaxs qilib tasvirlangan. Keyingi qismda esa shaharga ketgan singilning qaytishi, uning o’zgarib qolishi, uning turmushga chiqishi va farzandli

bo'lishi berilgan. U bir nechta qismlardan iborat bo'lib, har bir qism alohida mazmunga ega, ya'ni bir-birini davom ettirmaydi. Har bir qism o'rtasida uzilish mavjud. O'sha davr asarlarini olib qaraydigan bo'lsak yozuvchilar asar qaxramonlarining nomini ko'rsatmagan. Kim Sinokning ushbu asarida ham asar qaxramonlarining nomi ko'rsatilmagan, ya'ni ular yozuvchi, akasi, singlisi, onasi deb ifodalangan.

Kabak – mayxonaga o'xshash joy.

Kim Sinokning “Singlimni tushunish uchun” asarida shahar tasviri va asar talqini.

Bu asarda shahar tasviri alohida o'rin kasb etgan bo'lib, faqatgina joyni emas, balki o'sha hudud ichida yashovchi insonlarning hayot tarzini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Singlisini shaharga jo'nab ketishi va ikki yildan keyin butunlay o'zgarib qaytib kelishi, ya'ni shaharda u unutilmas qyjinchiliklar girdobida qolganligi orqali o'sha davr aholisi daxshatli davr iskanjasiga tushib qolganligi va bu iskanjadan qutulish yo'llarini izlayotganligini tasvirlashga harakat qilgan. Ya'ni yozuvchi bir davr hisoblasa, singlisini esa o'sha davr azob-uqubatlaridan charchagan oddiy xalq deb hisoblaydi.

O'sha davrlarda qishloq aholisiga nisbatan shahar aholisi ko'proq kurashlar olib borganligini, shahar sharoiti tinch emasligi, aka va ona obrazidan esa ularning soddaligidan qishloq aholisining soddaligi ko'rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Избранные работы по корейской литературе. Сеул, 2000
2. 이 논문은 1996 년도 교내 연구비 지원으로 작성된 것임
3. 조연현, <한국현대문학사> (인간사, 1968) pp. 685-698
4. 백철, <신문학사조사> (신구문화사, 1982) p. 334
5. Троцевич А.Ф. Миф и сюжетная проза Кореи. СПб., 1996
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Modernizm>
7. <http://www.quronov.narod.ru/modernizm>

SELF-ASSESSMENT BASED ON CRITICAL REFLECTION AS AN IMPORTANT SKILL FOR INDIVIDUALIZING FOREIGN LANGUAGE LEARNING

B.Rafieva.

Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics.

Abstract. The article explores the benefits of critical reflection, such as increased self-awareness, improved metacognitive skills, and enhanced learner autonomy. It also discusses various strategies and techniques that can be employed to facilitate self-assessment and critical reflection in foreign language classrooms. The findings suggest that incorporating self-assessment based on critical reflection can empower learners to take ownership of their learning, identify their strengths and weaknesses, set realistic goals, and make informed decisions regarding their language learning journey.

Keywords: learner autonomy, strategies, techniques, empowerment, strengths and weaknesses

Reflection on the process determines the evaluation of the effectiveness of previous mental activity. However, it is precisely critical reflection that occurs in the process of analyzing the prerequisites that led to certain actions. We agree that the first element of critical reflection is the analysis of personal experience. It is thanks to the critical study of his views that the individual constructs a new meaning of life. In this case, alternative considerations are considered, which question previous prejudices, which leads to a rethinking of the situation.

In this context, critical reflection in the concepts of teaching and learning a foreign language is of great interest. From the point of view of experience, or

constructivism, critical reflection transforms experience into learning [Colb, 1984], while from a cognitive point of view [Bruner, 1960], reflection is one of the mental processes important for the development of prior knowledge through the integration of new knowledge, which plays a significant role in such cognitive strategies such as analysis, goal setting, and self-evaluation. From the standpoint of social constructivism [Vygotsky, 1986], this is one of the cognitive processes that emerge during social interaction. However, as Furnborough [2012] points out, researchers are increasingly turning to the concept of "autonomous interdependence" [Furnborough, 2012, p. 100], as the growing interest in social constructivist approaches to learning has led to increased attention to the role of social interaction in language learning. Technological developments make it possible to communicate and cooperate not only between language teachers, but also between students of different backgrounds social and cultural communities, native speakers who are not subjects of the educational process. This means that opportunities for cooperation and technology is increasingly blurring the lines between these learning contexts in various forms of blended teaching and learning [Nicolson, Murphy & Southgate, 2011].

In order to teach students to analyze personal effectiveness in performing tasks, identify needs, strengths and weaknesses before making informed decisions, monitor and evaluate progress in achieving their goal, Kolb proposes a learning cycle that he defines as "transformation of experience" (Colb, 1984). He defined the named cycle as "the process by which knowledge is created by transforming experience" [Colb, 1984, with. 38]. The researcher singled out four stages of the learning cycle, which he called "reflective observation" of experience, "abstract conceptualization" and "active experiment" leading to further "concrete experience". This concept was supplemented by Boud, Keogh, and Walker [Boud, Keogh, Walker, 1985], who suggested that "reflective observation" in Kolb's cycle should occur in three stages: addressing previous experience, awareness of experience and reinterpretation of experience.

Analyzing Kolb's learning cycle [Colb, 198]) in the context of autonomous individualized language learning, the researchers interpreted the "reflective observation" stage as an analysis of the process of performing the previous task and its possible results. That is, when a student begins to learn a language, he is offered to analyze his personal effectiveness in mastering a similar previous language topic. After that, students move to

the stage of "abstract conceptualization", which means formulating work priorities and developing an action plan to achieve these priorities. The last stage is "active experimentation", or testing what they have learned to continue building "concrete experience" in further work.

In this way, two key processes of forming the individualization of learning take place: the process of critical reflection and making conscious decisions regarding personal learning.

In this case, reflection acts as an indicator of subjectivity and allows you to regulate your initial activity and manage it, influence system of norms and standards. We define reflection as the ability of an individual to realize the results of his activity, to set the limits of this activity in the course of solving an educational task, to adjust his actions. In result reflections, students are aware of successes and mistakes in determining strategies and choosing learning tools, if they do not correspond to the level and content of the task; develop a critical attitude to personal capabilities, skills and resources.

As a result, during the execution of the next task, a wider selection of resources and tools is used, assumptions, hypotheses are put forward, logical reasoning and implementation of the chosen decision take place. Critical reflection in professional activity has the potential of development, which under certain conditions enables an individual to rise to a new level of development. So, reflection is built around already existing knowledge, skills, and enabling skills achieve success and analyze the causes of failures and difficulties that inhibit the achievement of planned results. Critical reflection enables:

- to record the peculiarities of the dynamics of activity in relation to the expected results, as well as transformative personal changes;

- turn positive and negative experience of previous activities into a foundation for further research and learning;

- draw conclusions and adjust further activities in a timely manner. Thus, according to the results of the analysis, we singled out critical reflection provisions important in the context of our study:

- critical reflection – the process of rethinking personal activity in order to determine educational needs and analyze the reasons for success and failure with

 - the prospect of correcting actions to achieve the goal;

- critical reflection is an important condition for the formation of competence in individual foreign language improvement;

- one of the effective means of developing reflective skills is awareness and transformation of previous educational experience;

- the process of autonomous individualized learning should provide for the purposeful formation of reflective skills of students, by means of alternative assessment.

In conclusion, self-assessment based on critical reflection is an essential skill for individualizing foreign language learning. By engaging in self-assessment, learners can gain a deeper understanding of their language proficiency, strengths, and weaknesses. This process fosters self-awareness and metacognitive skills, enabling learners to take control of their language learning journey. The ability to personalize learning through self-assessment

empowers learners to set realistic goals and make informed decisions about their language learning strategies and techniques. Ultimately, self-assessment based on critical reflection cultivates learner autonomy and creates independent, effective language learners. By incorporating this skill into foreign language education, educators can support learners in becoming active participants in their own learning and pave the way for successful language acquisition.

References

1. Rafieva, B. R. Teaching Professional Disciplines By Means of a Foreign Language in Higher Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 7, 302-304.
2. Obloberdiyevna, D. S., & Rustamovna, R. B. (2023). The Main Criteria of Autonomy Approach in Teaching English for Students of Economics. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(2), 125-130.
3. Rustamovna, R. B., & Obloberdiyevna, D. S. (2023). Motivation as a Determining Factor in Promoting Student Independence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(2), 140-144.
4. Rustamovna, R. B. (2021). Positive Impact of Using Interactive Whiteboards in Education. *International Journal on Integrated Education*, 4(11), 180-182.
5. Rustamovna, R. B., & Obloberdiyevna, D. S. (2022). Use of Problem Technology of Learning in Literary Education. *International Journal of Formal Education*, 1(11), 47-52.
6. Obloberdiyevna, D. S. (2023). Assessing the Development of Emotional and Communicative Competence in Medical Students: Longitudinal Research. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences*, 1(2), 22–25. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/87>
7. B Rustamovna Essential drawbacks of using multimedia affecting both students and teachers in language teaching classes *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11 (3), 41-43 24 2021
8. DS Obloberdiyevna, RB Rustamovna Digitalization as the Only Safe Learning Option during the Covid-19 Pandemic. *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 1 (11), 70-73 22 2022
9. RB Rustamovna, DS Obloberdiyevna Use of Problem Technology of Learning in Literary Education *International Journal of Formal Education* 1 (11), 47-52
10. Б Рафиева Дидактическая система индивидуализации обучения иностранному языку студентов экономических вузов *Общество и инновации* 4 (5), 66-71

NEOLOGİYANING KOGNITIV JIHATLARI

M.To'rayeva

SamDChTI 1-bosqich doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik asoschilarining fanga bergan ta'riflari tahlili va neologiyada kognitiv tilshunoslikning roli ustida izlanishlarni o'z ichiga

oladi. Ushbu izlanish jarajonida, neologizmlarni ya'ni yangi so'zlarni kognitiv maydonda o'rganish ob'yekt qilib olindi.

Tadqiqot asosi etib quyidagi tilshunos olimlarning izlanishlari: amerika va yevropa tilshunoslari : George Lakoff, Noam Chomsky, Roman Jakobson, Gilles Fauconnier, Ronald W. Langacker : rus tilshunoslari : T.G.Skrebsova, E.S. Kubryakova, Yu.S. Stepanov, V.Z. Demyankov, N.N. Boldirev, fransuz professori J-F.Sablayrolles va boshqa shu kabi turli yetuk tilshunoslar tadqiqotlariga murojaat etildi.

Tadqiqot natijasida kognitiv omillar inson tomonidan idrok etilgan yangi va allaqachon idrok etilgan ma'lumotlarning neologizmlarda ifodalanishi va ular qanday namoyon bo'lishini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, kognitivist olimlar, kognitiv yondashuv, konsept, konseptual dunyo manzarasi, neologiya, "bilish formatlari".

Bugungi kunda tilshunoslikning yangi va hali hamma qirralari ochilmagan kognitiv tilshunoslik va uning bo'limlari bilan neologiyaning bog'liqligi, so'z yasalishi va neologizmlarning lingvo-kognitiv jihatlari o'rganilmoqda. Ma'lumki, Kognitiv tilshunoslikni fan va tilshunoslikning yo'nalishi sifati darajasiga olib borgan olimlar ushbu izlanishlarga poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ular : amerika va yevropa tilshunoslari : George Lakoff, Noam Chomsky, Roman Jakobson, Antoine Culioli, Charles J. Fillmore, Gilles Fauconnier, Leonard Talmy, Ronald W. Langacker : rus tilshunoslar : T.G.Skrebsova, E.S. Kubryakova, Yu.S. Stepanov, V.Z. Demyankov, N.N. Boldirev, V.I. Zabotkina, E.V. Petrukhina, L.A. Manerko, E.I. Golovanova, E.V. Raxilina, R.M. Frumkina.

Sankt-Peterburg davlat universiteti tilshunosi T.G.Skrebsova « Когнитивная лингвистика: классические теории, новые подходы » (Kognitiv lingvistikani klassik nazariyalar, yangi yondashuvlar) darsligida Kognitiv lingvistikaning paydo bo'lish evolutsiyasini tilshunoslik taraqqiyotining bosqichi sifatida va fanda kognitiv paradigmaning rivojlanishi natijasida o'rganadi. Skrebsovaning qayd etishicha: taraqqiyotning bosqichi sifatida Kognitiv lingvistikani Naomi Xomskiyning generativ nazariyasiga muqobil sifatida tilning tabiati va ichki tashkil etilishi bilan bog'liq masalalarda undan keskin ajralib chiqqan. Kubryakova esa: keyinchalik, tilshunos N. Xomskiy va psixolog J. Miller - til haqidagi bilimlar qanday ishlashini eksperimental ravishda o'rganish va tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan farazlarni sinab ko'rish uchun mo'ljallangan - psixolingvistikani sohasini shakllantirdi va psixolingvistikani kognitiv fanning bevosita asoschisi deb hisoblash mumkinligi ta'rifladi. Kognitiv Lingvistikani ko'plab evolutsiyani bosib o'tganligi sabab, hozirgi kunda zamonaviy Kognitiv tilshunoslik atamasi qo'llaniladigan bo'ldi. [Skrebsova 2018: 13]

Tilshunos T.G.Skrebsova Kognitiv tilshunoslikni inson miyasining tuzilishining umumiy masalalari bilan qiziqadigan boshqa fanlardan, ayniqsa psixologiyadan farqli o'laroq, asosiy e'tiborni konseptual mazmunga qaratadi. Uning fikricha Kognitiv tilshunoslikning asosiy savollari insoniyat o'zi va dunyo haqida nimani bilishadi, ular nimani bilishlarini qanday bilishadi, bu bilimlar qanday tashkil etilganligi va qanday faollashtirilganligi, ulardan qanday foydalanishiga javob topishidir. Shuning uchun u Moskva davlat lingvistik universiteti lektori M.N.Konnova lingvistik bilimlarning xossasi,

o'zlashtirilishi va qo'llanilishini zamonaviy kognitiv tilshunoslikda quyidagi qonunlar asosida o'rganadi :

1) til belgilarda ifodalangan bilim ko'rinishlari va turlari va belgilardan bilimni ajratib olish mexanizmlari, ya'ni talqin etish qoidalari (kognitiv semantika va pragmatika);

2) belgilarning paydo bo'lishi va rivojlanishi shartlari va ularning amal qilishini tartibga soluvchi qonunlar;

3) lingvistik belgilar va madaniy voqeliklarda aks etishing o'zaro munosabati.[Konnova 2012 : 12]

Smolensk gumanitar universiteti chet tillar fakulteti nemis tili kafedrasida filologiya fanlari doktori Borisenkova Larisa Mixaylovna ilmiy darajasini olish uchun «Когнитивные аспекты словообразования» (“So'z yasashning kognitiv aspektlari”) [Borisenkova 2005 : 13] nomli himoya dissertatsiyasida tilni kognitiv ilmnining asosiy mavzusi deb nomlaydi. Shuningdek, til siqilgan shaklda bilimning bosib o'tgan yo'lini va uning natijalarini o'z ichiga olib, pragmatik samaradorlik fenomenini ifodalaydi. Uning ta'kidlashicha, inson dunyoni doimiy ravishda perseptiv tarzda o'rgansa ham, dunyo haqidagi ma'lumotlarning asosiy qismini til orqali, nutq va kundalik muloqot orqali qabul qiladi.

M.N.Konnova rus kognitiv tilshunoslikning rivojlanish istiqbollarini belgilab, hozirgi vaqtda shaxsning konseptual tizimini tashkil etuvchi birliklarning ikkita tipologiyasini ishlab chiquvchi ikkita asosiy yo'nalishga ajratadi :

Birinchi yo'nalish konseptual tarkibni sozlashning turli "bilim formatlari" ya'ni tasvir sxemalari, modellar, freymlar, kategoriyalar va boshqa usullariga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi;

Ikkinchisiga konseptual tizim birliklarini qo'llashning o'ziga xos mazmuni va eng xilma-xil sohalarini ochib beruvchi asarlar kiradi. Ularda atrofdagi voqelik, inson va uning ichki dunyosi haqidagi turli xil bilimlarni aks ettiruvchi madaniy, etnik va lingvistik tushunchalarni ajratib ko'rsatiladi. [Boldirov 2007 : 97]

L.A. Manerko «Современные тенденции развития отечественной когнитивной лингвистики//Когнитивная лингвистика: новые проблемы познания» (Mahalliy kognitiv tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari // Kognitiv tilshunoslik: bilishning yangi muammolari) [Manerko 2007 : 32] maqolasida zamonaviy rus va xorijiy kognitiv tadqiqotlarning eng dolzarb mavzulariga " tabiiy tilni ishlab chiqarish va tushunish jarayonlari, konseptual tuzilmalarning turlari va ularning lingvistik ifodasi, kognitiv-semantik kategoriyalari, tildagi fazoviy va zamon munosabatlarining ifodasini kiritadi. Va ushbu mavzulardagi izlanishlar rus kognitiv tilshunosligida funksional pragmalingsvistika, kognitiv onomasiologiya, kognitiv-kommunikativ terminologiya, kognitiv neologiya, kognitiv frazeologiya va kognitiv tamoyillarga asoslangan leksikografiya kabi yo'nalishlarni birinchi o'ringa chiqardi.

M.D. Stepanova va G. Helbig «Части речи и проблема валентности в современном немецком языке» («Zamonaviy nemis tilida nutq qismlari va valentlik muammosi»)[Stepanova 1978 :260] nomli kitobida so'zni ma'lumot birligi sifatida quyidagicha ta'riflaydi : uning semantik vazifasi bilish elementini, ya'ni konseptni shakllantirish va muloqot jarayonida mos keladigan ruhiy tasvirni uzatishdir. Shu bilan

birga, so'z tushunchaning ko'rsatkichi sifatida real dunyo predmeti yoki hodisasi bilan ular haqidagi individual g'oyalardan mavhumlik bilan bog'lanadi, garchi aloqa jarayonida so'z ma'lum bir vaziyatda yagona predmetning qayta nomiga aylanishi mumkin".

Kognitiv faoliyat jarayonida voqelikning yangi ob'yektlarini bilish yoki ilgari ma'lum bo'lgan narsaning yangi qirralari, belgilari va xususiyatlarini kashf qilish, odam «voqelikni aqliy aks ettirish natijalarining tarjimoni va lingvosemioz markazi» [Alefirenko 2006 : 31] sifatida bilish natijalarini yangi so'z bilan ifodalashga intiladi. [Kasyanova 2008 : 3] Shu munosabat bilan, inson atrofimizdagi voqelikdagi yangi narsalarni, jarayonlarni qanday idrok etishi va konsepsiyalashi, qanday ob'yektiv va sub'yektiv omillar dunyoning yangilangan tasviriga olib kelishini o'rganish dolzarb bo'lib qoladi. Insonning kundalik yoki ilmiy-texnikaviy g'oyalarni aks ettiruvchi, anglab olinadigan tildan tashqari ob'yektlarni konseptuallashtirishning lingvistik vositalarini izlash alohida ahamiyatga ega. Yangi leksik birliklarning paydo bo'lish jarayoni bir qator kognitiv omillar bilan belgilanadi. Bularga voqelikni idrok etish jarayonida yangi tushunchalarning vujudga kelishi va ularning lingvistiklashtirilishi; jamoatchilik ongida allaqachon qayd etilgan dunyoning konseptual manzarasining fragmentlarini aniqlash, ularni qayta ko'rib chiqish va chuqur bilishning madaniy va tarixiy, kognitiv-pragmatik omillar hisoblanadi.

L.M. Borisenkova [Borisenkova 2005:13]: so'z yasashini dunyoning lingvistik tasvirining asosiy tarkibiy qismi hisoblab, uni anglovchi, qabul qiluvchi suyb'ektning ongida atrofdagi olam va o'z-o'zini kategoriya va subkategoriyalarga ajratgan holda verbal tasvirlash deb ta'rif beradi. So'z yasashning kognitiv yondashuvi tadqiqotchiga tilning yaxshi o'rganilgan sohasining yangi aspektlarini tushunish imkoniyatini beradi va yangilik til faktlarining o'zida emas, balki ularga bo'lgan qarashda hamdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, neologiyaning o'rganish ob'yektlari paydo bo'lish jarayoni bir qator kognitiv omillar bilan belgilanadi. Yangi voqelikni idrok etish jarayonida yangi tushunchalarning vujudga kelishi, jamoatchilik ongida yangi bilimlar va allaqachon ma'lum bo'lgan bilimlarning dunyoning konseptual manzarasida aniqlash, ularni qayta ko'rib chiqish va chuqur bilishning madaniy va tarixiy, kognitiv-pragmatik jihatlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Алефиренко Н.Ф., Проблемы когнитивно-семиологического исследования языка / Н.Ф. Алефиренко // Слово – сознание – культура: сб. науч. тр. М.: Флинта: Наука, 2006. С. 31 – 41.

2. Болдырев Н.Н. Языковое знание и языковое сознание // Концептуальный анализ языка: современные направления исследования : сб.науч. тр. / РАН. Ин-т языкознания. М. ; Калуга, 2007. С. 95—108

3. Борисенкова Л.М. «Когнитивные аспекты словообразования» (nemis tilidagi material asosida) filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar Tver - 2005 yil 13-bet

4. Касьянова Л.Ю. (Астрахань) Когнитивные факторы порождения нового слова 2008 75-82сс

5. Коннова М.Н. К Введение в когнитивную лингвистику : учебное пособие. Изд. 2-е, перераб. — Калининград : Изд-во БФУ им. И. Канта, 2012. — 313 с. ISBN 978-5-9971-1092-3
6. Манерко Л.А . Современные тенденции развития отечественной когнитивной лингвистики // Когнитивная лингвистика: новые проблемы познания : сб. науч. тр. М. ; Рязань, 2007. С. 30—38
7. Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке 1978. 260 с.
8. Скребцова Т. Г. Когнитивная лингвистика: классические теории, новые подходы — М.: Издательский Дом ЯСК, 2018. — 391 с. (Разумное поведение и язык. Language and Reasoning)

FRAZEOLOGIZMLAR MURAKKAB ILOVALI QURILMA HOSIL QILUVCHI KOMONENT SIFATIDA

М.А.Кучиёв

SamDCHTI katta o'qituvchisi.

Hozirgi kunda dunyo tilshunosligida asosiy e'tibor tilning real, aniq vazifalarini o'rganishga, lingvomadaniy va kommunikativ-sintaktik jihatlariga qaratilmoqda. Bu esa tilning barcha sohalarini chuqur va mukammal bilishga hamda tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan chet tilini o'rganish jarayonida gapning struktural-semantik jihatlarini bilan bir qatorda uning ma'noviy va uslubiy xususiyatlarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu maqolada frazeologizmlarni murakkab ilovali qurilma hosil qilishdagi o'rni haqida so'z yuritmoqchimiz.

Tilshunoslik sohasidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ilova konstruksiyalar murakkablashish xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday murakkablashish jarayonida ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni bittadan ortiq bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq ilovali elementlardan tashkil topgan sintaktik qurilmaga murakkab strukturali ilova konstruksiya deb ataladi.

Ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda asosiy gap(ifoda)ning strukturasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. «Sodda strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning soni asosiy ifodada ham, ilova qismida ham bir xil bo'lishi lozim, ya'ni bittadan gap yoki sintagmalardan oshmasligi talab qilinadi; murakkab strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar esa, ham asosiy ifoda tarkibida, ham ilova qismida ikkitadan kam bo'lmasligi lozim. [Mamasoliyev 2022:78-80]

Demak, murakkab strukturali konstruksiyalarni tashkil etuvchi asosiy ifodaning soni bilan ilovali elementlarning miqdori baravariga oshishi kerak, ya'ni ikkitadan kam bo'lmasligi lozim. Shu o'rinda, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda ularning lingvistik mohiyatiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ilova hodisasi, ilova

konstruksiya yoki ilova munosabatlar ham ilovali elementlarning aytilgan fikrlarga qo‘shimcha ma‘no, mazmun berishga qaratilgan lingvistik mohiyatidan kelib chiqadi. Ko‘rinadiki, bunday ilovali elementlarning miqdori bittadan ortiq bo‘lgan ilova konstruksiyalarni murakkab strukturali ilova konstruksiyalar deb atash lozim. Bu kabi konstruksiyalarga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Pech mit dem Wetter. Es regnete in Strömen und die Spiele mussten immer wieder unterbrochen werden (rundschau-online.de, 21. 8. 2001)

Ushbu misolda asosiy ifoda (Pech mit dem Wetter) ga ikkita ilovali element (1. Es regnete in Strömen. 2. die Spiele mussten immer wieder unterbrochen werden) birikib, asosiy ifodani to‘ldirib, aniqlashtirib keladi. Natijada murakkab strukturali ilova konstruksiya hosil bo‘ladi. Bu yerda yozuvchi tasvirlayotgan voqeaga alohida urg‘u berib, uning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida o‘ziga xos sintaktik-stilistik hodisa-ilova hodisasiga murojaat qiladi. Ushbu ilova konstruksiya yozuvchining individual uslubi mahsuli sifatida yuzaga keladi, bunda alohida ta‘kidlash namoyon bo‘ladi.

Ilova konstruksiya tarkibida asosiy gapga qo‘shimcha sifatida birikib kelayotgan ilovali elementlarning miqdor jihatdan ortib borishi quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni ma‘lum darajada soddalashtiradi;
2. Bu voqea-hodisalar mazmunining kitobxon tomonidan tushuntirilishi osonlashtiradi;
3. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ta‘sirchanligini oshiradi.
4. Asosiy ifodaning mazmunini to‘ldirib, aniqlashtirib keladi.

Ta‘kidlash kerakki, murakkab strukturali ilova konstruksiya komponentlari o‘rtasidagi sintaktik aloqalar ham turli xil ko‘rinishlarga ega; ko‘p hollarda bir-biri bilan munosabatga kirisha oladigan so‘zlar yordamida; ilova konstruksiya tarkibida biron-bir leksik birlikning takrorlanishi bilan; ayrim bog‘lovchilarning qo‘llanishi orqali; asosiy ifoda vazifasida keladigan bosh bo‘laklarning sintaktik-semantik yaxlitligi bilan ifodalanadi.

Ilovali elementlar asosiy kommunikativ funksiyalari asosiy ifoda tarkibida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni konkretlashtiradi, to‘ldiradi va reallashtiradi.

Ilovali elementlar tarkibida keluvchi ba‘zi bir komponentlarning o‘ziga mos o‘rinda kelmasligi ularning sintaktik funksiyalarini amalda kuchaytiradi, natijada tasvirlanayotgan voqea-hodisaning ta‘sirchanligi oshadi. Ilovali element tomonidan bildirilayotgan kommunikativ funksiyalarning oldin umumlashganini, keyin esa yana konkretlashganini ilovali elementlarning stilistik funksiyalarini boyitishga xizmat qiladi [Ахмедова 2000: 56-57].

1. Ein Ausflug! Mit Kind und Kegel, eingepackten Brotzeiten – und ganz ohne Politik (Kühn, Zeit 113).

2. Es ist jetzt acht Uhr. Es wird Zeit. Wir müssen uns auf die Lappen machen (Sobota, Minus-Mann 189).

Ko‘rinishi jihatdan keyingi misollarda bayon qilingan ilovali elementlar № 1-, 2-raqamli misollardagi ilovali elementlarni takrorlab kelganday. Umuman olganda, bu ilovali elementlar ham murakkab strukturaviy ilovali elementlardir. Biroq, kommunikativ funksiyalari nuqtai nazaridan qandaydir o‘zlariga xos xususiyatga ega. Bu xususiyat №1-raqamli misoldagi ilovali elementning konkretlashtirish va o‘sha misoldagi ilovali

elementning umumlashtirish xarakteriga ega bo'lishi bilan ifodalandi. Ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyat, ularning asosiy ifodaga nisbatan bildirilayotgan kommunikativ funksiyalarini faqatgina konkretlashtiribgina qolmasdan, balki uni umumlashtirishi ham mumkin. Ilovali elementlar kommunikativ funksiyalarining bunday variantivligi, asosan ba'zi leksik-grammatik komponentlarning joy almashinishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunday vaziyat ilovali elementlarning ham stilistik, ham sintaktik funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi [Реферовская 1983:122]

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, ilovali elementlar asosiy ifodaning yoki uning biron bir bo'lagini konkretlashtirib, to'ldirib, izohlab va reallashtirib keladi.

Frazeologizmlar ilova qurilma tarkibida xilma - xil uslubiy funksiyalarni ham bajarib kelishlari mumkin. Ularning uslubiy funksiyalari asosan gap strukturasi murakkablashtirib, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ta'sirchanligini, badiiyligini, jonliligini oshirish; tasvirlanayotgan voqea-hodisaga kitobxonning diqqat e'tiborini jalb qilishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ахмедова Б. М. К вопросу изучения порядка слов в современном немецком языке. Вестник, Каз ГУ. Серия филологическая №37. -Алматы, 2000. С. 56-57.

2.Мамасолиев И.У. Ҳозирги немис тилида илова конструкцияларнинг стилистик – прагматик функциялари. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 2022. – 166 б.

3.Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста.Л.Наука.1983-216 с.

4.Турсунов Б. Т. Мураккаб синтактик конструкцияларни ўрганишга доир. Халқаро илмий конференция материаллари тезислари (2002 йил 14-15 март, Самарқанд). -Самарқанд. 2002. –Б.76-77.

5.Kühn, August: Zeit zum Aufstehn. Frankfurt a. M.: S. Fischer Verlag, 1975.

6.Sobota, Heinz: Der Minus-Mann. Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1978.

7. rundschau-online.de, 21. 8. 2001

O‘ZBEK VA KOREYS MADANIYATIGA XOS CHAQALOQ TUG‘ILISHI VA OILA QURISH BILAN BOG‘LIQ MAROSIMLARNING QIYOSIY TAHLILI.

M. U. Kamarova. SamDCHTI koreys tili o‘qituvchisi.

Z. X. Rayimova. SamDCHTI talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va koreys xalqlarining chaqaloq tug‘ilishi va oila qurish bilan bog‘liq marosimlaridagi o‘xshashliklari o‘rganib chiqildi va qiyosiy tahlil qilindi. O‘zbek va koreys xalqlarining har ikkisi ham Sharqiy hududda joylashganligi sababli sharqona uslubga xos o‘zaro o‘xshashliklari ko‘p, lekin shu bilan birga farqli jihatlari ham mavjud. Jumladan, bu o‘xshash va farqli jihatlari turli marosimlarda ham o‘z aksini topgan.

Kalit soʻzlar va iboralar: marosimlar, ism qoʻyish marosimlari, chilla, aqiqa, 돌찬지, sovchilik, fotiha toʻyi, soch olish, beshik toʻyi

Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va oʻzligining, madaniy-maʼrifiy olami, milliy gʻoyasining asosi hisoblanadi. Xalqlar madaniyatining oʻziga xos koʻrinishi boʻlmish turli marosimlar inson hayotining uzviy qismidir. Marosimlar insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri boʻlishi bilan bir qatorda millat rivoji yoʻlidagi samarali vosita sanalib, ular xalq ogʻzaki ijodi, sanʼati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani oʻziga jalb qiladigan ommaviy tadbirlar hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi anʼanalari, odatlari, axloqiy qoidalarini oʻzida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiylashda, ularning odobli-axloqli boʻlishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Marosimlar inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy koʻtarinki vaziyatda oʻtadigan, oʻz ramziy urf-odatlariga hamda maxsus aytim-qoʻshiqlariga ega qiziqarli hayotiy tadbirlardir.

Oʻzbek xalqining urf-odatlari asrlar boʻyi oʻzbek millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va anʼanalarining uygʻunlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan jarayondir. Urf-odatlarining koʻpchiligi oilaviy hayotga oid boʻlib, bolaning tugʻilishi va tarbiyasi (beshik toʻyi, xatna qilish), nikoh (fotiha toʻyi, toʻy) bilan bogʻliq boʻladi. Koreys millatida ham xuddi shunday marosimlar mavjud boʻlib, bizning urf-odatlarimizga oʻxshash jihatlari bilan birga farqli tomonlari ham bor.

Oʻzbek va koreys oilalarida chaqaloq tugʻilib toʻyga yetib, oʻzi yangi oila qurgunicha turli xil odat va marosimlar oʻtkaziladi. Oʻzbek va koreys marosimlarining qiyosiy tasnifini quyidagi jadvalda keltirdik:

Marosim nomi	Oʻzbekiston	Koreya
Chaqaloq tugʻilishi bilan bogʻliq boʻlgan marosimlar	Ism qoʻyish- chaqaloqqa ism qoʻyish ota-onaning farzand oldidagi masʼuliyatlaridan biri hisoblanadi. Islom tarixida boʻlib oʻtgan ajoyib hodisalardan xabardor har bir ota-ona qanday sharoitda boʻlmasin, farzandiga chiroyli, maʼnosi ham goʻzal ism qoʻyishga harakat qiladi. Zero, ism oʻz egasining xulq-atvoriga, hatto taqdiriga ham taʼsir qilishi aytilgan.	Ism qoʻyish- odatda koreyslar chaqaloqlarga 7 kundan 1 oygacha ism qoʻyishmaydi. Ona qornidaligida chaqaloqqa taxallus qoʻyishadi va bola tugʻilib toʻ unga ism qoʻyilguncha shu taxallus bilan nomlashadi. Koreyslar chaqaloqqa ismni uning tugʻilgan kun, oy, yiliga qarab belgilashadi va ismning har bir boʻgʻini oʻziga xos maʼnoni anglatadi. Masalan: 빛나 ismi “빛” soʻziga asoslangan holda “ yorugʻlik ” maʼnosini anglatadi.
	Chilla. Chilla davri — chaqaloq tugʻilgandan keyingi 6-8 haftagacha boʻlgan davr. Chilla davri umumiy 40 kun hisoblanib, shundan 20 kuni “kichik chilla”, 20 kuni “katta chilla” deyiladi.	백일 -chaqaloq 100kunlik boʻlganida nishonlanadigan marosim. Chaqaloq 22-sentabrdan oldin tugʻilgan boʻlsa, oʻsha yili 100 kunligini nishonlanadi, lekin 22-sentabrdan keyin tugʻilgan boʻlsa yil oʻtgandan keyin 100 kunligi nishonlanadi.
	Aqiqa- musulmon kishilar oilasida	-

	farzand tug‘ilganligining shukronasi sifatida qurbonlik (qiz farzandga bitta, o‘g‘il farzandga ikkita qo‘y) so‘yib aqiqa marosimini o‘tkaziladi. Bu sunnat amal hisoblanib, chaqaloq sochini olish, qurbonlik so‘yish, bolaga ism qo‘yish va qorin sochi (bolaning tug‘ilgandagi sochi)ga qaychi urish bilan bog‘liq marosimdir.	
Tug‘ilgan kun	Bir yoshni nishonlash -chaqaloq bir yoshga to‘lganda katta xursandchilik bilan nishonlanadigan tug‘ilgan kun bazmi.	돌잔치 (Dolchanji) - chaqaloq tug‘ilgandan keyingi birinchi yilni va chaqaloq bir yoshga to‘lgani nishonlanadigan marosim. Koreyslar bu marosimni chaqaloqning kelajagi va farovon hayoti uchun juda muhim deb hisoblashadi.
Oila qurish bilan bog‘liq marosimlar	Sovchilik - biror xonadonning voyaga yetgan qizini kelinlikka so‘rab borish odati. Bu vazifani bajaruvchilar “sovchilar” deb ataladi. Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo‘lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo‘lini so‘rab borishadi.	중매결혼 (Chungme kyoron) – Sovchilik orqali oila qurishdir. koreyslarning an’anaviy jamiyatida nikohning bir usuli sifatida qaraladi. Kuyovning yaqin kishilari kelinning yaqinlari bilan uchrashib, sovchilik qilishadi.
	Fotiha – “unashtirish” tushunchasini anglatib, yigit va qizni fotiha qilib qo‘yish marosimidir.	약혼 (Yakhon) - nikoh to‘yidan oldin yigit va qiz roziligi bilan yoshlarni unashtirib, ya’ni fotiha qilib qo‘yish marosimi. Bu kunda to‘yni qachonga o‘tkazishlarini belgilashadi.

Bundan tashqari, o‘zbek xalqida bola tug‘ilib bir yoshga yetguncha **soch olish, beshik to‘yi** kabi marosimlar ham mavjud. **Soch olish marosimi** - bola tug‘ilganidan keyin yetti kun o‘tgach o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, bunda chaqaloqning ona qornidagi sochi olinib o‘lchanadi va shu miqdorda faqirlarga oltin, kumush sadaqa qilinadi. Bu ham sunnat amal hisoblanadi. Buning ikki hikmati bo‘lib, birinchisi, bolaning sog‘lom o‘sishi, kuch-quvvatga to‘lishi, bundan tashqari ko‘rish, hid bilish va eshitish kabi sezgi turlari mukammal bo‘lishi uchundir. Ikkinchisi esa, ijtimoiy hikmat bo‘lib, jamiyatda bola o‘z o‘rnini topishi va bolaning kelajakda qo‘li ochiq bo‘lishi uchun deb aytishadi. **Koreyslarda bunday odat mavjud emas**, aksincha ular bola tug‘ilganda sochini olishmaydi. Ona qornidan tug‘ilgan sochi bolaga kuch beradi, agar sochi olinsa zaiflashib qoladi deb hisoblashadi.

Beshik to‘yi - Yaqin va O‘rta Sharq, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbeklar oilasida to‘ng‘ich farzand tug‘ilishi sharafiga o‘tkaziladigan tantanali marosim. Bola bir yoshdan o‘tgandan keyin **xatna to‘yi** ham o‘tkaziladi. **Xatna to‘yi** - o‘zbeklar va boshqa bir qancha musulmon xalqlardagi xatna marosimidir. Islom dini tarqalgandan so‘ng sunnat amali bajarilishini bayram qilish sifatida odat tusiga kirib qaror topgan.

Xulosa

O‘zbek va koreys xalqlari madaniyatining o‘zaro solishtiruvda, yuqorida sanab o‘tilgan marosimlarning har ikkala tomonda ham mavjud yoki mavjud emasligiga asoslanib o‘xshash hamda farqli tomonlarini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek va koreys tillari madaniyatini o‘rganishdan olingan xulosalar quyidagicha: koreys millatida ham xuddi o‘zbek millatidagi kabi marosimlar mavjud. Ikkala davlatda ham sharqona odatlar mavjud bo‘lganligi sababli o‘zaro solishtirib tahlil qilish juda ham qiziqarli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kamarova M.U. “Koreys tilining xorijiy til sifatidagi ta’lim siyosati va koreys tilining tarqalishiga sababchi omillar”, So‘z san’ati xalqaro jurnali, 2-son, 2023.
2. Kamarova M.U. “우즈베크어와 한국어 파생법 관련 논문 사례 연구”, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
3. Mirzayev N., “O‘zbek tili entografizmlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1991.
4. Madayev O. Toshkent O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. 2010.
5. Shomaqsudov S.O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. Toshkent. 1987.
6. Xan V.S.Koreya tarixi, Toshkent, 2013.
7. Kim Mun Uk va b. Koreyscha-o‘zbekcha lug‘at, 2006.
8. 한국문학개론 김기형 서철유원, 2015
9. 김철환, 한국어 읽기, 2008
10. 안성희, 아름다운 한국 3
11. 한 무 근한국어와 한국문화 2, 2013

FRAZEOLOGIZM VA BADIY TASVIR VOSITALARINING ILOVALI ELEMENT TAKIBIDA QO‘LLANILISHI

M.A.Kuchiev

SamDCHTI o‘qituvchisi

Dunyo tilshunosligida olib borilayotgan izlanishlarda ilova konstruksiyalarning lingvistik mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog‘liq struktur-semantik xususiyatlar va ularning sintaktik tuzilishini aniqlashga qaratilgan qator muammolar ilmiy tadqiqot ishlarining obyekti bo‘lib kelmoqda. Ma’lumki, ilova hodisasi o‘zining ko‘p yillik tarixiga ega bo‘lgan grammatik hodisa hisoblanadi, u tilshunoslik fani doirasida muhim va nisbatan kam o‘rganilgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Aytish lozimki, ko‘p hollarda ushbu muammo va uning bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab xususiyatlar asosan grammatik nuqtai nazardan tadqiq qilingan, ammo unga bog‘liq bo‘lgan strukturaviy, semantik, tipologik, fonetik va boshqa xususiyatlar matn doirasida juda kam talqin qilingan. Tadqiqot obyektiga tizimli yondashuv asosida ilova konstruksiyalarni badiiy matn doirasida struktur-semantik tahlil qilish, ular ma’nosining matnda ifodalanish zaruratining yuzaga kelishi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligidan darak beradi.

Demak, tilshunoslikda keng ko‘lamda o‘rganilayotgan ilova konstruksiyalari o‘ziga xos sintaktik hodisa bo‘lib, ular qo‘shimcha ma’no berish sifatida yuzaga kelgan ifoda funksiyasini bajarib keladi, ular strukturasi ko‘ra tilshunoslikda qabul qilingan atama

“ilovalı element” deb ataladi. Ta’kidlash kerakki, shu ilovalı element asosiy ifoda (asosiy gap) ma’nosini to’ldirib, kengaytirib, aniqlashtirib, rivojlantirib keladi, ushbu ma’noni ma’lum darajada izohlab beradi. “Bunday sintaktik strukturalar odatda ikki qismdan iborat bo’ladi, birinchi qism asosiy axborotni, ikkinchisi esa qo’shimcha xabarni ifodalab keladi” [1; 403-404]. Ushbu strukturalar ma’lum vazifalarda qo’llanilishini belgilaydi, bunday konstruksiyalar yordamida so’zlovchining ongida va uning nutqida asosiy gapdan keyin, asosiy fikr anglashilgandan keyin paydo bo’ladigan qo’shimcha ma’no beradigan ifoda keltiriladi.

Ilovalı elementlar matnni to’ldiribgina qolmasdan, balki ularni yangi-yangi tomondan boyitadi, kengaytiradi, chunki bu erda ilova qurilma uzluksiz, murakkab va uslubiy qurilma ekanligi o’z ifodasini topadi va uning tarkibida frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalarining qo’llanilishi imkoniyatini beradi [2; 9 – 19-b.].

Nemis tilida frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalari ilovalı elementlar sifatida matnlar doirasida xilma-xil stilistik funksiyalarni bajarib keladi: umumiylikni konkretlashtirish vositasi; biron-bir komponentning tushirib qoldirilishi; perifraz; takror vositasi; antiteza; o’xshatish, so’z tarkibi, sinonimiya va boshqalar.

Ilovalı elementlarga xos bo’lgan stilistik funksiyalardan biri – bu umumiylikni konkretlashtirishdir.

Sie zogen in die Stadt um, mit Kind und Kegel [4; S.113].

Mazkur misolda ilovalı elementlar ma’lum bo’laklarning mazmunini konkretlashtirib, shaxslarni aniqlab kelmoqda. Bu erda qo’llanilgan ilovalı elementlar kishilarning qarindoshligini aniqlab kelmoqda.

Odatda obrazli so’z va so’z birikmalari shaklida ifodalanib kelayotgan ilovalı elementlar tasvirlanayotgan hodisani kitobxonning chuqur anglashi, idrok qilishi uchun xizmat qiladi. Natijada ular tasviriy vositalarning turli xil stilistik usullarda kela oladi.

So sollten uns zwei beide einmal die Weiber sehen, den großmächtigen Oskar und den kleinen, armen Hansjörg [3; S.171].

Bu yerda ilovalı elementlarning ma’no xususiyatlari ma’lum bo’laklarning ma’no xususiyatlariga emas, aksincha ilovalı elementlarning birining ma’nosiga qarama-qarshi qo’yiladi.

Ilovalı elementlarning ma’lum bo’lakka yoki gapning biron-bir komponentiga nisbatan bajarib kelayotgan bunday stilistik funksiyalari boshqa tasviriy vositalarda ham takrorlanishi mumkin.

Ilovalı elementlar ma’lum bo’laklarga yoki butun gapning mazmuniga nisbatan takror vositasining turli xil shakllarida ifodalanib kelishi mumkin. Takroriy usullar yordamida yuzaga keluvchi har qanday ilovalı element o’z tabiatiga ko’ra tasviriy vositalar hisoblanadi va matn doirasida xilma-xil stilistik funksiyalar bajarib keladi [5; 281-b.]. Ilovalı elementlar ma’lum bo’lakka nisbatan oddiygina takrorlanib qolmasdan, o’zining unga nisbatan vazifasini ham o’zgartiradi.

Gesetz den Fall, die Alarmanlage fällt aus, was passiert dann? Und gesetzt den Fall, Tuzzi betrüge sich sogar human und der Skandal bliebe aufs kleinste beschränkt... [6; S.501].

Yuqoridagi misolda ilovali elementlar takroriy prinsip asosida namoyon bo'lmogda. Har qanday takror aniq bir vazifa bajarib keladi, odatda, takrorlanuvchi qism oddiygina takrorlanibgina qolmasdan, balki o'zining vazifasini ham o'zgartiradi. Natijada takrorlanuvchi qismning, ya'ni ilovali elementning ta'sirchanligi oshadi. Kitobxonning diqqat e'tibori ana shu takrorlanib keluvchi qismga qaratiladi. Takrorlanib keluvchi ilovali element oddiygina takrorlanib qolmasdan, balki u leksik-grammatik vositalar yordamida kengaytiriladi, natijada u tomonidan ma'lum bo'lakka nisbatan bildirilayotgan qo'shimcha ma'noning ham hajmi kengayadi.

Demak, frazeologizmlar va tasviriy vositalarning ilovali elementlar funksiyasida kelishida, ularning ma'lum bo'lakka nisbatan bildirayotgan qo'shimcha ma'nolari bilan birgalikda gap tarkibida bajarib kelayotgan sintaktik funksiyalarining o'zaro almashuvi ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ba'zi hollarda frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalari bilan ifodalangan ilovali elementlar tomonidan ma'lum bo'laklarga nisbatan boshqarib kelinayotgan stilistik funksiyalarning doirasi kengayishi mumkin. Natijada ularning tarkibida tasviriy vositalarning bir nechtasi ishtirok etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalari bilan ifodalangan ilovali elementlar ma'lum bo'lakka nisbatan bildirib kelinayotgan qo'shimcha ma'no bilan bir qatorda gap tarkibida o'ziga xos sintaktik-stilistik vazifalarni ham bajarib kelishini ta'minlaydi va semantik jihatdan, ilova konstruksiyalar tilda qo'shimcha ma'no ta'kidlash, ma'no mazmuni to'ldirish, aniqlashtirish funksiyalarni bajarib keladi. Ular semantik birliklarni hosil qilishida ishtirok etib, mazkur vazifalarni o'zaro bog'liqlikda amalga oshirishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Бегматов М.Б. Иловали элементларнинг матнда ифодаланиши. Таржима, ахборот, мулоқот-сиёсий ва ижтимоий кўприк. Халқаро илмий амалий анжуман материаллари. – Самарқанд. 2018, 403-404 б.
2. Бушуй А.М., Зияева С. Ажратилган сўз бирикмаси немис тили синтактик сатҳда деривацион ҳодиса сифатида. Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. -Самарқанд: СамДЧТИ, 2004, 3(12). -б. 9-19
3. Feuchtwanger Lion. Narrenweisheit oder Tod und Verklärung des Jean- Jaques Rousseau. Aufbau - Verlag, Berlin, 1953. - 442 S.
4. Kühn, August: Zeit zum Aufstehen. Frankfurt a. M.: S. Fischer Verlag, 1975.
5. Moskalskaja O. I. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. -М., 1983. -344 S.
6. Musil, Robert: Der Mann ohne Eigenschaften. Reinbek: Rowohlt Verlag, 1960. – EA 1930–43.3 Bände.

МАЪНО, ЎЛЧОВ БИРЛИКЛАР ЁРДАМИДА ҲОСИЛ БЎЛАДИГАН СЕМАНТИК ҲОСИЛА

С.Саримсоқов.

СамДЧТИ катта ўқитувчиси

Ф.Мерлан феъл маъноларининг тиллараро ўзаро боғлиқлигини ноаккузативлик ва ноаниқлик билан ўрганган [Merlan, 1985]. Ҳар доим эргатив бўлмаган феъл маънолари синфи (аниқ агенс феъллар) ва аккузатив бўлмаган феъл маънолари синфи тил структурасига қараб иккала томонини олиши мумкин. Инглиз тилида бу каби феъл маъноларининг алоҳида синфи мавжуд. К.Розен таъкидлашча, *to die* феъли инглиз тилида ноаккузатив, италян тилида эса ноаниқ, *sweat* эса инглиз тилида ноаниқ, италян тилида эса ноаккузативдир [Rosen, 1984]. Жумладан, Ф.Мерлан 'cough', 'sneeze', 'shout', ва 'breathe' маъноларини англатувчи феъллар инсон тана фаолияти ва функциясини англатаишини таъкидлайди. Ушбу феъллар субъектив равишда флектив (unergative) бўладими ёки йўқлигини олдиндан айтиб бўлмайди ёки объектив равишда эгувчи (unaccusative) феъллар гуруҳи таркибига киради [Merlan, 1985; 348]:

Иккала таркиб ҳам бир хил темпорал тузилишга ишора қилади; вақт ўтиши билан ҳодисанинг ўлчовига, темпорал чегарасига эга бўлади. Бирок, феълнинг ички аргументи ўртасида ушбу аспектуал тузилмани бўлишнинг турли усулларини кодлайди, масалан: PATH, TERMINUS, MEASURE таркиби ҳодисанинг охири ўлчовнинг қолган қисмидан ажратилиши мумкинлиги билан фарқ қилади; Ҳолбуки, MEASURE таркибида terminus кўпроқ ўлчов билан боғланади. [PATH, TERMINUS] таркиби одатда ҳаракат феъллари билан боғланади, бу ерда ўлчаш шкаласи масофада амалга оширилади. Бу ҳаракат феълларининг махсус бўлишининг бир қанча усулларидан биридир [Tenny, 1993].

MEASURE ва PATH, TERMINUS таркиби ҳодисани ўлчашда предикат ва ички аргумент ўртасидаги турли хил меҳнат тақсимотларини ифодалайди. Ўлчовнинг вақтинчалик тузилиши бу аспектуал функцияларни белгилайди. Шунинг учун аспектуал функциялар воқеа-ҳодисани асосини белгилайди. Аспект функцияли аргументлар аспект феъллар билан боғланади. Аспектуаллик, феъл ибораси билан боғлиқ лексик маълумотларни ўз ичига олади.

Тилшуносликда ўрнатилган тематик роллар сингари, аспектуал рол ҳам табиий тил предикатлари томонидан тасвирланган воқеалар, ҳодисалар ва иштирокчиларининг ҳаракатини номлайди. Предикатга *agents* вазифасида бериладиган восита воқеликни фаол “doer”ни, бажарувчисини номлагани ва *instrument* бу “doing”да қўлланиладиган нарсани ва *patient* ҳаракатнинг пассив қабул қилувчисини номлаганидек, MEASURE ҳодисани ўлчайдиган миқдор ёки параметрни таъминловчи иштирокчини номлайди. MEASURE каби аспектуал рол ҳодисанинг ички темпорал тузилишида муайян, тушунарли тарзда иштирок этувчи феълнинг аргументини номлайди. Феъл ўз аргументларига тайинлаш учун аспектуал роллар

тўпламига эга ва боғлаш тамойиллари аспектual ролларни синтаксисга жойлаштиришни бошқаради. Ҳар қандай турғун бўлмаган феълнинг аспектual роллари олинган дискрет, аниқ идентификация қилинадиган аспектual ролларнинг кичик чекланган тўплами мавжуд. Аммо тематик ролли ҳолатдан фарқли ўларок, MEASURE, PATH or TERMINUS аспектual роли деганда нимани англитишини тушуниш жуда аниқ ва тематик ролга қараганда аниқроқ белгиланиши мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, аспектли роллар аспектни номинал ва вербал сифат сифатида ифодалашнинг асосий босқичини олади.

Аспектual роллар предикатларнинг лексик-семантик хоссалари бўлиб, предикатнинг аспектual тузилишга қўшган ҳиссасини ифодалайди, лекин улар феъл ва унинг далиллари ўртасидаги муносабатни, шунингдек, аргументнинг предикат семантикасини фаоллаштирувчи вазифани бажаришга боғлиқ эканлиги кузатилади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Merlan F. Split Intransitivity: Functional Oppositions in Intransitive Inflection. In Grammar Inside and outside the Clause. Cambridge University Press, -P. 324-362

2. Rosen C. The relational structure of reflexive clauses: Evidence from Italian. Cambridge, MA: Harvard University Ph.D. dissertation. 1981.

3. Rosen C. The interface between semantic roles and initial grammatical relations. In David M. Perlmutter and Carol Rosen (eds.), Studies in Relational Grammar 2. Chicago, IL: University of Chicago Press. 1984. –P 38–80.

4. Tenny C. L., Aspectual roles and the syntax–semantics interface. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1994. p.245.

O‘ZBEKISTONDAGI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA KOREYS TILI O‘QITILISHNING YO‘LGA QO‘YILISH BOSQICHLARI.

M.U.Kamarova. SamDCHTI o‘qituvchisi,
I.Z.G‘afforova. SamDCHTI talabasi

Abstract: This article provides information on the importance of teaching Korean as a second language in general secondary schools. Methodical recommendations for teaching the Korean language are also given.

Key words: Korean language, foreign language, South Korea, education system, FL program, English language.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Dunyo bo‘yicha samarali natija bergan o‘qitish metodikalari, dastur va darsliklar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumta‘lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta‘lim muassasalari va o‘quv markazlarida joriy etilmoqda. Xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalar, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy

tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarning mualliflik huquqlari xarid qilinib o'z mutaxassislari tomonidan amalda tadbiq qilinmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga doir axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot loyihalari ishlab chiqilmoqda. Hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontentlar yaratilmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitish va o'quvchi yoshlar bilimni hozirgi zamonaviy kommunikativ kompetensiya metodikalari, zamonaviy innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqarish va ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlariga erishish ham bugungi kun tartibidagi muhim jarayonlarga aylangan.

Maktabda ikkinchi chet til sifatida o'qitish uchun koreys tilining tanlanishi bejiz emas. Bu O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi tijorat va kasbiy hayotdagi hamkorlikning kuchayishi, shaxsiy harakatchanlikning o'sishi, koreys madaniyati bilan aloqalarni kengaytirish, talabalar va o'qituvchilarning o'zaro almashinish imkoniyati bilan izohlanadi.

Respublika ta'lim markazi va Koreya Respublikasi elchixonasi huzuridagi Koreya Respublikasi ta'lim markazi o'rtasida 2021-yilning 8-avgust kuni "O'zbekistonda koreys tilini o'qitish bo'yicha o'zaro hamkorlik memorandum"ini imzolagan edi. Bu haqda Markaz Matbuot xizmati xabarida bir necha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, koreys tilini o'qitish bo'yicha yangi o'quv dasturini ishlab chiqish, dastur asosida darsliklar yaratish hamda koreys tili o'qituvchilari tayyorgarligini oshirishdan iborat vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Hozirda mazkur hamkorlikning birinchi bosqichi sanalgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonlari davom etmoqda. Dasturni ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan ishchi guruh rahbari Farg'ona shahridagi O'zbekiston Koreya xalqaro universiteti professori Ji Mun Gon etib belgilangan.

Ma'lumki, yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorga muvofiq, "Koreya Respublikasi ta'lim markazi" bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan jarayonlar ham qarorda belgilangan talab yuqori bo'lgan kamida o'nta xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat vazifalar ijrosini amalga oshirish bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi haqida muzokaralar olib borildi.

Bu haqda Respublika ta'lim markazi direktori Shuhrat Sattorov: "Koreys tili ham O'zbekiston maktablarida o'qitilishi kerak bo'lgan 10 ta eng muhim xorijiy tillardan biri hisoblanadi. Ayni shu jihatdan olib qaraganda, bizda koreys tilini ham O'zbekistonda ingliz,

nemis, fransuz tillari darajasida, ko‘plab umumta’lim maktablarida asosiy xorijiy til sifatida o‘qitish imkoni bor. Biroq, biz eng avvalo, koreys tiliga bo‘lgan ehtiyojni, mehnat bozorini o‘rganamiz, bolalarining chet tilini o‘rganish borasidagi ota-onalar fikrlari bilan tanishamiz. Keyin shunga qarab koreys tili asosiy xorijiy til sifatida o‘qitiladigan maktablar ro‘yxatini shakllantiramiz. O‘zbekistonda rus, ingliz, nemis, arab-fors tillarini o‘rgatishga ixtisoslashtirilgan maktablar bor. Umid qilamanki, kelajakda koreys tilini o‘qitishga ixtisoslashgan maktablar ham ko‘p bo‘ladi”, — deya ta’kidlagan edi. Oradan ikki yil o‘tar o‘tmas, bu sa’y-harakatlar o‘z natijasini asta-sekin ko‘rsatmoqda. Vazirlik ma’lumotlariga ko‘ra, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining 94 foizi ingliz tilini o‘rganmoqda. Muassasa yangi o‘quv yilidan boshlab, umumta’lim va ixtisoslashgan maktablarda, shuningdek, maktab-internatlarda (beshinchi sinfga boradigan o‘quvchilar uchun) ingliz tiliga qo‘shimcha ravishda ikkinchi chet tili tariqasida nemis, fransuz, koreys, xitoy, yapon, arab, fors, hind va boshqa xorijiy tillarni joriy qilishni taklif etmoqda. Bu taklifga binoan ushbu tillarni samarali o‘qitish uchun darsliklar o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda.

Xalq ta’limi boshqarmalari joriy yilning mart oyi o‘rtalariga qadar, mamlakatdagi har bir maktabning ikkinchi chet tilini joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilib chiqishi va bu haqda vazirlikka hisobot berishi kerakligi to‘g‘risida ham axborot tarqatilgan. Bu axborotning isboti sifatida koreys tilini ikkinchi til sifatida O‘zbekistonning bir nechta maktablarida bosqichma bosqich o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda. Xususan, hozirgi kunda Buxoro viloyati Buxoro shahri 42-sonli umumta’lim maktabi, Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani 18-sonli umumta’lim maktabi, Namangan viloyati Namangan tumani 22-sonli umumta’lim maktabi, Xorazm viloyati Urganch shahri 30-sonli umumta’lim maktabi va Toshkent shahri Shayxontohur tumani 59-sonli umumta’lim maktablarida ingliz tiliga qo‘shimcha tarzda ikkinchi chet tili sifatida koreys tili ham o‘qitilayapti.

Globalashayotgan davrda zamonaviy texnologiyaga oid bilimlardan keyingi e’tibor qaratilayotgan sohalaridan biri taraqqiyot va xalqaro biznes amaliyotlari uchun ko‘prik vazifasini o‘taydigan chet tilidir. Chet tilini o‘rganish bu olam bilan tanishish demakdir. Odam qaysidir tilni o‘rgansa, o‘sha tilda gaplashuvchi xalqning madaniyatini ham o‘rganadi. Bu o‘z o‘zidan insonning ongini shakllantiradi va tasavvurini boyitadi. Koreys tilini o‘quvchilarga qay usulda yetkazib berish bu har bir pedagogning metodikasiga bog‘liq. Koreys tili o‘qituvchisi sinfdan muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun albatta o‘rganiladigan ma’lumotlarni qiziqarli va esda qolarli usullarda o‘qitishi kerak. Ijodiy va interfaol usullardan foydalanish tavsiya etiladi, chunki ular chet tilini o‘rganish bilan bog‘liq to‘siqlarni yengishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia resurslari o‘yin-kulgi vositasi bilan bir qatorda akademik strategiya sifatida ham foydalanish mumkin. Va nihoyat, chet tilini o‘qitishni kontekstualashtirish o‘qituvchilar va o‘quvchilarning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarori

2. “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan Xalq ta’limi vazirligiga Xalq ta’limi sohasidagi islohotlar.

3. Kamarova M.U. “Koreys tilining xorijiy til sifatidagi ta’lim siyosati va koreys tilining tarqalishiga sababchi omillar”, So‘z san’ati xalqaro jurnali, 2-son, 2023.

4. Kamarova M.U. “우즈베크어와 한국어 파생법 관련 논문 사례 연구”, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.

5. Kamarova M.U. “Janubiy Koreyaning oquv jarayonidagi “kompetensiya” atamasining mohiyati va oquv dasturida foydalanilishi”. Miasto Przyszłości, Vol.42, 2023, 249–252.

6. Ancho, I. (2019). Learning Korean as a Foreign Language. Human Behavior, Development and Society, 20 (2), 74-81.

7. Ng, S. L., Wright, S. R., & Kuper, A. (2019). The divergence and convergence of critical reflection and critical reflexivity: implications for health professions education. Academic Medicine, 94 (8), 1122-1128.

8. Ross, A. F., & DiSalvo, M. L. (2020). Negotiating displacement, regaining community: The Harvard Language Center's response to the COVID-19 crisis. Foreign Language Annals, 53 (2), 371 – 379.

KOREYADA XX ASRNING 20-YILLARIDA NATURALIZMNING BADIY ADABIYOTDA TUTGAN O'RNI.

U.Elmuratova. Koreys tili o‘qituvchisi,

O. O‘rinova. Koreys tili talabasi.

Annotatsiya: *Maqolada XX asrning 20-yillariga kelib mustamlaka siyosati kuchayishi hamda bu siyosat nasrning realistik tendensiyalarning kuchaygani, oddiy xalqning hayotiga chuqur kirib borilishi haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *naturalism, realism, diterminizm, Parij kommunasi, idealizm, Yevropalashuv, mustamlakachilik.*

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmi Koreya tarixining eng og‘ir davri bo‘lib, bu davr mamlakatning Angliya, AQSH, Yaponiya, Fransiya, Rossiya kabi dunyoning eng buyuk davlatlari tomonidan bosib olinishi, mamlakatda yapon prorektorati o‘rnatilib(1910-yil), uning yapon istilochilari tomonidan bir necha o‘n yilga zabt etilishi(1910-1945-yillar) va buning oqibatida davlatning ikkiga: Shimoliy va Janubiy qismlarga bo‘lib yuborilishi(1948-yil) bilan tavsiflandi.

Yapon mustamlakasi davrida nasrning 1920-yillarida **Naturalizm** 자연주의-romantizmga qarama-qarshi bo‘lgan adabiy yo‘nalish. Kinoda bo‘lgani kabi, nasrning shaklsiz sifati va moslashuvchanligiga qaramay, adabiyotda naturalizm keng tarqalgan ko‘rinishdir. Kino taqdim etayotgan aniq vizual tasvirdan farqli o‘laroq, nasr boshqa ko‘plab shakllarga imkon beradi. Naturalizm, shu nuqtai nazardan, realizmning bir shoxobchasi bo‘lib, 19-asrda Koreyada va boshqa hududlarda ko‘zga ko‘ringan adabiy

oqimdir. Naturalizm - dunyodagi barcha hodisalar va ularning o'zgarishining asosiy prinsipi tabiatda (materialda) yotadi, deb hisoblaydigan adabiy yo'nalish. XIX asr oxirida Fransiyada vujudga kelgan adabiy yo'nalish sifatida u ba'zan realizm bilan aralashib ketadi, chunki u realizmga asoslangan idealizmga qarshi turadi. Biroq u pozitivizmdan determinizmga, ayniqsa, ilmiy eksperimental kuzatishga urg'u berishi bilan farq qiladi. Koreyada u 1910-yillarda Yaponiya orqali kiritildi va ba'zi rassomlar va asarlar paydo bo'ldi. Biroq, u realizm bilan qattiq aralashish, vaqt yoki tendentsiyalarning o'zgarishi jarayonini farqlashda qiyinchilik, biologik inson qarashlari va determinizmni falsafiy idrok etishning to'liq emasligi bilan tavsiflanadi.²⁰

XIX asr o'rtalarida g'arbda naturalizm unsurlari kuzatiladi hamda XIX asr oxiri XX asr boshlarida koreyaliklarning G'arb madaniy yutuqlari bilan tanishishlari ulkan rol o'ynadi. Ma'rifatchilarning qizg'in faoliyati Yevropacha bilimlarning koreyada tarqalishiga imkoniyat yaratdi. "Sirtidan o'rganish hamda ichdan takomillashish" shiorini ilgari surgan ma'rifatchilar ilg'or bilimlar, Yevropa madaniyati bilan oshno bo'lish va yuksak madaniy darajaga o'z mamlakati mustaqilligini saqlab qolishga yordam berishiga umid qildilar. Garchi bu qarashlar hayotda o'z tasdig'ini topmagan bo'lmasada, ma'rifatchilik harakati barham topgandan keyin ham Koreya ziyolilari uzoq yillar davomida bunga amal qilishdi. Koreys adabiyotida simvolizmi fransuz simvolizmi ta'sirida vujudga kelgan. Bu tasodifiy bir hol emas. O'z vaqtida Fransuz simvolizmining vujudga kelishiga Parij kommunasi mag'lubiyatga uchragandan so'ng Fransiyada vujudga kelgan umidsizlik va kelajakka ishonchsizlik vaziyati juda kuchli ta'sir ko'rsatgan edi. Fransuz madaniyatidagi bu hodisani tadqiqotchilar qayd etishlarisha, simvolistik poeziyaning mayus uning horg'in ohanglarida elegik intonatsiyalarida aks etgan. Bu mayuslikning bosh obrazi - O'lim. Simvolistlar uchun inson – taqdir qo'lidagi o'yinchoq. Fransuz yozuvchisi G.Flober ijodida naturalizm unsurlarini kuzatish mumkin, kichik shaharning berk muhiti G.Floberning "Bovari xonim" va N.V.Gogolning "O'lik jonlar" asarlarida voqealar joyi sifatida tanlandi. Shu holni Yem San Sopning "Ura!" qichqirig'i yangrashidan oldin" qissasida ham kuzatish mumkin. Bu qissada bosh qahramon sifatida oddiy inson tanlandi. G.Floberning "Bovari xonim" asarida naturalizmning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, Floberning odamga nisbatan shubha bilan qarashlari uning asarlarida ijobiy qahramonlar yo'qligida namoyon bo'ladi. Flober bu romanda burjua dunyosining manzarasi uning umidsizligi bilan ifodalanishini aytib o'tgan. Fransuz yozuvchisi G.Flober ijodida naturalizm unsurlarini kuzatish mumkin, adabiyotga E.Zolya kirib kelishi bilan naturalizm o'z falsafiy negiziga ega oqim sifatida uzil-kesil qaror topdi. Naturalizm tarafdorlari adabiyot materialni tanlash huquqiga ega emas, deb hisoblaydi. Shunday qilib, naturalizm adabiyot mavzulari doirasining kengayishida muhim rol o'ynadi, "dag'al haqiqat", ya'ni jamiyat quyi tabaqalari hayotiga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga ko'maklashdi.²¹

Koreys adabiyoti rivojlanish jarayonining idealistik estetikadan realistik estetikaga o'tish bilan bog'liq bo'lgan muayyan bosqichida oddiy hayot, hayotning o'ta soddaligi tasvir predmetiga aylandi. Shaxsning muhitga to'la bo'ysunishini tasvirlash koreyalik

²⁰ Le Naturalisme Francias-(1870-1859)Pierre Martino(Armand Colin, 1965)

²¹ O'MK- 2020 165-bet

yozuvchilarga anneksiya qilingan mamlakatda insoniy munosabatlarning moddiylashuvini, inson boshqa odamlar bilan aloqalarini yo'qotganini va uning mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir emasligini ko'rsatishga yordam berdi.²²

Koreyaning Yaponiya boshqaruvida bo'lishi natijasida yarimorolda kapitalistik tizim vujudga keldi bu esa XIX asrda g'arbda kuzatilgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni shakllantirdi. Shu sababli shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati dolzarb muammolardan biri edi. O'sha davr yozuvchilari vatandoshlarining qiyin holati, jamiyatning quyi va o'rta tabaqasining og'ir ahvolini aks ettirishgan, o'z g'ururi va milliyligini saqlab qolishga intilishgan. Fermerlarning hayoti ko'pincha ayanchli tasvirlangan. Yaponiya hukumati kuchaygan sari mafkuraviy 30-yillar davomida majburlash, koreys adabiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrning ko'plab romanlari yangi adabiy uslub va uslublari bilan tajriba o'tkazdi. Koreys adabiyotida birinchi bo'lib adib Yom Samson shaxs ruhiyatini o'rganishga harakat qilib 1921-yilda shu ruxdagi "Tajriba qurbaqasi" hikoyasini nashr ettirdi. Bu hikoya o'z mustaqilligini yo'qotgan davlatni tushkunlik va tartibsizlik egallagani haqida bo'lib, muallif bosh qahramonini laborotiyada tajriba qilinadigan qurbaqa o'z taqdirini kutayotgani kabi ifolangan. Davlat ikkiga bo'lingach Yom Samson janubda fuqarolik urushi oddiy odamlarning kundalik tashvishlari to'g'risida asarlar yozdi. Ularning teran tahliligina odamlarga teran hayotning ikir-chikirlarini anglab yetishiga yordam berar edi. Koreya adabiyotida shaxs va jamiyat o'rtasidagi kelishmovchilik mavzusiga Xyon Jingon bir necha bor murojaat etgan bo'lib, uning barcha qahramonlari jamiyatda o'z o'rnini topishga, ozodlikka erishishga o'rinlashgan. Uning "Omadli kun"(1921) hikoyasida juda tez rivojlanayotgan dunyoga o'zining eski riksha(arava)si bilan yetolmayotgan rikshachi tasvirlangan. Yana bir mashhur yozuvchi Kim Doninng "Bir savat batat" asarini bunga misol qilib keltirishim mumkin. Hikoyaning markazida Ponne ismli qizning taqdiri yotadi. Ilk boshdan muallif fojiviy vaziyatlar – "o'ziga to'q" dehqonlardan chiqqan va honavayron bo'lgandan keyin shaharning qo'qinchli xarobalarida yashagan ota onasining ayanchi ahvoliga asosiy e'tiborini qaratdi. O'n besh Yoshida Ponne bir qari bo'ydoq erkakka 18 ming von evaziga sotiladi, ammo u odam tanballardan biri edi. Oila qashshoqlikda yashaydi va Pxenyanga ko'chib ketishga qaror qiladi. U yerda Ponne tilanchilik qilishga majbur bo'ladi va ipak qurti boquvchining yoniga mardikorlikka o'tadi. Bir kuni Ponne kartoshka o'g'irlayotganda Van ismli xitoylik uni tutib oladi va Ponne unga o'ynash bo'lishga majbur bo'ladi, ammo xitoylik Van boshqa qizga uylanishini bilib qo'lga o'roq olib u qizning yoniga borib uni rosa do'pposlaydi, u Vanni ham o'ldirmoqchi bo'ladi lekin Van uni qo'lidan o'roqni olib Ponneni o'ldiradi. Yozuvchi inson taqdirining qanday oson barbod bo'lishini, ijtimoiy chirkinliklarni ko'rsatib bera olgan. A.N.Ten shunday yozadi: "Kim Donin E.Zolyaning naturalistik estetikasida belgilangan holatlarni to'la ro'yobga chiqargan. Shunga ko'ra voqeilik fragmentlarini qanday bo'lsa shundayligicha tahlil etgan. "Bir savat batat" hikoyasida kulba ahli hayoti haqqoniy ravishda aks ettirilgan.²³

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki Koreyani Yaponiya tomonidan anneksiya qilinishi, 1919-yil 1-mart harakatlari natijasida 1920-yillar nasrida iste'dodning yanada

²² Тэн А.Н. Очерки корейской литературы XXвека (до 1945 г.).–Сеул,2003. –С.82.

²³Тэн А.Н. Очерки корейской литературы XXвека (до 1945 г.).–Сеул,2003. –С.82.

kuchayishini va Parij kommunasiga asoslangan simvolistik tendensiyalar(o‘lim)ni ilgari surilganligini ko‘rishimiz mumkin. 1920-yillar nasri va nazmida naturalizm oqimining kirib kelishi, yozilgan asarlarning fojiaiy yakun topishi, jamiyatda bo‘layotgan jarayonlar bilan bog‘liq holda realistik unsurlar orqali ochib berilgan.

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA QARINDOSHLIK TERMINLARINING BERILISHI

M.M. Qobilova.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Dunyodagi har bir tilning lug‘at boyligi jamiyatning madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy jabhalari taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq holda shakllanib, rivoj topib boradi. Ushbu maqolada qarindoshlik terminlarining izohli lug‘atlarda berilishi va uning xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: termin, shaxs, til, qavm, qarindoshlik, ijtimoiy muhit, lug‘at

Tilning boyligi, uning imkoniyat darajasi leksikasi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jihat izohli lug‘atlarda aks etadi va ahamiyati ham yuqori baholanadi, chunki izohli lug‘at o‘zbek tilining lug‘at boyligini ifodalovchi mukammal lug‘at sanaladi.

Har doim shaxs va uning tili masalasi yuqori o‘rinlarda turgan. Bu holatni o‘zbek tilining izohli lug‘ati orqali ham ifodalash mumkin. Ushbu lug‘at tarkibiga kirgan leksik birliklarning yuzaga kelishi, ma‘no tarkibining shakllanish asoslari turli omillar orqali yuzaga kelgan bo‘lib, bu borada shaxs omili yetakchilik qiladi.

Qavm-qarindoshlik bilan bog‘liq so‘zlar juda qadimdan mavjud. O‘zbek tilshunosligida dastlab, B.O‘rinboyev bu borada tadqiqot olib borgan bo‘lsa, 1966-yilda I.Ismoilovning “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” [I.Ismoilov 1966;] monografiyasi yaratildi. Ushbu monografiyada turkiy tillar uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman, o‘zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari qiyosan o‘rganilgan. “Qavm” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “xalq”, “kishilar to‘dasi, guruhi” kabi ma‘nolarni bildiradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zning to‘rt ma‘nosi keltirilgan:

1. Bir avloddan tarqalgan, o‘zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘langan kishilar birlashmasi:

2. Bir masjidida ibodat qiluvchi kishilar, bir masjidning namozxonlariva ulardan biri;

3. Kishilarning ma‘lum bir ish va boshqa jihatdan bo‘lgan birligi, guruhi, toifa;

4. “qatorida” manosida [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2006-2008; III tom 201]

Qarindosh “tug‘ishgan kishi”, “biror ajdodga mansub kishilarning bir biriga nisbatan” kabi ma‘noni ifodalab, qadimgi turkiy tilda ham shu kabi ma‘nolarni anglatgan.

Shaxs sotsial belgilarini ko‘rsatuvchi leksik vositalar orasida qarindoshlik jihatiga ko‘ra xoslangan leksik birliklar ham alohida xususiyatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Jumladan. *Avara, dada, aka, amaki, amakivachcha, amma, ammaychcha, acha, bekach, bibi, bobo, boja, buvi, bo‘la, volida, domod, yazna, jiyan, zavj, zavja, ichkuyov,*

kelin, kelinoyi, kuyov, momo, nabira, ovsin, ona, opa, ota, padar, pochcha, singil, rafıqa, o'g'il, qiz, xola, qaynona, qaynaka, yanga va shu kabilar.

Qarindoshlik sotsial tipi “oraliq uchinchi” tabiatlidir. Chunki qarindoshlik tipi bo'lgan ota “erkak” biologik tipi asosida shakllangan “er” sotsial tipining bir qirrasidir. Undagi “erkak”lik sifati zotiy bo'lib, “er” yoki ota sotsial sifati uning orttirilgan sifati hisoblanadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- zotiy sotsial belgilar;
- zotiy va orttirilgan sotsial belgilar;
- orttirilgan sotsial belgilar.[D.Hasanova 2022; 84]

O'zbek tilida keng qo'llaniladigan ona so'zi adabiy til uchun xizmat qilish bilan birga, o'zbek tilining dialekt va shevalarida ana, ena, aba, acha, aya, eba, opa, buvi tarzida qo'llanadi. Bu kabi misollarni bir nechta keltirishimiz mumkin. O'zbek tilida qarindoshlik terminlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- Qon-qardoshlik terminlari: *ota, aka, singil, uka, opa, amaki, amakivachcha, jiyan, momo, bobo, qiz, o'g'il, xola, tog'a, xolavachcha, tog'avachcha* va hokazo

- Nikohdan keyin paydo bo'ladigan qarindoshlik terminlari: *boja, pochcha, kuyov, kelin, qaynona, qaynota, qaynopa, qaynuka, qaynsingil, kelinoyi, rafıqa, ovsin, xotin, zavj, zavja, ichkuyov* va hokazo

Mazkur guruhlar va ularning mansub leksik birliklarning o'ziga xos belgi xususiyatlari, xoslanishga ta'sir ko'rsatuvchi sabab va omillar hamda ularning leksikografik talqinlari davom ettiradigan bo'lsak, qon-qardoshlik terminlari inson umrining bolalik davridan nikoh davrigacha va undan so'ng ham davom etadi. Bu shaxsning ijtimoiy muhit bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Qon-qardoshlik terminlarining murojaat shakllari hududiy jihatdan qo'llanishida ham ayrimlari farq qiladi. Masalan, shevalar, oilaviy muhit ta'sirida ham shaxsning nutqida ushbu leksikaning qo'llanishi, xoslanishi kuzatiladi. Bu holat ham umumiylik va individuallik nisbatiga ko'ra farqlilikni keltirib chiqaradi. [R.Cho'lliyev 2023; 208] Ba'zi hududlarda *tog'a, amma, aya, dada*, ayrim hududlarda *amaki, opoqi, aka, jiyan* kabi qarindoshlikni ifodalovchi birliklar murojaat shakllari sifatida qo'llanishi va xoslanishi yetakchilik qilishini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qarindoshlik terminlari shaxsning ijtimoiy muhitiga bog'liq bo'lib, zotiy va orttirilgan turlarga bo'linadi. Shaxsning sotsial sifatlari tarbiya, shaxsiy omillar va muhit asosida rivojlanib, o'zgarib boradi. Qarindoshlik terminlari yillar davomida shakllanadi va shaxsning ijtimoiylashuvi natijasida rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Ismoilov. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik teminlari. – T. Fan. 1966.
2. “O'zbek tilining izohli lug'ati” III tom. 2006-2008
3. Hasanova D. “O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari” doktorlik dissertatsiyasi. Qo'qon 2022.
4. Cho'lliyev R. “Abdulla Qodiriyning kichik prozaik asarlarida qo'llangan qavm-qarindoshlik terminlari”. Analytical Journal of Education and Development. 4/2023

СТРУКТУРА И СЕМАНТИКА СЛОЖНОСЛОГОВЫХ АББРЕВИАТУР АНГЛИЙСКОГО, РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

И.Р.Авьясова

Старший преподаватель Ж ГПУ.

Эта статья представляет собой сравнительный анализ структуры и семантики сложнослоговых аббревиатур в английском, русском и узбекском языках. Исследование основывается на анализе лингвистических особенностей аббревиатур, их функциональном значении, а также культурном контексте их использования. Целью исследования является выявление общих и различающихся аспектов в структуре и семантике аббревиатур этих трех разнообразных языков.

Ключевые слова: аббревиатуры, структура, семантика, слоговые сокращения, сложнослоговые сокращения, терминология

Аббревиатуры являются важной частью языковой экономии и эффективности, позволяя сокращать длинные или часто используемые термины. В английском языке, как и в русском, аббревиатуры широко распространены в различных областях, от академических до повседневных. Узбекский язык, принадлежащий к тюркским языкам, также использует аббревиатуры, но с определенными культурно-специфическими особенностями.

В целом, изучение структуры и семантики сложнослоговых аббревиатур в английском и узбекском языках открывает интересные перспективы для понимания как языковых, так и культурных особенностей данных языковых групп.

В отличие от слоговых сокращений, которые образуются на базе одного знаменательного слова (чаще всего - существительного), сложнослоговые формируются на базе словосочетания. Процесс их образования сопровождается *усечением* каждого (или большинства) из входящих в исходное мотивирующее словосочетание слов, а далее *сложением* получившихся отрезков в одно слово.

По А.Н. Елдышеву, сложнослоговые сокращения подразделяются на три типа:

1) *собственно-сложнослоговые сокращения*, включающие в свой состав начальный слог или слоги исходных единиц;

2) *сращения*, отличительной чертой которых является включение в структуру аббревиатуры финальной части слова.

3) *сложносокращённые слова*, включающие в свой состав наряду со слогом цельнооформленное слово или корневую морфему слова (**popmusic** = popular music).

Каждый из этих типов в зависимости от структурных особенностей и компонентов этих аббревиатур делится на подтипы, каждый из которых будет описан отдельно.

1) *Собственно сложнослоговые сокращения* - это такие аббревиатуры, которые включают в свой состав не менее двух слогов, представляющих разные полные слова, ср.: **syncom** = *synchronous communication* - 'синхронная связь'; **navsat** = *navigational satellite* - 'навигационный спутник'; **CARICOM**, *тж.* **Caricom** =

Caribbean Community - 'Карибское сообщество' **miloc тж. MILOC** = *military oceanography* - 'военная океанография'; **milcon тж. MILCON** = *military construction* - 'военное строительство'; **Mindef** = Ministry of Defence - 'Министерство обороны' (Великобритания); **robrep** = robbery report - 'донесение об ограблении'. Ср. *русск. профком* = профсоюзный комитет; *партком* = партийный комитет; **Минфин** = Министерство финансов; **сексот** = секретный сотрудник.

Такие аббревиатуры мы называем двухкомпонентными сложно- слоговыми. Они являются наиболее частотными в современном английском языке.

В большинстве случаев аббревиатуры этого типа изображаются на письме как обычные слова в соответствии с правилами правописания, существующими в английском языке, но иногда пишутся и заглавными буквами.

Сравнение трактовки аббревиатур в данном примере с их исходными словосочетаниями показывает, что в семантическом плане они практически совпадают, ср.:

Radeon = radiological control - 'радиологический контроль';

PERCOM тж. Percom = peripheral communication - 'периферийная связь';

peref тж. PEREF = personal effects - 'личные вещи';

solrad = solar radiation - 'солнечная радиация';

chansel = *channel* selection - 'выбор или переключение канала'.

Но имеются аббревиатуры, которые не совпадают или не совсем совпадают с исходными словосочетаниями. Так, аббревиатура **MINESPOL** образовалась из двух первых слогов **Ministers** 'министры' и **policy** 'политика', однако значение аббревиатуры значительно шире, оно обозначает не просто политику министров, а *англ. Conference of Ministers Responsible for Science and Technology Policy in the European and North American Region* - 'Конференция (ЮНЕСКО) министров, ответственных за научно-техническую политику в Европейском и Североамериканском регионах (ООН)'.

В ряде случаев сложнослоговые двухкомпонентные аббревиатуры семантически отличаются от исходных форм. Так, аббревиатура **Adidas**, обозначающая компанию по производству спортивной одежды и обуви, представляет собой сокращение (и сложение) имени и фамилии основателя компании Adi Dassler. Здесь происходит «совмещение импликационно- связанных понятий в одном слове, когда выражение данного понятия осознаётся как вторичная ономазиологическая функция слова уже 'занятого' каким-то другим понятием» [Никитин М.В.1974, 95]. Далее на базе ассоциации по смежности сформировалось метонимическое значение 'названия изделий-продукций этой компании'. «Метонимия - это выражение понятия словом, за которым в первичном распределении номинаций закреплено выражение иного понятия, связанного с первым импликационной зависимостью» [Никитин М.В.1974, 95].

Кроме рассмотренных здесь сложнослоговых двухкомпонентных аббревиатур в английском языке имеются и трёхкомпонентные:

milcomsat тж. MILCOMSAT = military communications satellite - 'военный спутник связи';

coenco тж. COENCO = Committee for Environmental Conservation - 'Комитет по охране окружающей среды';

vodacom тж. VODACOM = voice data communications (system) - 'система речевой связи';

milsatcom тж. MILSATCOM = Military Satellite Communications (System) - 'военная система спутниковой связи «Милсатком».

Ср. *русск. райпищеторг* = районная организация по *торговле пищевыми* товарами; *инфизкульт тж. ИНФИЗКУЛЬТ* = Институт физической *культуры*; *комсомол* = Коммунистический союз *молодёжи*.

Сравнивая результативные единицы с источниками их мотивации, мы наблюдаем в них вполне очевидную денотативную близость/тождество. Различие же их заключается в нетождественности их представления в единицах языка: в прототипе-словосочетании - отдельность, расчленённость; в аббревиатуре - слитность.

2) *Сращения*

Среди сокращений в нашем материале имеется своеобразный и неоднородный пласт аббревиатурной лексики, который характеризуется большой степенью спаянности компонентов вследствие их особой формы, наличия в их составе слова, а также применения различных способов их соединения.

Изучение работ, посвященных сращениям, показало, что авторы применяют разные критерии для отграничения их от других типов сокращений. Так, некоторые лингвисты включают в разряд сокращений только те единицы, «в состав которых входит усеченный конечный элемент слова, который сам занимает в образовании финальное положение» [Олексеенко М.П.1961, 275].

Сторонники противоположной точки зрения расширяют границы сращений, т.к. включают в число этих образований и единицы, инкорпорирующие цельное слово, без учёта места, занимаемого последним в структуре сокращения [Соколенко А.П. 1965, 18]; [Тимошенко Т.Р. 1976, 26].

Пожалуй, ни один из способов аббревиации не породил такого множества терминов, которые разные авторы применяли по отношению к сращениям, а именно: слова-телескопы (telescopes) [Лейчик 1966; Борисов 1972; Algeo 1975], словосложения-сокращения [Хахам 1967], контрактуры [Павлов 1970], сращения (blends) [Soudek 1967], гаплогические телескопные неологизмы [Тимошенко 1976], слова-гибриды, слитки [Мурадян, Воронин 1983], гибриды [Хомяков, Коровушкин 1983], сращения [Елдышев 1984], субморфемный уровень словообразования [Зятковская 1989]; слова-слитки, слова-стяжения, слова-портмоне [Algeo 1975; Заботкина 1989] и т.д.

В узбекском языке сложнослоговые аббревиатуры также образуются из начальных букв слов. Например, "O'ZDSt" (O'zbekiston Davlat Standartlari) означает "Государственные стандарты Узбекистана".

Семантика сложнослоговых аббревиатур в узбекском языке также зависит от контекста, в котором они используются. Например, "O'ZDSt" может относиться к конкретному стандарту или к системе стандартов в целом.

В обоих языках сложнослоговые аббревиатуры могут быть образованы не только из начальных букв слов, но и из первых слогов слов. Например, в английском языке "Interpol" (International Criminal Police Organization) и в узбекском "O'zstandart" (O'zbekiston standartlari).

Важно отметить, что в обоих языках сложнослоговые аббревиатуры могут иметь различные значения в разных контекстах, поэтому важно всегда учитывать контекст, в котором они используются.

Разнообразие терминологии лишь подчёркивает неоднородность и сложность для исследования этого типа аббревиатур. До сих пор остаётся проблематичным вопрос об отнесении сращений к сложным аббревиатурным образованиям.

Список использованных источников:

1. Борисов В.В. Аббревиация и акронимия. Военные и научно-технические сокращения в иностранных языках. М.: Воениздат, 1972. - с. 110-138, 152-182, 230-240.
2. Зятковская Р.Г. Статус словообразовательных компонентов в телескопии // Проблемы статуса деривационных формантов. Владивосток, 1989. 24-29с.
3. Лейчик В.М. Об одном малоизученном способе словообразования («телескопные слова современного французского языка») // Науч. докл. высш. шк. Филолог, науки, 1966. № 3.14-21с.
4. Мурадян А.Ю., Воронин СВ. Словослияние и аналогия // Проблемы пополнения словарного состава романо-германских языков: Межвуз. сб. научн. тр. / Отв. ред. Е.П.Чеснович. Л.: ЛГПИ, 1983. С. 3-10.
5. Никитин М.В. Лексическое значение в слове и словосочетании спецкурс по общей и английской лексикологии / М.В. Никитин. - Владимир: ВГПУ, 1974. – 94-96,222 с.
6. Олексенко М.П. О некоторых средствах и способах обогащения словарного состава // Ученые записки МГПИИЯ им. М. Тореца / Моск. гос. пед. ин-т ин. яз. 1961. - Т. 25. - 271-294с.
7. Соколенко А.П. Сокращения в английской научно-технической литературе: Автореф. канд. дис. Киев, 1965. 18 с.
8. Тимошенко Т.Р. Телескопия в словообразовательной системе современного английского языка: Автореф. канд. дис. Киев, 1976. 26 с.
9. Хомяков В.А., Коровушкин В.П. Особенности просторечной аббревиации в англоязычных терминосистемах // Особенности словообразования в терминосистемах и литературной норме: Сб. науч. тр. / Отв. ред. Б.И. Бартков. Владивосток: ДВНЦ АН СССР, 1983. 48-57с.
10. Хахам Л.А. Основные типы новообразования в современном английском языке и способы их перевода на русский язык [Текст]: дис... канд. филол. наук / Л.А. Хахам. – М., 1967. – 252 с.

11. Шафиков С.Г. Лексическая типология языков. – Уфа: РИО БашГУ, 2005. – 164 с.

12. Algeo, John, 1975. “The Acronym and its Congeners”, in Makkai, A. and Makkai V., (Eds.), 1975. The First LACUS Forum 1974. Columbia, S.C.: Hornbeam Press, 217-234.

13. Soudek L. Structure of Substandard Words in British and American English. - Bratislava, 1967.- 78, 102, 228, 464-465.

SON CHANG-SOPNING “YOMG‘IR YOG‘AYOTGAN KUN” ASARIDA PUNDAN MUNHAK VA EKZISTENSIALIMZ TASVIRI

U.M. Elmuratova, SamDCHTI o‘qituvchisi,
N.L. Xayrullayeva, SamDCHTI IV kurs talabasi.

Pundan Munhak - 1948-yilda Koreya bo‘linganidan keyin paydo bo‘lgan bo‘lingan xalq adabiyoti bo‘lib, ushbu adabiyotda Koreya tarixidagi dramatik voqealar, shuningdek, oilalar va odamlar bo‘linib ketgan og‘ir psixologik vaziyat aks ettirilgan. Son Chang-sopning “Yomg‘ir yog‘ayotgan kun” asari orqali millatning og‘ir ahvoli tasvirlangan. Bu asarda vatan sog‘inchi, oila munosabatlari, yaqinlarini yo‘qotish va birlashish umidlari kabi masalalar yoritilib berilgan. Bu mavzu millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan Koreya urushidagi fojiali voqealarni aks ettiradi.

Koreyada fuqorolar urushi (1950-1953) Koreya tarixidagi eng fojiali voqealardan biri edi. Bu millionlab odamlarning o‘limiga, infra tuzilmaning vayron bo‘lishiga va milliy o‘zlikni yo‘qotishga olib keldi. Urush koreys adabiyotiga ham katta ta‘sir ko‘rsatib, yangi janr – nasriy Ekzistensializmni vujudga keltirdi. Ekzistensializm (lot. yashash, mavjudlik), mavjudlik falsafasi -falsafadagi yo‘nalish. XX-asr boshida Rossiyada, Birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada, Ikkinchi jahon urushi davrida Fransiyada, urushdan keyin boshqa mamlakatlarda paydo bo‘lgan. S.Kyerkegor (1813-55) ta‘limoti, hayot falsafasi, fenomenologiya Ekzistensializmning g‘oyaviy manbai hisoblanadi. Diniy Ekzistensializm. (K. Yaspers, G. Marsel, N.A. Berdyayev, L. Shestov, M.Bubur) va ateistik Esiztensializm (M. Haydegger, J. P.Sartr, A. Kamyu) bir-biridan farqlanadi. Markaziy tushunchasi ekzistensiya (inson mavjudligi). Inson mavjudligi asosan g‘amxo‘rlik, qo‘rqish, qat‘iylik, vijdon kabilarda namoyon bo‘ladi. Dahshat, qo‘rquv, o‘lim inson yashashining asosini tashkil etadi. Inson o‘zini ekzistensiya sifatida anglagandan keyin erkinlikka erishadi, bu erkinlik o‘z o‘zini, o‘zining mohiyatini tanlashdan iborat bo‘lib, insonga olamda yuz berayotgan barcha narsa uchun mas‘uliyat yuklaydi borliqning fojialiligini, uning mantiqqa xilofligini, inson ixtiyorida emasligini targ‘ib qiladi. Ekzistensializm oqim sifatida tugaganligiga qaramay, hozirgi kunda uning asosiy tamoyillari Yevropa xalqlari mentalitetiga singib ketgan. U g‘arb adabiyoti va san‘atiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ekzistensializm insonlar o‘z hayotlari ma‘nosini o‘zlari yaratishlarini ta‘kidlovchi falsafiy oqimdir. Ekzistensializm mavjudlik ma‘nosi olamshumuldir deb uqtiruvchi metafizik prinsiplarni rad etadi. Oqimga XIX-asrda Kierkegaard hamda Nietzsche ning ishlariorqali

asos solgan, deb hisoblanadi. 1940-50 yillarda fransuz faylasuflari, jumladan Jean-Paul Sartre va Simone de Beauvoir ekzistensializm bilan bog‘liq ilmiy hamda taxayyuliy asarlar yozishgan, ularda “dahshat, zerikish, begonalashish, absurd, ozodlik, vafo, va bo‘shliq” mavzularini yoritilgan. Koreyadagi prozaik ekzistensializm quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: Absurdlik va hayotning ma‘nosizligi mavzusiga e‘tibor qaratilgan. Ekzistensialist yozuvchilar dunyoni tasodifiylik va tartibsizliklar joyi sifatida tasvirlaydilar. Bu dunyoda inson hayoti mazmun va maqsaddan mahrum etilgan yolg‘izlik va begonalashish mavzusini tushunishlari, Ekzistensialistlar asarlaridagi odamlar o‘zlarini yolg‘iz va dunyodan begona his qiladilar. Ular jamiyatda o‘z o‘rnini va hayotining mazmunini topa olmaydi. Erkinlik va mas‘uliyat mavzusini o‘rganish. Ekzistensialist yozuvchilar inson hayotda o‘z yo‘lini tanlashda erkin ekanligini ta‘kidlaydilar. Biroq, bu erkinlik ham mas‘uliyat bilan birga keladi. Koreyada 1950-1953 yillardagi prozaik ekzistensializmning asosiy asarlari: Li In-jik tomonidan “Yolg‘iz tog‘” (1948) Yun Kyung-Mokning “Shahar xotiralari” romani (1950) Seo Xvan Mokning “Qamoqxonadan maktublar” hikoyalar to‘plami (1951)larni misol keltirishimiz mumkin.

1950-1953 yillarda Koreyadagi nasr ekzistensializmi koreys adabiyoti rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatib qolmasdan u koreys yozuvchilarini ichki dunyosini ifodalashda va urushdan keyingi Koreyaning murakkab voqeligini tushunishda yordam berdi.

Son Chang-sopning “Yomg‘irli kunlar” qisqa hikoyasi “Munhak Yesul” Adabiy san‘at jurnalida 1953 yil noyabr oyida chop etilgan, uch yillik Koreya urushini tugatgan koreya avgust oyi oxirida sulh shartnomasini imzolaydi. Ushbu nashr sanasidan ko‘rinib turibdiki, “Yomg‘irli kunlar” urush davridagi Koreya jamiyati va o‘sha paytda koreyslar azob chekkan qashshoqlik haqida ma‘lumot beradi. Haqiqatan ham, biz “Yomg‘irli kunlarni” urush davridagi Koreya jamiyatining mikrokosmosi deb atashimiz mumkinligiga ishonamiz. “Yomg‘irli kunlar” hikoyasi asosida film ham suratga olingan bo‘lib Dong-Vuk va Dong-Ok, aka-singilning hikoyasini, ularning do‘sti va hikoyachi Von-Gunning ko‘zlari bilan taqdim etilgan. Uchchalasi ham Shimoliy Koreyadan Janubiy Koreyaga qochib o‘tgan qochqinlar bo‘lib, ular urush paytida Shimoliy Koreya tizimiga qarshi bo‘lganliklari natijasida janubga kelgan va janubda yashash uchun hech qanday asosga ega bo‘lmaganlar. Ikkiyovlon aka-singil iqtidorli Dong-Ok chizgan suratlarini amerikalik GLSga sotish orqali zo‘rg‘a urushdan tirik qolishadi. Dong-Vuk AQSh harbiy bazalaridan buyurtmalar oladi va singlisi chizib tugatgan portretlarini ularga sotib arzimagan choy chaqqa oladi. Dong-Vukning ko‘chadagi yagona kiyim-kechaklari cherkovdan beriladigan yordam kiyimlari edi. Garchi nasroniy bo‘lsa-da, Dong-Vuk o‘sha paytdagi Koreyadagi boshqa nasroniylardan farqli o‘laroq, alkogol ichimliklarni ichishni yaxshi ko‘rar, qachon ichsa, ruhoniy bo‘lish orzusi haqida tinmay dovdirab gapirib yuradi. Bu aka-singil dalada chekka bir hududda har qanday vaqtda qulab tushishi mumkin bo‘lgan haroba uyda yashardi. Yomg‘irli mavsumda yomg‘ir suvi tomdagi teshiklardan tinmay oqar, uyning ichi qorong‘u bo‘lib, deraza teshiklarini somon bilan to‘ldirilgan qoplar yopib turardi. Ikki yosh umidsiz hayot kechiradi, ular kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshpana uchun asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kurashadilar. Dong-Vukning do‘sti Von-Guning hayoti aka-singilnikidan unchalik farq qilmaydi, u urushdan savdogar sifatida omon qoladi. Urush paytidagi odamlarning hayotlari,

qashshoqligi shunday tasvirlangan bo'lib bundan tashqari, "Yomg'irli mavsum" da qashshoqlik emas ob'ektivlik yashash sharoitlari bilan chegaralanadi. Dong-Okning nogiron tanasi va psixologik holati chegarasi-antropofobiya haqida psixologik fikr bildirib, urush davridagi koreyslarning buzilgan holatini aks ettiradi. Asarda Von-Guning ko'zlari orqali, Dong-Ok bizni ko'proq o'ziga jalb qiladi. Dong-Vukga qaraganda Dong-Ok ko'proq azob chekadi nafaqat iqtisodiy qashshoqlik, balki sovuqxonlikdan, hamda mag'rur tabiat, bu uni boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan qochishga majbur qiladi. Dong-Ok odamlar bilan aralashishni hohlamaganligi uchun ham, aka-singil shahardan ancha uzoq bo'lgan haroba uyda yashaydi. Dong-Ok nogironligi tufayli bu erni hech qachon tark eta olmasligi, uziga nisbatan manashu joyga izolatsiya qilinib, yolg'izlikka mahkum qilingan edi. Dong-Ok uchun, bu vaziyatdan qutulish umidi deyarli yo'q edi. Lekin asasini do'sti Von-Gu bilan tanishgandan keyin uning fikri o'zgara boshlaydi. Bundan xavotirga tushgan Dong-Vuk do'sti Von-Guga yuragini ochadi. Singlisiga uylansa, u umidsizlikka tushishi uning barcha jamg'armalari aloqasini yo'qotishi, hikoya oxirida Von-Gu bilan bo'lib o'tgan vaziyat o'sha paytdagi Koreya tarixining dahshatli xolatini aks ettiradi. Muallif o'zining Dong-Ok tasviri orqali Koreya jamiyati va koreyslar urush paytida his qilgan boshi berk ko'chani ko'rsatmoqchi bo'lgan. Ushbu hikoyaning sahnasi ham ataylab qorong'u va dahshatli tarzda ifodalangan. Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, unda barcha voqealar butunlay yomg'irli kunlarda bo'lib o'tganligi tasvirlanganini guvohi bo'lamiz. Yomg'irli mavsum davom etmoqda. Qorong'u, quyoshsiz osmon ostida do'sti va do'stining singlisini ziyorat qilish uchun ketayotgan Von-Guning qadamlari botqoq va tepalik yo'li tufayli sust bo'lib borar edi. Masofadagi kulba va nam xonali shiftidan oqayotgan yomg'ir tomchilari bu hikoyadagi fazoviy atmosferani ham qorong'u, ham ma'yus tasvirlagan. Bu ob-havo va muhit hikoyaning mavzusini, aka-singilning qashshoq va izolyatsiya qilingan hayotini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, Von-Guning aka-singilga bo'lgan mehr-shafqati va e'tibori tufayli, bu voqea unchalik dahshatli va umidsiz emasligiga ishonsa bo'ladi. Von-Gu birinchi sovuq javobiga qaramay, Dong-Okga qiziqish ko'rsatishda davom etadi va bu uning yuragini asta-sekin yumshatishga muvaffaq bo'ladi, ammo umidsiz kelajakni taklif qilmaslik uchun "Yomg'irli kunlar" hikoyasi fojiali tarzda yakunlanadi. Ammo bu fojiali yakun tufayli. Von-Guning g'oyib bo'lgan Dong-Ok uchun rahm-shafqati va pushaymonligi yanada kuchayadi. Muallif bizga Koreya jamiyatining urush davridagi qashshoqlik hayotini xolis, ammo hamdardlik bilan aks ettiruvchi asarni muvaffaqiyatli taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 고석주. 현대 한국 조사의 연주 |.-서울]: 한국문화사, 2004,
2. 김성희. 조사 '가' 의 의미와 주제. -서울: 연세어문학, 1953 - 365b
3. <https://www.ktlit.com/history-of-korean-literature-han-miracle-pundan-munhak-lives/>
4. Bi-lingual Edition Modern Korean Literature 109- 63b

MODERNIZM VA UNING KOREYS BADIY ASARLARIDA TUTGAN O'RNI.

Z. Xudoyberdiyeva, SamDCHTI koreys tili o'qituvchisi,
R.Xayrillayeva, SamDChTI 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola modernizm va uning koreys badiiy adabiyotida tutgan o'rni asarlar orqali talqin qilishini haqida o'ganib chiqildi. Modernizmning dastlabki kelib chiqishi va koreys adabiyotiga tutgan o'rni I Te Chunning "Oy og'ushidagi oqshom" asarida modernistik qarashlarning aks etilishi.

Kalit so'zlar: modernizm, romantizm, postmodernizm, oqim, impressionizm, dekadent, lingvistika, kibernetika, falsafa, ong oqimi,

Modernizm (italyancha modernismo — "zamonaviy oqim"; lotinchadan kelib chiqqan modernus — „zamonaviy, yangi“) XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning 50—60-yillarida Yevropa, AQSH adabiyoti va san'atida rivoj topgan oqim va yo'nalishlarning umumiy nomi. Dastlab, Fransiyada tashkil topgan simbolizm, impressionizm (masalan, 1863 -yilda Parijda ochilgan "Xo'rlanganlar saloni") vakillari, musiqada K.Debyussi, M.Ravel kabi kompozitorlar ijodiga nisbatan qo'llangan. Modernizm dekadentlik termini bilan ham yuritilgan. Badiiy ijodning mumtoz an'alaridan voz kechish, ijodkor o'z shaxsiy kechinma, taassurot va tasavvurlarini ustun qo'yishi, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida ahamiyat berish ular ijodiga xos bo'lgan xususiyatlardir. Modernizm vakillari realizmga qarshi kurashdi. Modernizm nafaqat mazkur davr san'ati, balki ilm (Z. Freydning psixoanaliz nazariyasi, F. De Sossyurning struktural lingvistikasi, A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, N. Vinerning kibernetikasi) va falsafa (F. Nitshe, A. Bergson, M. Xaydegger va boshqalarning g'oyalari) bilan ham bog'liq bo'lgan.[Saydazimova U. "Klassik koreys antalogiyasi", 2013.]

XX asrning boshida rivoj topgan avangardizm yo'nalishlarida XIX asr modernizm prinsiplari o'z rivojini topdi. Modernizmning yangi bosqich xususiyatlari tasviriy san'atda an'anaviy tasvirlash usullaridan butunlay voz kechish, real obrazlar shaklini o'zgartirish yoki umuman yo'qotish (kubizm, ekspressionizm, syurrealizm, dadaizm) kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Musiqada modernizm kuy va lab tamoyillarini inkor etish, adabiyotda — bayonning mantiqsizligiga asoslanish (ong oqimi,) yetakchi omilga aylangan. Modernizmning eng yirik nazariyotchisi Ortega Gas Set san'atning xalqchilligiga qarshi chiqdi: "Modernistik san'at... xalqqa begonadir, buning ustiga u xalqqa... zid ekan. Haqiqiy san'at san'atkorlar uchun, omma uchun emas...". [Син Хёнсик. "История Кореи-М", 2008.]

Bu ijodiy qarashlar XX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan abstrakt san'at, minimalizm, absurd drama kabi postmodernizm yo'nalishlarida ham o'z aksini topdi. 1980-yillarning boshlariga kelib, san'at va arxitekturadagi postmodernizm harakati turli kontseptual va intermedia formatlari orqali o'z mavqeini belgilay boshladi. Musiqa va adabiyotda postmodernizm ertaroq kuchaya boshladi. Musiqada postmodernizm bir ma'lumotnomada "1970-yillarda kiritilgan atama" sifatida tasvirlangan bo'lsa, Britaniya adabiyotida modernizm 1939-yildayoq "o'z ustunligini postmodernizmga topshirgan" deb

hisoblaydi. Biroq, sanalar juda munozarali, ayniqsa Andreas Gyuyssenning soʻzlariga koʻra: “bir tanqidchining postmodernizmi boshqa bir tanqidchining modernizmi” modernizm davom etishiga ishonadi.[Peter N. “The modern world”, 2008.]

Modernizm turli xil madaniy harakatlarni qamrab oluvchi belgidir. Postmodernizm mohiyatan markazlashgan harakat boʻlib, ijtimoiy-siyosiy nazariyaga asoslanadi, garchi bu atama hozir kengroq maʼnoda XX asrdan boshlab zamonaviydan xabardor boʻlgan va uni qayta talqin etuvchi faoliyatga nisbatan qoʻllanilayapti. Postmodern nazariya taʼkidlaydiki, modernizmni “haqiqatdan keyin” kanonizatsiya qilishga urinish shubhasiz qarama-qarshiliklarga mahkumdur. Tor maʼnoda modernist boʻlgan narsa postmodern ham boʻlishi shart emas. Modernizmning ratsionallik va ijtimoiy-texnologik taraqqiyotning afzalliklarini taʼkidlagan unsurlari faqat modernist edi. 1960—70 -yillar sanʼatida paydo boʻlgan modernizmning asosiy tamoyillariga qarshi boʻlgan pop-art, kinetik sanʼat, giperrealizm kabi yoʻnalishlarni baʼzi tadqiqotchilar modernizm tizimi nuqtai nazaridan baholashgan.

Toʻgʻri va ixcham jumalardan foydalangan holda, Yi oʻziga xos hissiy kayfiyatlarni oʻrnatish orqali qahramonlarni yaratdi. U oʻz jumlariga oʻta qattiqqoʻl boʻlib, har bir sifat-doshning toʻgʻriligini hisoblab chiqdi va ishini qayta-qayta qayta koʻrib chiqdi. U shunday puxta tuzilgan jumalarda qahramonlarning shaxsiyatini aks ettirgani uchun uning asarlari xuddi filmlar kabi jonlandi. “Oy ogʻushidagi tun” hikoyasi I Te Chun yozuvining ramzidir. Ushbu qisqacha fantastika ikkita asosiy qismdan iborat: birinchisi Xvan Sugonning hikoyasi boʻlib, hikoyachi buni Seongbuk-dongga koʻchib oʻtgandan keyin tasodifan bilib oladi. Ikkinchisi, hikoyachining xotini uni tashlab ketganidan keyin umidsizlikda yashayotgan Xvanga nisbatan hamdard va rahm-shafqatli munosabati. Birinchidan, bosh qahramon Xvan Sugon hikoyachini haqiqatan ham qishloq muhitida ekanligi hissi bilan toʻldiradi. Xvang boshi katta, qoʻllari va bilaklari kichik boʻlgan, oʻta boʻsh va sekin aqlli “oddiy odam” sifatida tasvirlangan. Ahvoliga koʻra, u Sansam boshlangʻich maktabidan ishdan boʻshatildi, u erda topshiriqchi boʻlib ishlagan va gazetalarni oddiy tashuvchi sifatida emas, balki yordamchi sifatida yetkazib beradi. Hikoya davomida hikoyachi doimiy mulohazali va kuzatuvchi munosabatni saqlab qoladi, bu aqliy qobiliyati sustroq oddiy odamga oʻzining gʻamxoʻrligi va qiziqishini koʻrsatadi.

“Yangi gazeta yetkazib beruvchi yetkazib berishni oʻz zimmasiga olganida va Xvan Sugon hikoyachining uyiga kelishni toʻxtatganda, hikoyachi “yurak ogʻrigʻini” his qiladi va dunyoning bu oddiy odamga nisbatan shavqatsiz muomalasidan oʻz noroziligini bildiradi.

Hikoyaning ikkinchi qismi Xvan Sugonning u haqida deyarli unutilgan hikoyachiga kutilmagan tashrifi bilan boshlanadi. Hikoyachi Xvangni kutib oladi suhbat qurarkan, Xvang Samsan boshlangʻich maktabi oldida doʻkon ochmoqchi ekanligini aytadi. Rivoyatchi unga bir oz pul berib, biznesini boshlashni aytadi. Bu vaqtda hikoyachi hikoyaga oddiy hikoyachi emas, balki faol qahramon sifatida kiradi. U boshqa personajning hayotiga aralashib, unga nisbatan hamdardlik va rahmdil munosabatini jismonan ifodalovchi xarakterga aylanadi. Hikoyachi bergan pulga Xvang qovun sotishni boshlaydi. Koʻp oʻtmay, u biznesdan chiqib ketadi va hatto xotini uni tashlab ketadi, chunki u oʻz qayniopasining hukmronligi ostida kun kechirishga dosh berolmaydi, keyin bir kuni Xvan uyiga yarim tunda bir bosh uzum olib keladi. Uzum esa uzumzordan oʻgʻirlangan boʻlib

chiqadi. U uzum uchun pul to‘lagandan so‘ng, hikoyachi “Xvangning samimiy soddaligi mevasida ham aks ettiradi”. Bir necha kechadan so‘ng, hikoyachi Xvanning yonidan o‘tib ketayotganini, sigaretini puflab, “Ko‘z yoshlari va xo‘rsinish” qo‘shig‘ini mamnuniyat bilan kuylayotganini ko‘radi.

Muallif o‘z hikoyasi orqali o‘ziga xos shaxsiyatga ega shaxsni yaratadi. Shu bilan birga, u haqiqatga nisbatan tanqidiy nuqtai nazarini ochib beradi. Xvan Sugon – bu o‘ziga mos kelmaydigan odam. U ijtimoiy voqelikning ulkan kuchi bilan orqaga surib qo‘yilgan norozi shaxs. Uning soddaligi, asrlar davomidagi odamlar singari, boshqalarni ham uni rad etishga undaydi. Sababi, u izlagan umrining qadri haqiqatdan yiroq (“Adashgan jannat qissasi”dagi K domlaga o‘xshaydi). Bu personajlar orqali Yi bunday odamlarga oddiy orzularini amalga oshirishga imkon bermaydigan haqiqatdan umidsizlik va ba‘zan g‘azabini ifodalaydi. Biroq, u buni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqda qilmaydi. U adabiyotni til san‘ati sifatida aniq tushungan, shuning uchun ham o‘z maqsad va niyatlarini g‘amgin kayfiyat va format orqali ifodalagan, xuddi Xvan Sugon timsolida sigaret puflab, hashamatli oy nuri ostida qo‘shiq kuylayotganidek. I Te Chun asarlarining namoyishini ana shunday batafsil tavsiflar orqali o‘ziga xos kayfiyat va manzara, shuningdek, shaxsiyatlarni yaratmoqda. Shuning uchun Li Chason va Chong Xan Suk I Te Chunni “qisqa hikoyalar mukammali” va “qisqa hikoya yozish texnikasini mukammal egallagan” yozuvchi sifatida ta’riflagan. Bu xususiyat, shuningdek, I Te Chunning adabiy avtonomiyaga bo‘lgan ishonchini aks ettiradi. U adabiyotni ijtimoiy harakatga erishish vositasi yoki ma’rifat vositasi sifatida ko‘rmadi, aksincha, adabiyotda lingvistik va tasviriy go‘zallikni topgan I Te Chun zamonaviy san’atkor edi. [이태준 “달밤”, 2015]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Peter N. “The modern world”, 2008
2. Saydazimova U., Choy So Yong., Xvan L., Shakirova N., Kim O., Kim Ye. “Klassik koreys antalogiyasi” Toshkent “Istiqlol” 2013
3. Син Хёнсик. История Кореи-М, 2008.
4. 이태준. “달밤 “ Asia publishers 2015

KOREYS TILIGA FRANSUZ TILIDAN O‘ZLASHTIRILGAN SO‘ZLAR VA ULARNING LINGVISTIK-MADANIY TA’SIRI.

M.T. Raxmonova

SamDCHTI 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqola koreys tiliga kiritilgan va keng qo‘llaniladigan fransuz lug‘atini tasniflash va tahlil qilish, ularning koreys tiliga ta’sirini yoritishga qaratilgan. Shu sababli fransuz tilidan koreys tiliga o‘zlashtirilgan lug‘atni lingvistik va madaniy jihatlardan batafsil tahlil qilish, koreys tilida fransuz so‘zlari qanday kirib kelganligi va ishlatilishi tahlil qilingan. Shu bilan birga tildagi o‘zlashma so‘zlarning turli jihatlari, ya’ni fonologik, morfologik, semantik, sintaktik va nutq aspektlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: *assimilyatsiya, fonologik assimilyatsiya, semantik assimilyatsiya, qarz soʻzlar, fransuz, koreys, tilni tozalash, qarz olish, morfo-sintaktik assimilyatsiya, sotsiolingvistika, ijtimoiy-lingvistika.*

Koreys tilidagi fransuz tilidan olingan lugʻatning aksariyati toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashtirish orqali olingan otlardir. Qolaversa, koreys tilida otdan boshqa gap boʻlaklari, yaʼni sifat, yuklama, feʼl, ergash gaplar koʻproq ot sifatida ishlatiladi. Bu shuni koʻrsatadiki, leksik qabul qilishning asosini otlar tashkil qiladi. - Qabul qilingan soʻzlar qayta tugʻiladigan tilning lugʻat tarkibi bilan qoʻshilib, yangi lugʻat sifatida ishlatilishi mumkin. - Umuman olganda, lugʻatning oʻzlashtirilishiga ikki madaniyat oʻrtasidagi aloqa sabab boʻladi. Biroq, Koreyaning fransuz tilidan soʻz oʻzlashtirish sababi geosiyosiy omillarga hech qanday aloqasi yoʻq va uni ikki mamlakatning tubdan farqli madaniy kelib chiqishi bilan bogʻlash mumkin. Bundan tashqari, ona tili koreys boʻlgan kollej oʻquvchilarining koreys tilida qoʻllaniladigan fransuz tilidan olingan soʻzlarni bilishi hamda fransuz va fransuz madaniyatidan xabardorligini aniqlash maqsadida soʻrovnomalar oʻtkazildi. Soʻrov natijalari shuni koʻrsatdiki, fransuz madaniyati Koreyada juda ijobiy qabul qilinadi. Bu Koreyada Fransiyaning qiyofasi juda ijobiy ekanligini koʻrsatadi. Lugʻat oʻzlashtirish nafaqat qabul qiluvchi va qabul qilinuvchi tildan foydalanadigan mamlakatlar oʻrtasidagi lugʻatni, balki ikki davlat oʻrtasidagi ongli yoki ongsiz ravishda oʻzlashtirishni ham anglatadi. Bu madaniy almashinuvni amalga oshiradigan hodisadir. Fan doktori Li Ki Mun rahbarligidagi tilshunoslar koreyscha lugʻat- «Yangi Koreya lugʻati»da fransuz tilidan kelib chiqqan soʻzlarni koʻrib chiqadilar va koreyscha leksikondan 218 ta frantsuzcha soʻzni saralab oladilar.

Ushbu tadqiqot yakunida quyidagi tavsiflovchi farazlarni keltiradilar: -Fransuz tilidan olingan soʻzlarning aksariyati toʻgʻridan-toʻgʻri (hech qanday oʻzgarishsiz) olingan otlardir. Hatto sifatdosh, predlog, feʼl va ergash gap kabi qolgan qismlar ham koreys tiliga kirgandan soʻng otlarning xarakterida ishlatiladi. Bu shuni koʻrsatadiki, leksik oʻzlashtirish odatda ot darajasida sodir boʻladi. -Fransuz tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar ham borki, ular oʻz tillaridan boshqa soʻzlar bilan qoʻshilib, qoʻshma soʻzlar hosil boʻladi. Umuman olganda, oʻzlashtirish ikki xil til jamoalari oʻrtasidagi madaniy aloqa natijasida sodir boʻladi. Agar lugʻat boshqa tildan oʻzlashtirilgan boʻlsa, qabul qiluvchi tilning madaniy elementlari kirib, qabul qiluvchi til madaniyatiga taʼsir qiladi. Koreys tilidan farqli talaffuz tizimiga ega frantsuzcha tovushlarni koreys tiliga yozishda ular koreyscha tovush tizimida ishlatilishi kerak. Assimilyatsiya eng yaqin tovushga mos keladigan yoʻnalishda sodir boʻladi. Fransuz tilidan oʻzlashtirilgan lugʻat asosan otlardan iborat boʻlib, berilgan tildagi sifat, yuklama va feʼl boʻlgan soʻzlar koreys tiliga kiritilganda ham ot shaklida oʻzlashtirilib, tegishli fonetik va morfologik assimilyatsiyadan keyin qoʻllaniladi. Buni quyidagilar misol boʻladi:

1. tous les jours 푸레주르 – 매일매일 –har kuni
2. bonbon 봉봉 – 사탕 - shirinlik
3. ma monde 마몽드 - 내 세상- mening dunyoyim
4. grandeur 그랜저 - 위엄(있는)- ulugʻvorlik
5. elle 엘르 – 그녀- u(qiz)
6. enfant 앙팡 – 어린이- bola

7. bebe 베베 –아기- chaqaloq
8. la neige 라네즈 – 눈 - qor
9. etude 에뛰드 - 공부, 연구- o'rganish, tadqiqot
10. espoir 에스쁘아 - 기대, 희망 - umid
11. poteau 뽕또 – 단짙- do'st, o'rtoq
12. sable 샹브레 – 모래 - qum
13. mon ami 모나미 – 내친구 – mening do'stim
14. vogue 보그 - 유행, 인기 - mashhur
15. lac vert 라끄베르 – 초록호수 – yashi ko'l
16. bon gousse 봉구스 - 훌륭한 한입거리 – ajoyib luqma
17. mon cher tonton 몰셀통통 – 나의친애하는삼촌 – aziz amakim
18. raison 레종 – 이유 - sabab
19. comme des garçons 폼데 가르송 – 소년들처럼 – yigitlar kabi
20. louis quatorze 루이까또즈 - 루이 14 세 - Lui XIV

Odamlar ma'lum bir ijtimoiy tabaqaga mansubligini ko'rsatish uchun ma'lum iboralarni ishlatishga moyildirlar. Koreys tiliga o'zlashtirilgan frantsuz tilini tahlil qilganda shuni ko'rish mumkinki, davr ruhidagi o'zgarishlar tilning yevropa tillarini o'zlashtirish manbai sifatida kengayishiga olib kelgan va bu tilning mazmuni va shakliga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Chet tilini rivojlantirish, uni ona tiliga moslashtirib sayqallash ham ona tilining til hayotini boyitish, ona tilini rivojlantirish yo'lidir. Hozirda bu kabi yevropa tillari ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalmoqda.

Xulosa. O'zlashma so'zlar biror-bir sohaga tegishli muayyan tushuncha yoki maxsus narsani aniq ifoda etadigan so'z yoki so'z birikmasidir. Tilning lug'aviy majmuasida ular alohida bir salmog'li qatlamni tashkil qiladilar. Bunday so'zlar jamiyat tomonidan yasalishi, tartibga solinishi va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan yagona qatlamdir. Sohaviy neologizmlarni tayyorlash yoki ularni me'yorlashtirish uchun tilshunoslar va o'sha sohadagi mutaxassislardan tashkil topgan ishchi guruhlar, qo'mitalar tashkil qilinadi. Demak, neologizm ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga doir turli qatlamlarga mansub bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi, muayyan guruh kishilari orasida bir ma'nolarda ishlatiladigan lisoniy birliklardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1966.608с.
2. Базарова ШШ KOREYS ADIBASI SHIN KYON SUK IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA//Международный Журнал Искусство Слова5(3), 2022
- 3.Бахронова Д.К. ГЕНДЕР И ЦЕЛЕВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. No 3. - Новосибирск: СибАК, 2015.
4. Kim Mun Uk va b. Koreyscha-o'zbekcha lug'at, 2006.
5. O.Bloch et W.Wartburg. Dictionnaire étymologique de la langue française, P.1950

6. Standard Dictionary of the Korean Language. 표준국어대사전. Korea, 2012
7. O'zbek tilining izohli lugati. 2 jildli -M., Русский язык. 1981.; O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.
8. 국어 어문 규정집. 교육과학기술부. 대학교과서(주). Korea,2010.98p
9. 김관해.국어 어휘론 개설. 서울, 1993.45p.
10. 박기천.현대 중국어 문화콘텐츠 신조어 연구. 청주대학교 대학원 중어중문학과 석사학위논문.2013.42p.

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA 눈/KO‘Z LEKSEK KOMPONENTLI SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

N. Nosirova
SamDCHTI o‘qituvchisi

ABSTRACT

This article includes a comparative analysis of the existing differences and equivalent phraseologisms of the somatic expressions expressed by the nun/eye lexeme in the lexicology of the Korean and Uzbek languages. In both languages, examples of somatic expressions with nun/eye lexical component are given and their analysis is shown. Reactions to existing theories are given.

Key words: somatic phraseology, expression, equivalence, eye somatism, comparative analysis.

KIRISH

Frazeologik iboralar o‘zi ifodalayotgan so‘zlarga nisbatan kuchliroq ma’no qo‘shishi hamda obrazlilikni faollashtirish uchun xizmat qiladi. Frazeologizmlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘libgina qolmasdan ular bir xalqning qadimiy urf-odatlaridan, turmush tarzimidagi voqea-hodisalardan dalolat berish bilan birga insonlarning xatti-harakatlari, fe‘l-atvoriga xos xususiyatlarni ifodalashda beqiyos va serjilo o‘rin egallaydi. Koreys va o‘zbek tillarining har ikkisida ham inson tana a‘zolari ishtirokidagi somatik komponentli iboralar salmoqli ahamiyatga ega.

Quyida koreys tilidagi 눈 (ko‘z) komponentli iboralarning ba‘zilari bilan tanishib chiqib ularga o‘z xulosalrimizni beramiz.

1. 눈감아 주다 (모르는 척하다) ko‘z yummoq, bilmaganga olmoq.

예: 며칠 전 한 아이가 물건 훔치는 걸 봤는데, 그냥 모른 척 눈감아 줬어. (Bir necha kun oldin bir bolaning buyum o‘g‘irlayotganini ko‘rgandim ammo o‘zimni ko‘rmaganlikga olib shunchaki ko‘z yumdim. Bu ibora o‘zbek tilida ham koreys tilida ifodalayotgan ma’noni beradi: ko‘z yummoq somatik iborasi o‘zbek tilida bir qancha ma’nolarni ifodalaydi. .

Ko‘z yummoq¹ - bilmaganga olmoq, kechirmoq

Misol: "Itoatdan bosh tortmasin..." degan mulohazada yozgan shikoyatlarimizdan markazning ko‘z yumishi ham ehtimoldir.(A. Qodiriy, "O‘tkan kunlar")

Ko‘z yummoq³ – uxlamog, uyquga ketmoq.

Misol: Kumush *ko'z yumish* o'rniga yostiقدan boshini uzdi va yerga tushkan ro'molini o'rab, o'turdi. (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar")

Ko'z vummoq - olamdan o'tmog, vafot etmoq.

Misol: Agar men bu foniy dunyodan *ko'z yumsam*, hammangiz Bobur mirzoning amrini hozirgi mening amrim kabi bajo keltirgaysiz. (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar").

Ammo koreys tilida esa faqatgina o'zbek tilidagi ko'z yummoq iborasining bila turib bilmaganga olmoq, kechirmoq ma'nosini ifodalashga xizmat qiladigan iborasigagina sinonimlik qila oladi.

2. 눈 빠지게 기다리다 (오래 기다리다) ko'zi oqib tushadigandek kutmoq

예: 네 여자 친구가 네가 졸업할 날만 눈 빠지게 기다리고 있는 걸 모르는 줄 알아? (Sening qiz o'rtog'ing institutni bitiradigan kuningni ko'zi oqib tushgudek kutayotganini bilasanmi?). Koreys tilidagi ushbu ibora ham o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega. *Ko'zi to'rt bo'lib kutmoq* iborasi o'rnida ishlata olishimiz mumkin.

3. 눈에 선하다 (잊히지 않고 눈앞에 보이는 듯 기억에 생생하다 ko'z oldida namoyon bo'lmoq, ko'z oldida gavdalanmoq, ko'z o'ngidan o'tmoq

우리 애 방을 청소할 때마다 책상에 앉아서 공부하던 모습이 눈에 선합니다. (Bolamizning xonasini tozalayotgan paytimda partaga o'tirib dars qilayotgani ko'z o'ngimda namoyon bo'ladi.) O'zbek tilida aynan shu ma'noni beruvchi "ko'z o'ngidan o'tmoq" iborasi bilan sinonimlik hosil qiladi deb aytolamiz.

4. 눈 깜짝할 사이 (매우 짧은 순간) ko'z ochib yumguncha ya'ni juda qisqa vaqt ichida degan ma'noni ifodalaydi.

예: 눈 깜짝할 사이에 십 년의 세월이 흘렀다. (*Ko'z ochib yumguncha* 10 yil o'tib ketdi).

5. 눈을 붙이다 (잠을 자다) ko'zini ildirmoq, biroz mizg'ib olmoq.

예: 3 시간 운전해야 하니까 미리 눈 좀 붙이자. (3 soatlarcha mashina haydashimiz kerakligi uchun oldinroq biroz ko'z ildirib olaylik).

6. 눈이 맞다 (두 사람의 마음이나 눈치가 서로 통하다). Qarashlari o'zaro to'g'ri kelmoq (uzukka ko'z qo'ygandek).

Ushbu ko'z leksemasi orqali ifodalangan iborada ko'z so'zi o'z ma'nosidan biroz yiroqlaahgan bo'lsa-da, ko'z orqali ifodalanadigan *qaramoq*, *qarash* o'zbek tiliga tarjima qilinganda uzukka ko'z qo'ygandek degan ma'noni bergani sababli ushbu iboralarni ikki tilda ham o'zaro o'rindosh sifatida ishlatishimiz mumkin. Chunki bu somatik frazeologizmda *qaramoq*, *qarash* so'zlari albatta ko'z leksemasi orqaligina amalga oshirilishi mumkinligi sababli 눈 (ko'z) somatizmi orqali hosil qilingani anglay olamiz.

7. 눈앞이 캄캄하다 (몹시 어렵거나 뜻밖의 경우를 당하다) ko'z oldi qorong'ulashmoq

예: 아버지께서 사고를 당하셨다는 소식에 눈 앞이 캄캄해졌다.

(Dadamning avto halokatga uchrangani haqidagi xabardan ko'z oldim qorong'ulashib ketdi).

8. 눈에 불을 켜다 (몹시 욕심을 내거나 관심을 기울이다) qiziqish uyg'onmoq, ko'zidan o't chaqnamoq

예: 그는 돈이 생기는 일이라면 눈에 불을 켜고 달려든다. (U pul keladigan ish bo'lsa ko'zidan o't chaqnab yuguradi).

9. 눈에서 벗어나다 (누군가이 감시나 구속에서 자유롭게 되다) ko'zdan g'oyib bo'lmoq, qochib qutilmoq.

예: 나는 과장님께 말대꾸를 했다는 이유로 과장님의 눈에서 벗어나게 되었다. (Men bo'lim boshlig'i bilan gap talashib qolganligim sababli uning ko'zidan g'oyib bo'ldim).

10. 눈을 맞추다 (서로 눈을 마주 보다) ko'zi ko'ziga tushmoq, ko'zlar to'qnashmoq.

예: 그 날 그녀와 눈을 맞추었을 때 사랑에 빠졌다. (O'sha kuni u qizning ko'ziga ko'zim tushganida uni sevib qolganman).

11. 눈을 속이다 (잠시 수단을 써서 보는 사람이 속아 넘어가게 하다) ko'zini aldamoq.

예: 영화의 주인공은 추격자의 눈을 속이면서 유유히 마을을 벗어났다.

(Filmining bosh qahramoni ta'qibchilarni ko'zini aldab qishloqni sezdirmasdan tark etdi).

Shu o'rinda o'zbek tili leksekologiyasiga nazar tashlasak, ko'z somatizmi orqali ifodalanadigan frazeologizmlar ham tilimizda sezilarli ahamiyat kasb etyadi. Masalan, "o'zbek tilining frazeologik lug'atida" ko'z leksemasi orqali ifodalangan 50 dan ortiq ko'z komponentli somatik farzeologizmlar ro'yhatga olingan. Shundan ko'rinib turibdiki, o'zbek tili leksikologiyasida ko'z komponenti leksemasi bilan ifodalangan iboralar faol darajada o'rin egallaganligini ko'rsatib turibdi. O'zbek tili leksekologiyasida ko'z leksemali somatik frazeologizmlarining hosil bo'lishida ko'z somatizmi bilan birgalikda fe'l (ko'zdan qochirmoq), ot (ko'zining nuri), ravish (ko'zi moshdek ochilmoq), sifat (ko'zi to'q), son va fe'l (ko'zi to'rt bo'lmoq, bir ko'zda qaramoq,) kabi leksemalar bilan ifodalanib keladi. Shuningdek o'zbek tilida uchraydigan ko'z somatizmli iboralardan yana batafsilroq misollar bilan ko'rib chiqishimiz mumkin. Shu o'rinda o'zbek tilida mavjud bo'lgan ba'zi ko'z leksemasi ishtirokidagi frazeologizmlarning koreys tilida uchraydigan 눈 (ko'z) somatik frazeologizmlar orasida o'zaro muqobil variantlari ham mavjud ekanligiga guvoh bo'lamiz.

1. Ko'zdan qochirmoq-qaramoq, nazar tashlamoq.

Misol: Ayol bemor bo'lishiga qaramasdan Fotimaning bolalarga munosabatini ko'zdan qochirmasdi. (Ahmad Lutfiy Qozonchi "O'gay ona").

2. Ko'z qirini tashlamoq- sezdirmasdan qarab qo'ymoq.

Misol: Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

3. Ko'ziga tik qaramoq-boqmoq, ko'ziga diqqat bilan qaramoq.

Misol: -Xayr,- qo'limni qattiq siqib, ko'zlarimga tik qaradi u. (Z. saidnosirova "Oybegim mening").

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek tillarida 눈/ko'z somatizmi ishtirokidagi frazeologizmlar har ikki til leksik bazasida faol ishlatiladigan birliklar sifatida ahamiyatlidir.

Ushbu 눈/ko‘z leksemasi orqali namoyon bo‘ladigan somatik iboralar nutqimizda tez-tez uchrab, nutqning oydin va tushinarli bo‘lishida va nutqqa qo‘shimcha urg‘u hamda ma’no yuklash vazifalarini bajaradi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ko‘z somatizmi orqali hosil bo‘lgan frazeologizmlar har ikki tilda ham sinonimlik qila olish xususiyatiga ega va har ikki tilda ham ushbu ko‘z so‘zi o‘zining asl ma’nosini saqlagan holda yuzaga chiqishidir. Bu esa o‘z navbatida Koreys va O‘zbek xalqining etnik yaqinligi, urf-odatlar, turmush tarzi, milliy mentaliteti o‘zaro chambarchas ekanligidan dalolat beradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”-www.ziyo.com kutubxonasi
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi “O‘gay ona” 2009.64b
3. Mamatov A.E “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari”, Toshkent.2000
4. Mamajonova M.M “Ingliz va o‘zbek tillarida somatic frazeologizmlarning qiyosiy tahlili” 2022
5. Primqul Qodirov “Yulduzli tunlar”-www.ziyo.com kutubxonasi
6. Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” www.ziyo.com kutubxonasi
7. Khamroyeva Sh “O‘zbek tilida somatik iboralar korpusining interfeysi va manbalari
8. 신혜인 “중국인 학습자를 위한 한국어 관용표현 및 교육 방안 연구
9. <https://unomasuno.tistory.com> 국어 관용표현-눈과 관련된 표현 정리

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA HURMATNI IFODALOVCHI LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TAHLILI

S.B.Azizova

SamDCHTI o‘qituvchisi.

Annotation: this article analyses usage of honorific words and endings in speech, their importance in communication with Koreans.

Jamiyatga xizmat qiluvchi har qanday til ijtimoiy hodisa bo‘lib, shu tildan foydalanish jarayonida muloqot hosil bo‘ladi. Muloqot natijasida har bir millatning o‘z milliy xarakteri ko‘rinadi. Ya’ni salomlashish turli xalqlarda turlicha. Masalan, Qadimgi Xitoyda yuqori tabaqa vakillari uchrashganda o‘ng qo‘li bilan chap qo‘lini siqishar ekan. Koreyada esa, ko‘rishish paytida ikki qo‘lini yonga tushirib, egilib salom beriladi. Salomlashish har bir millatning o‘zaro hurmatini ifodalaydi.

Koreys va o‘zbek tillaridagi hurmatni ifodalovchi lingvistik va ekstralingvistik vositalarni ko‘rib chiqishdan oldin lingvistik va ekstralingvistik tushunchlarini bilib olishimiz zarur.

Lingvistika tilshunoslik bo‘lib, tilga oid bo‘lgan barcha muammolarni o‘rganadi. Lingvistik yo‘nalish bo‘yicha har bir tilning leksik, fonetik, grammatik o‘zgarishlari o‘rganiladi. “Ekstralingvistika” so‘zi lingvistikadan tashqari, tildan holi degan ma’nolarni anglatib, til ishlatilmaydigan holatlar, ya’ni mimika, imo-ishora orqali ham hurmatni ifodalash mumkin. Tilshunoslikda esa tildan tashqari jarayon “so‘zsiz muloqot”

ekstralingvistik muloqot deyiladi. Bu jarayon, asosan, o'zbek tiliga xosdir. Koreys tilida ham hurmatni imo-ishoralar orqali ham ifodalasa bo'ladi.

Hurmatni ifodalovchi lingvistik vositalarga kelganda shuni aytish kerakki, koreys tilida hurmat kategoriyasi (높임말) bir qancha so'zlar, olmoshlar va qo'shimchalar orqali ifodalanadi.

Avvalo, hurmat ifodalovchi qo'shimchalarning ba'zilariga to'xtalib o'taylik. Quyidagi qo'shimchalar shaxsga qo'shilib hurmat ma'nosini ifodalaydi:

-는/은-께서는 – urg'u ifodalovchi qo'shimcha;

-이/가-께서 - bosh kelishik qo'shimchasi;

-에게-께 – jo'nalish kelishigi qo'shimchasi;

-에게서-께 – chiqish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi

Masalan:

Ukam maktabdan keldi – 동생은 학교에서 왔어요.

Oyim bozordan keldilar – 어머니께서 시장에서 오셨어요.

Men do'stinga gul sotib olib berdim - 나는 친구한테 꽃을 사 줬습니다.

Men oyimga gul sotib olib berdim - 나는 어머니께 꽃을 사 드렸습니다.

Agarda biz murojaat qilayotgan kishining yoshi kattaroq bo'lsa yoki ijtimoiy mavqei yuqori bo'lsa, fe'l o'zagiga (-으)시 hurmat yasovchi qo'shimchasini qo'shish mumkin. Bu qo'shimcha faqatgina gapning subyakti tinglovchi yoki uchinchi shaxs bo'lganda ishlatiladi.

Masalan:

아버지께서 신문을 읽고 계십니다 - Dadam(lar) gazeta o'qib o'tiribdilar.

할아버지께서 지금 주무십니다 – Bobom hozir uxlayaptilar.

형은 신문을 보십니다 – Akam gazeta o'qiyaptilar

어머니께서 음식 준비를 하십니다 – Oyim ovqat tayyorlayaptilar.

Yuqorida keltirilgan misollarda (-으)시 qoshimchasi o'zbek tilidagi –lar hurmatni ifodalovchi qo'shimchaga o'xshaydi.

Lekin bu qo'shimchani qo'llashning o'z o'rni bor. Masalan, tinglovchining yoshi va mavqei harakat subyektidan yuqori bo'lsa, so'zlovchi yuqoridagi qo'shimchadan foydalanmaydi. Bunda harakat subyekti so'zlovchidan Yoshi va mavqei jihatidan yuqori bo'lishi ahamiyatga ega emas:

할아버지, 아버지가 아직 회사에서 안 왔습니다.

Bobo, dadam hali ishdan qaytmadilar.

Subyekt oliy va yuqori martabali kishilar haqida yangilik yetkazishdan iborat bo'lsa, rasmiy hujjatlarni yozishda (-으)시 qo'shimchasidan foydalanilmaydi. Masalan:

우즈베키스탄 대통령은 한국을 방문할 예정입니다.

O'zbekiston Prezidenti Koreyaga tashrif buyurish arafasida.

Ikki kishi o'rtasida uchinchi shaxs haqida gap ketganda tinglovchi so'zlovchidan kichik bo'lsa-da, uchinchi shaxs yoshiga qarab (-으)시 hurmat qo'shimchasi qo'shiladi:

가림 씨, 오빠는 지금 어디 계십니까? - Karim, akangiz qayerdalar?

올림 씨, 사장님이 아직 안 오셨습니까? - Olim, xo'jayin hali kelmadilarmi?

So'zlovchi hurmatda bo'lgan subyektning ma'lum bir jihatlari yoki narsalari haqida gapirganda ham (-으)시 hurmat qo'shimchasidan foydalanadi:

선생님, 시간이 있으십니까? - Ustoz vaqtingiz bormi?

그분은 아들이 많으십니다 - U kishining o'g'illari ko'p.

Shuningdek, hurmat kategoriyasining norasmiy va rasmiy usullarida ham qo'llaniladigan qo'shimchalar mavjud. Rasmiy marosimlardagi nutq va ma'ruzalarda gapirilganda yoki ikki suhbatdosh birinchi bor uchrashayotgan bo'lsa, tinglovchining lavozimi qandayligidan qat'iy nazar yoshi katta bo'lsa, fe'l o'zagiga -습니다/-습니다 qo'shimchalari qo'shilib hurmat shakli yasaladi. O'zaro yaqin kishilar, so'zlovchining tengdoshlari, qarindoshlik aloqasi bo'lgan kishilarga nisbatan hurmatning norasmiy shakli ishlatilib, bu shakl fe'l o'zagiga -아(어/여)요 qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

이 일을 저한테 맡겨 주시면 됩니다.

Bu ishni menga ishonib topshirishingiz mumkin.

어머니, 내일 아침 일곱 시에 깨워 주세요.

Oyi, meni ertaga ertalab soat yettida uyg'oting.

Hurmatni ifodalovchi so'zlarga kelsak, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

먹다 - 드시다 - 잡수시다 - yemoq;

자다 - 주무시다 - uxlamq;

생일 - 생신 - tug'ilgan kun;

이름 - 성함 - ism;

밥 - 진지 - ovqat;

살 - 연세 - yosh;

사람 - 분 - odam;

죽다 - 돌아가시다 - o'lmoq;

Bu so'zlar ham so'zlovchining tinglovchiga nisbatan bo'lgan hurmatini ifodalaydi:

성함이 어떻게 됩니까? - Ism-sharifingiz nima?

저분은 연세가 많으십니다. - Ana u kishining yoshlari ulug'.

할아버지는 진지를 잡수셨습니다 - Bobom ovqatlarini yedilar.

어머니 생신은 언제입니까? - Oyingizning tug'ulgan kuni qachon?

Shuningdek, koreys tilida shaxslarga murojaat qilganda ularning nomlaridan so'ng "씨" qo'shimchasini yoki lavozimi bilan ataganda, shu kishining lavozimidan so'ng "-님" qo'shimchasini qo'shib ham hurmatni ifodalashimiz mumkin. Masalan:

가: 노드르 씨, 진심으로 입학을 축하해요!

- Nodir, kirish imtihonlaridan o'tganingiz bilan tabriklayman!

가: 안녕하십니까, 사부님! 운동 연습을 언제 시작할까요?

- Assalomu aleykum, ustoz! Mashg'ulotlarni qachon boshlaymiz?

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, Sharq mamlakatlari o'zning muomala madaniyati bilan Ga'rb mamlakatlaridan ajralib turadi. Ya'ni Sharq mamlakatlarida "kattaga hurmatda, kichikka izzatda" bo'lishga nihoyatda katta ahamiyat berishadi. G'arb davlatlari esa hurmat kategoriyasiga u qadar ahamiyat bermaydi. Hurmat kategoriyasi haqida gap ketganda, koreys va o'zbek bu borada til jihatidan ham, madaniyat jihatidan ham o'xshashligini ko'ramiz. Hattoki, bu ikki xalqning milliy xarakteri ham bir-biridan farq qilmaydi. Milliy xarakter deganda, ma'lum bir ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga muayyan millat sig'ingan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta'sir ko'rsatadi hamda biz so'zlashgan paytimizda, har xil marosimlardagi xatti-harakatlarimizda, salomlashganimizda, xayrlashganimizda, hattoki qarashimizdagi mimkalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Yuqoridagi faktlardan kelib chiqadigan bo'lsak, koreys va o'zbek tillarining bir til oilasi, ya'ni Oltoy tillar oilasiga mansub ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. 최재희 한국어 문법론. 대한민국, 경기도: 태학사, 2004. -371p.
2. 문화속 한국어,2, KoreaLanguagePlus,2009 년
3. “한국어문법 1-2”, 외국인을위한한국어문법, 국립국어원, 2005 년 11 월 3 일, 2007 년 12 월 10 일, 906p.
4. 강 현화, 김선정,박동호 한국어 교육학개론. 서울: 박이정,2014. - 472 p.
5. 우즈베크인을 위한 한국어 문법 사전 2011 년 9 월 26 일

SEMANTIC, STRUCTURAL CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND USE OF EDUCATIONAL PHRASEOLOGICAL

M. M.Tilavova

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Phraseology is one of the branches of linguistics. Phraseology is derived from the Latin language, phrasis-speech, logos-teaching. A phrase (phraseological unit) is a stable combination of two or more words that express a mobile meaning and have the same meaning as one word. Phraseologisms are stable combinations of figurative meaning, which have the integrity of meaning and are made up of a stable relationship of two or more words before the speech process, and are ready for speech. The branch of language that studies phrases is called phraseology, and the set of phrases is called phraseologism.

A phrase (phraseological unit) is a stable combination of two or more words that express a mobile meaning and have the same meaning as one word. They have the following properties in educational phraseological units.

1. Phrases are usually equivalent to words in terms of meaning and usage: *to draw a blank* means to not be able to remember something. “ Tina tried to remember the answer to the question, but she drew a blank.”

2. Phrases express figurative meaning and have expressiveness and imagery. For example, *to put one's thinking cap on* means to think very seriously or very hard about something.

“It’s a difficult riddle. If you want to solve it, you’ll have to put on your thinking cap.”

“I have no idea what my speech is going to be about. I’ll put on my thinking cap and get back to you about it.”

3. Phrases are the answer to one question in the structure of a sentence and act as a part of a sentence: *To pass with flying colors* means to easily accomplish something. We often use this expression to talk about tests or exams.

“It was such a hard test. I have no idea how you managed to pass with flying colors.”

“Being a non-native English speaker, Karina struggled with English Literature. She was, however, able to pass all her math and science classes with flying colors.”

4. It is possible to include other words in some phrases or to change the words in the composition: *A teacher's pet* is a student who is clearly the favorite of the teacher and often receives special treatment.

“I know he’s the teacher’s pet now, but that doesn’t mean he’ll be like that when he’s a teenager.”

“All the other students got mad when the teacher’s pet reminded Mrs. Owens that she hadn’t given any homework.”

5. Phrases are used more colloquially and artistically. Effective use of them increases the effectiveness of the speech.

All the phrases express figurative meaning and emotionality is stronger in them than words. Therefore, phrases increase the expressiveness and effectiveness of speech. The branch of language that studies phrases is called phraseology, and the set of phrases is called phraseologism.

Phraseology as an independent branch of linguistics appeared in Russian linguistics in the 40s of the 20th century. Its initial formation was based on the works of Russian scientists A. A. Potebnya, I. I. Sreznevsky, A. A. Shakhmatov. The issue of studying stable (stable) word combinations in separate Phraseology was raised in the educational and methodical literature of the 1920-1940 years - in the works of Ye.D. Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulakhovsky. In Western European and American linguistics, phraseology is not distinguished as a separate branch of linguistics. Research in the field of phraseology in Uzbek linguistics began in the last century. Until now, phraseology has been studied from various aspects (Sh. Rahmatullayev, B. Yoldoshev, A. Mamatov, etc.), several dictionaries on phraseology have been compiled (Sh. Rahmatullayev, M. Sodikova), writers include Abdulla Kadiri, Abdulla Qahor, Hamid Olimjon, Aydin, The phraseological composition of Said Ahmed's works has been studied. In the 1970s and 1980s, a center coordinating phraseological research and producing special collections operated under SamSU.

Semantic classification of phraseological units plays crucial role in linguistics. This classification was suggested by acad. Vinogradov V.V., who developed some points first advanced by the Swiss scientist Charles Bally. He described phraseological units as

lexical complexes which cannot be freely made up in speech, but are reproduced as ready-made units. The meaning of such expressions as distinguished from the meaning of free combinations is idiomatic. The classification is based on the motivation of the unit.

According to the degree of idiomatic meaning of various groups of phraseological units, Vinogradov VV. classified them as follows:

1. *Phraseological fusions* are units whose meaning cannot be deduced from the meanings of their component parts, the meaning of phraseological fusions is unmotivated at the present stage of language development, e.g. red tape, a mare's nest, My aunt! The meaning of the components is completely absorbed by the meaning of the whole;

2. *Phraseological unities* are expressions the meaning of which can be deduced from the meanings of their components; the meaning of the whole is based on the transferred meanings of the components, e.g. to show one's teeth (to be unfriendly), to stand to one's guns (to refuse to change one's opinion), etc. They are motivated expressions;

3. *Phraseological combinations* are traditional word groups. Word combinations are combined with their original meaning, e.g. *to break news*, *to meet the demands*, *to take a liking*, etc. The components are limited in the ability to combine with each other by some linguistic factors.

According to structural classification, Prof. Smirnitsky A.I., who worked out this classification, described phraseological units as highly idiomatic set expressions functioning as word equivalents, and characterized by their semantic and grammatical unity. Prof. Smiritsky suggested three classes of stereotyped phrases: *traditional phrases* (nice distinction, rough sketch); *phraseological combinations* (to fall in love, to get up); *idioms* (to wash one's dirty linen in public), but only the second group is given a detailed analysis.

He classified phraseological combinations according to their structure into two large groups: (1) one-top (one-summit) phraseological units, which he compared with derived words and (2) two-top phraseological units, which he compared with compound words.

Prof. Smirnitsky further subdivided one-top units into:

a) verb-adverb phraseological units of the type " *to give up* ", e.g. *to*

bring up, *to try out*, *to look up*, *to break up*, *to drop in*, *to come up*, *to back up*, etc.;

b) phraseological units of the type " *to be tired* ", e.g. *to be surprised*, *to be up to*, etc.;

c) prepositional-substantive units, e.g. *by heart*.

The complexity of phraseologism as a linguistic unit, the conflict between its meaning and its separate form, the inconsistency of the phrase and etymological meanings make it difficult to use it in the speech process. This, in turn, requires careful mastering of the norms of using phraseology in speech. Phraseologisms are a complex language phenomenon, and it is necessary to pay special attention to their study. The fact that the teacher's speech is rich in phraseology is of great importance in increasing the vocabulary of students.

REFERENCES:

1. Tilavova, M. (2021). THE USE OF THE INVERSION IN THE LITERARY CONTEXT. *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation*, (pp 35460-35471).

2. Tilavova, M. (2021). РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
3. Г. Н. Бабич (2022). LEXICOLOGY: A CURRENT GUIDE (100)
4. Tilavova, M. (2021). INVERSION IS A BRIDGE TO THE WONDERS OF THE LANGUAGE WORLD. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
5. Tilavova, M. (2020). Language is a bridge to the wonders of the world. *Журнал дошкольного образования*, (1).
6. Tilavova, M. (2021). The Impact Of Motivation In Learning Foreign Languages. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
7. Cf. Jespersen, O. "Grammar deals with general facts of language and lexicology with special facts". *Philosophy of Grammar*.
8. Mamaraimovna, T. M. (2022, January). THE ROLE OF MODERN UZBEK WOMEN IN THE PROSPERITY OF THE MOTHERLAND. In *Conference Zone* (pp. 226-230).
9. Tilavova, M. M. (2022). THEORETICAL GRAMMAR OF ENGLISH AND THE MAIN DOMAINS OF LANGUAGE IN IT. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 320-330.
10. Tilavova, M. (2021). Variability Of Phraseological Units In English And Semantic Problems In Translation. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
11. Tilavova, M. (2021). The importance of learning a second language and its benefits for the individual. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
12. Xolmurod o'g'li, M. A., & Mamaraimovna, T. M. (2023). THE USE OF NEOLOGISM WORDS IN VARIOUS FIELDS. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(11), 33-40.
13. Saporbayevich, A. O., & Mamaraimovna, T. M. (2022). NEOLOGISMS AS A LINGUISTIC UNIT AND THE INTERPRETATION OF SUCH WORDS THAT ENTERED THE UZBEK LANGUAGE. *Xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganishdagi muammo va yechimlar*, 230-233.
14. Saporbayevich, A. O., & Mamaraimovna, T. M. (2022). THE ROLE OF THE VOCABULARY MAGNITUDE OF THE LANGUAGE IN THE STUDY OF EDUCATIONAL LEXICAL UNITS IN UZBEK AND ENGLISH. *Xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganishdagi muammo va yechimlar*, 227-229.
15. Xolmurod o'g'li, M. A., & Mamaraimovna, T. M. (2023). THE ROLE AND DISTINCTIVE FEATURES OF UZBEK TERMINOLOGY IN LINGUISTICS. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 262-266.

IJOBIY MA'NOLI GAP STRUKTURALI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NUTQDA QO'LLANILISHI

A.A Tursunov

SamDCHTI stajyor-o'qituvchisi.

Kalit so'zlar: gap strukturali frazeologik birliklar, semantika, modallik, ko'p vazifalilik.

Nemis tili uchun xos bo'lgan gap strukturali frazeologik birliklar faol so'zlashuv nutqida qo'llaniladi. Gaplashgan frazeologik birliklar ko'pincha turli semantik, modal-baholash va ekspressiv jihatlarni o'z ichiga oladi. Nemis tilida gaplashgan frazeologiyani guruhlanishi qo'yidagi turlarga bo'linadi: a) ijobiy ma'no va b) salbiy ma'nolarni o'z ichiga olgan ikkita katta semantik tagturlarga asoslanadi. Ushbu maqolada ijobiy ma'no kasb etuvchi gap frazeologik birliklar ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Ijobiy ma'no kasb etuvchi gaplashgan frazeologik birliklar quyidagi semantik guruhlariga ajratiladi:

1. Hurmat-ehtram, zavq-shavqni ifodalovchi gaplashgan frazeologik birliklar: Hut ab! 'ta'zim qilaman!'

2. Xayr-xushlashish: Meinen Empfehl! 'Salom!'; Bis bald! 'Tez orada ko'rishguncha!'; Auf Wiedersehen! 'Xayr!'; Auf Wiederhören! 'Xayr!'; Auf bald also! 'Ko'rishguncha!'; Gott befohlen! 'Xudoning panohiga, Yaxshi qoling!'; Bleib mir gewogen! 'Yaxshilik bilan eslang, Yomonlab tilga olmang!'; Bis gleich! 'Ko'rishguncha!'; Gute Nacht! 'Xayrli tun!'; Lebe wohl! 'Yaxshi qol!'; Mach's gut! 'Sog' bo'!'

3. Mehmonlarni kutish va kuzatish vaqtida mezbon ishlatadigan gaplashgan frazeologik birliklar ham ushbu semantik guruhga kiradi: Grüß Gott! 'Ollohning salomi!' Sie sind uns stets angenehm 'Sizni ko'rganimdan har doim xursandman'; Kommen Sie gut heim! 'Yaxshi boring! Uyga yaxshi yetib keling!'. Mensch Meier! 'Kimni ko'ryapman!' Guten Tag! 'Assalomu alaykum!'; Guten Abend! 'Assalomu alaykum, Xayrli kech!'; Guten Morgen! 'Assalomu alaykum, Xayrli tong!'. kabi turg'un frazeologik birliklar.

4. Turli yaxshi tilaklarni ifodalovchi gaplashgan frazeologik birliklar:

1) Oq yo'l tilashni ifodalovchi gaplashgan iboralar: Angenehme Reise! 'Oq yo'l!'; Glücklichen Rutsch! 'Safaringiz bexatar bo'lsin!'; Glück auf den Weg! 'Oq yo'l!, Yaxshi boring!, Ishingiz xayrli bo'lsin!'; Gute Reise! 'Oq yo'l!'; Mit Glück! 'Yaxshi boring!';

2) Yoqimli dam olish tilagini bildiruvchi frazeologiyalashgan gaplar: Angenehme Ruhe! 'Yaxshi dam oling!'; Möge deine Reise glücklich verlaufen! 'Sayohating chiroyli o'tsin!';

3) Biror kishiga sog'lik, muvaffaqiyat, baxt, omad, ezgulik tilaklarini ifodalovchi gap frazeologik birliklar: Behüt dich Gott! 'Xudo asrasin!'; Laß es dir gut (wohl) bekommen! 'Bu sening foydangda bo'lgan!'; Gehab(e) dich wohl! 'Sog' bo'!'; Zur gesundheit! 'Salomat bo'ling!'; Er lebe hoch! Er soll leben! 'Uning sog'ligi uchun!'; Mögest du glücklich sein! 'Baxtli bo'!';

4) Biror kishiga, biror narsada omad tilash: Ich wünsche Ihnen ein gutes Fortkommen! ‘Sizga muvaffaqiyat tilayman!’; Guten Erfolg! ‘Muvaffaqiyat tilayman!’; Glück zu! ‘Omad sizga!’;

5) Bemor kishiga shifo topishni, sog‘ayib ketishini bildiruvchi tilaklar: (Ich wünsche Ihnen) gute (baldige) Besserung! ‘Tez sog‘ayib keting!’; Gute Besserung! ‘Sog‘ayib keting!’;

6) Yoqimli ishtaha tilagini bildiruvchi frazeologiyalashgan gaplar: Wohl bekomm’s! ‘Osh bo‘lsin!’; Ein gedeihliches Mittagessen allerseits! ‘Yoqimli ishtaha!’; Guten Appetit! ‘Yoqimli ishtaha!’; Gesegnete Mahlzeit! ‘Osh bo‘lsin, Yoqimli ishtaha!’; Prosit Mahlzeit! ‘Osh bo‘lsin, Yoqimli ishtaha!’. Bunda hazil-mutoyiba tusga ega bo‘lgan gaplashgan frazeologik birliklar ham uchraydi: Guten Hunger! ‘Yoqimli ishtaha!’. Ushbu turga qadah ko‘tarishda ishlatiladigan frazeologiyalashgan gaplar ham kiradi: Die wir meinen! ‘Barcha qadrdon insonlarning sog‘ligi uchun!’; Prosit allerseits! ‘Barchalarning sog‘ligi uchun!’;

7) Birovga dalda berish, biror kishiga ishlarida muvaffaqiyat tilash,: Mach nur so fort! ‘Shu alfozda davom ettir!’; Glück zu! ‘Omad tilayman!’;

8) Qutlash ko‘rinishidagi frazeologiyalashgan gaplar: Meinen herzlichsten Glückwunsch! ‘Chin yurakdan tabriklayman!’; Prosit Neujahr! ‘Yangi yilingiz bilan!’; Glücklichen Rutsch ins Neue Jahr! ‘Yangi yilingiz bilan!’.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan frazeologiyalashgan gaplarning ayrimlari uchun ma’lum semantik ko‘pvazifalik xos. U turli nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, frazeologiyalashgan gaplar Guten Abend! Salomlashishda va xayrlashishda ‘Xayrli tun!’ ma’nosini beradi; Mein Beileid ‘1) Men sizga chuqur ta’ziyamni bildiraman!, 2) kinoyali: tabriklayman!’; Wie beliebt? ‘1) Xizmat? 2) Iltimos, qaytaring’.kabi ma’nolarda qo‘llaniladi.

Frazeologiyalashgan gaplarning ko‘pvazifaliligi ham semantik xarakterga ega bo‘lishi mumkin [Safarov Sh., 1989, 142-146]. Qiyoslang: gap strukturali frazeologik birlik kinoyali tus bilan yoki usiz amalga oshirilgan holatlar: Das ist (doch) einzig! ‘Qoyil! Ajoyib!’. Ancha murakkab ma’noga hamda ikkita alohida semantik tus sinteziga ega bo‘lgan gap strukturali frazeologik birliklar semantik ko‘pvazifalilik turlaridan dalolat beradi. Misol uchun, ushbu holat a) xayrlashish va b) yaxshi dam olish tilagi ma’nolarini bildirgan Geruhsame Nacht! ‘Xayrli tun!’ gap strukturali frazeologik birlikka xos. Shunga mos ravishda, bir xil so‘zlashuv vaziyatda bitta obrazni yetkazib berishda semantik-modal tus orqali farqlanuvchi bir-biriga sinonim gap strukturali frazeologik birliklari qo‘llanilishi mumkin. Qiyoslang: Glückliche Reise! va Glücklichen Rutsch! ‘Oq yo‘l!’sinonimlar juftidan ikkinchi gap strukturali frazeologik birligi hazil-mutoyiba tusga ega.

5. Biror narsa yoki biror kishi borasida zavqlanishni, xursandlikni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar: Alle Achtung! ‘Zo‘r! Juda soz!, Gap yo‘q!’; Das ist Marke! ‘Juda ham yaxshi! Juda soz!’; Das ist ein wahres Meerwunder! ‘Bu haqiqiy mo‘jiza!’.

6. Biror kishiga murojaatni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar: Alter Schwede!, Alter Junge! ‘Og‘aynim! Birodar!’; Mein Bester! ‘Azizim!’; Meine Beste! ‘Azizam!’; Alter Bursche! ‘Do‘stim!’; Gnädige Frau!, Gnädiges Fraulein! ‘Xonim!,

Muhtarama xonim!'; Gnädiger Herr! 'Taqsir!, Muhtaram janob!'; Altes Haus! 'Og'aynim!, Do'stim!'; Guter Mann! 'Azizim!'; Mein Herr! 'Taqsir!, Muhtaram janob!'; Meine Herren! 'Janoblar!, Muhtaram janoblar!'; Meine Damen und Herren! 'Xonimlar va janoblar!'; Mein Herzchen! 'Jonim!'; Alter Knabe! 'Hoy, otaxon!'; Liebe Leutchen! 'Do'stlarim! Azizlarim!'; Lieber Mann! 'Qadrli do'stim!'; Meine Maus! 'Sevgilim!'; Mein Mäuschen! 'Jonginam!'; Mein Schatz! 'Bebahoginam!', 'Mening xazinam!'

7. Ma'lum shaxsni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar [Chernisheva I. I., 1974, 155-160]: Das ist ein Kerl 'Irodali odam, Bu haqiqiy yigit!'. Bunda marhamat, rahm semantikasini kuchaytiruvchi turli modal tuslar ifodalanadi. Qiyoslang: shaxslarni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar: Ein armes Luder 'Bechora, sho'rlik'; Die guten Leutchen! 'Bechoralar!'. Yoki bunday gap strukturali frazeologik birliklar shaxsni kamsitib, xo'rlab baholaydi: So ein Luder! 'Yaramas!'; Ein freches Luder 'Surbet' va hoqazo, haqoratlab so'kishlargacha: Ein Luder von eines Frauenzimmer 'Yaramas ayol'. Ushbu tavsiflar uchinchi shaxsga mo'ljallangan. Biroq bunday semantikaga ega gap strukturali frazeologik birliklar bevosita suhbatdoshga nisbatan ishlatilishi mumkin: Du armes Kind! 'Bechoragina!'. Suhbatdoshni yoki umuman ma'lum bir shaxsni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar alohida ajralib turadi: Das ist eine Marke! 'G'alati odam!'; Der Junge ist nicht von Papp! 'Bu yigit ahmoq emas!'. Ular suhbatdoshning (gapirayotgan shaxsning) o'ziga nisbatan ham ishlatilishi mumkin: Ich Armer! 'Men notavon!'. Bunday gap strukturali frazeologik birliklardagi tavsiflar nemis tilida qo'shimcha semantik-modal, ko'pincha hazil-mutoyiba tusni o'z ichiga oladi: Du armes Würstchen! 'Bechoraginam!'; Hier hängt er! 'Mana man!'. Umuman olganda, shaxsni tavsiflovchi gap strukturali frazeologik birliklar uchun hazil-mutoyiba modal tusining mavjudligi o'ziga xos hisoblanadi. Qiyoslang: Er ist kaum drei Käse hoch 'Hali juda kichkina, mitti!'

8. So'zlovchi tomonidan minnatdorchilik yoki so'zlashuv vaziyatdagi sherigining ish-harakatlariga berilgan bahoni yuqori darajada ifodalangan gap strukturali frazeologik birliklar: Das war sehr anständig von Ihnen 'Juda marhamatli ekansiz', 'Marhamatingizning cheki yo'q'.

9. Adresatga so'zlovchi uchun biror narsani qilish, bajarishga da'vatni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar. Odatda bunday gap strukturali frazeologik birliklar replika so'ngida qo'llaniladi, misol uchun: Tu mir die Liebe an! 'Iltimos, men uchun buni qilib qo'y!'

10. Ma'nosida minnatdorchilik yoki madh [Yaxshiev A. A., 2021, 74] qilish umumlashgan tarzda berilgan gap strukturali frazeologik birliklar: Gott sei Dank! 'Xudoga shukur!'; Dem Himmel sei Dank! 'Xayriyat!'; Gott sei Lob und Dank! 'Xudoga shukur!'. Bunda ushbu gap strukturali frazeologik birliklar hazil-mutoyiba tusini o'z ichiga olishi mumkin: Dem Hergott sei (es) getrommelt und gepfiffen!

Adresat uchun yoqimli, ma'qul narsani ta'kidlovchi iboralar o'z semantikasi bo'yicha yaxshi niyat gap strukturali frazeologik birliklarga yaqinlashadi. Bunday gap strukturali frazeologik birliklar so'zlovchi tomonidan xotirjam tarzda, hech qanday hissiy hayajonlarsiz talaffuz etiladi, qiyoslang: Du bist d(a)ran! 'Omading keldi!'

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафаров Ш. О дискурсивно-прагматической директивных речевых актов // Текст: структура и анализ. –М., 1989. –С. 142-146.
2. Чернышева И. И. Текстобразующие потенции фразеологических единиц // Лингвистика текста, ч. II. –М., 1974. –С. 155 -160.
3. Чернышева И. И. Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede. – М.: Высшая школа, 1980. –144 с.
4. Яхшиев А. А. Немис тили оғзаки нутки тизимида фразеологик бирликларнинг семантик-дискурсив мақоми: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Самарқанд, 2021. –74 б.

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA PAREMIYA BIRIKMALARI

U. Mamatjonova.

SamDCHTI akademik litsey fransuz tili o'qituvchisi

Paremiya birliklari tilning mazmunli, ta'sirchan bo'lishini taminlovchi birliklari bo'lib, ular har qanday tilning uslubiy-bo'yoqdorlik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi boy manba hisoblanadi. Ularga maqollar, matallar, aforizmlar kiradi. Paremiya birikmalari tilning ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganilishi zarur bo'lgan birligi hisoblanadi. Maqol va matallar-xalq og'zaki ijodining qadimgi janri. Ular kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va o'z ildizlari bilan o'tmish asrlarga borib taqaladi. Ularning ayrimlari hali yozuv paydo bo'lmagan davlarda yaratilgan. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli majmuasidir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo'lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Har bir maqolning vujudga kelishi biror bir ibratli voqea ta'sirida hosil bo'ladi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit –turk” asarida shunday maqol mavjud “Besh qo'l barobar emas”, “Xo'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq”, “Ot kuragidagi yag'ir, bolalariga meros bo'lib qoladi”,²⁴ Maqol arab tilidagi “qavlun” so'zidan olingan bo'lib, so'z tushunchasini anglatadi. Maqol atamasini hikmatli so'z ma'nosida qabul qilish mumkin. Xalq og'zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyo olimlari maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo'lgan munosabati aks etganligini alohida takidlaydilar. Haqiqatdan ham, agar o'zbek xalq maqollariga murojaat etsak, bu fikr nechog'lik to'g'ri ekanligiga ichonchimiz komil bo'ladi. “Tulki o'z uyasiga qarab xursa qutir bo'ladi” maqolida ajdodlarimizning o'z vataniga bo'lgan hurmati, vatanni talash emas, balki himoya qilish kerakligi haqida fikr aks etgan. Ma'lumki, maqollar shaklan ixcham, mazmunan keng, obrazli va yaxlit, barqaror ohangga ega bo'lganligidan nutqda, ayniqsa, badiiy va publitsistik matnlarda alohida qimmat kasb etadi. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq obrazli qilib ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashda juda ham qo'l keladi. Zabardast tilshunos olim, akademik Sh.Shoabdurahmonov o'z vaqtida ta'kidlaganidek, «o'zbek tili maqollarga juda boy. Bu

²⁴ Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi. – T., 2019., -2107 b.

maqollar asrlar qanotida avlodan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib, sayqal topib, yana jilolanib bizning davrimizgacha yetib kelgan. Shu qanotda yana asrlar osha kelajak avlodlarga ham uchib boradi va ularni xalq hikmatlarining muattar bo'yidan bahramand qiladi». Xalqimiz donishmandligining bu turini to'plash va tadqiq etish borasida katta xizmat qilgan olimlar - Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar mana bunday deb yozadilar: «Dono fikrni, o'tkir haqiqatni, teran mazmunni, so'z xazinasining dur-u javohirlarini o'zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv (ya'ni ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir». Shuning uchun ham so'z san'atkorlari o'z asarlarida xalq donishmandligining o'ziga xos mahsullari bo'lmish bunday birliklarga qayta-qayta murojaat qiladilar, bu borada o'zlarining mahoratlarini namoyish etadilar. Har qanday badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarning o'ri beqiyosdir. Chunki «maqolda voqelikning o'zi emas, balki voqelik haqida xalqning hukmi, xulosasi aks etadi».

O'zbek mumtoz adabiyotida maqoldan foydalanishning go'zal namunalarini ko'rish mumkin. Taniqli navoiyshunos olim, akademik A.Rustamov yozganidek, «badiiy nutqda maqoldan foydalanish ham san'at hisoblanib, unga «irsolu-l-masal» yoki «irsol-i masal» deyiladi».

Fransuz maqollari boshqa xalqlarning maqollari singari qator yillar davomida og'izdan-og'izga o'tib sayqallanib keldi. Ularda fransuz xalqining ma'naviyati, o'tmish tarixi, intilish va qiziqishlari, kundalik turmushdagi hodisa va voqealarga munosabatlar aks etgan. Biroq Fransiya xalqining maqollarining aynan o'ziga xos ayrim xususiyatlari borki, bu narsa mazkur maqollarni boshqa xalq maqollari mazmun va mohiyatidan keskin farqlanadi. Maqol va matallar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini ixcham va tugal tarzda ifodalalar ekan, ularda so'zlarning turlicha ma'nolarda ishlatilishini kuramiz. Fransuz maqol va matallari o'zida ma'lum bir hikmatni tashir ekan bu iborali so'zlar ham she'riy tarzda ham nasriy yo'lda yaratilganligiga, maqollarning ifodali, badiiy chiqishi uchun ko'plab poetik vosita va san'atlardan foydalanilganligiga amin bo'lamiz. Fransuz xalq maqollarini o'rganish davomida, ularning boshqa boshqa xalq maqollaridan bir necha jihatlari bilan o'ziga xos tarzda farqlanishini ko'ramiz. Binchidan fransuz maqollarining ko'pchiligi tuzilishi jihatidan o'zbek maqollari singari she'riy tarzda emas, balki, nasriy yo'lda yaratilgan.

Il n'y a que les montagnes qui ne se rencontrent jamais—Tog' tog' bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashar

Il n'y a pas de fumée sans feu —Tutunsiz olov bo'lmas

Ikkinchidan, fransuz maqollarining ayrimlarida o'zbek maqollari uchun shartli hisoblangan xulosa, hukm aks etmasligi ham mumkin. Bunday iboralar janr hisoblansa, ularning nomi matal bo'ladi. Chunki o'zbek xalq maqollarida malum bir voqea hodisa haqida qat'iy hukm xulosa chiqariladi. Bundan anglashiladiki, fransuz xalq maqollari uchun hukmning bo'lishi shart emas. Hukmsiz aks etgan biroq hikmat, ibrat ma'nolarini tashuvchi kichik so'z birikmalari ham fransuz xalq maqollari sirasiga kiradi. Fransuz xalq maqollari tabiiyki qadimgi va zamondoshlarimiz bo'lgan fransuz xalqi yashagan yoki

yashayotgan muhit, ijtimoiy hayotlarida sodir bo'lgan yoki bo'layotgan voqea hodisalarni va xalqning ularga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi. Qaysidir ma'noda o'zlari mansub bo'lgan xalqning tafakkur darajasini bildirishlari bilan birga xalqning mentalitetini ham o'zlarida namoyon etishadi. Bu ta'limot mohiyatida g'am nadomat singari pessimistik tushunchalar yotadi. Aynan shu holat fransuz san'atining yetakchi turlari roman yoki badiiy filmlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Fransuz xalq maqollari xalqning kechmishlari turmush tarzidan kelib chiqqan holda paydo bo'lgan bo'lib, unda turli hayvonlar, mehnat qurollari tasvirlarini ko'plab uchratish mumkin.

les chiens aboient, la caravane passe —It hurar, karvono'tar

Qui a langue, va à Rome —Til bilgan Rimga boradi.

L'eau va toujours à danser la rivière (suv doim daryoga oqadi)- Pul pulni paydo qiladi.

Un âne chargé d'or ne laisse pas de braire (oltin bilan to'ldirilgan eshak hangrashdan to'xtamayapti)-

Fransuz maqollari bilan solishtirganda o'zbek maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang barangligi ma'lum bo'ladi. O'zbek tilidagi maqollar yaratilishi jihatidan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimizning ijodini tashkil etadi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit- turk" asarida kitobni "hikmatlar so'zlar,saj'lar, maqollar, rasaj va nasr deb atalgan adabiy parchalar" bilan bezaganligini aytadi.

Xalq maqollari epik va lirik janrlardan nafaqat o'zining kichik hajmi bilan balki,ularda jamoaviylik xususiyati ham yoqqol namoyon bo'ladi. Ko'pchilik odamlar oddiy kundalik hayotda turli masalalarga oid maqollarni bema'lol qo'llashadilar, biroq doston, ertak va qo'shiq janrlaridan shu jihatda foydalabib bo'lmaydi. Fransuz va o'zbek tilidagi maqollarni solishtirganimizda ularning birida bor bo'lgan maqolni boshqasida ham uchratishimiz mumkin shuningdek qisman to'g'ri keladiganlarini ham shuningdek umuman mos keladigan birida bo'lgan maqolning ekvivalenti boshqasida uchramasliga ham mumkin. Umuman, xalq og'zaki ijodi namunalaridan sanalmish maqol va matallar keng auditoriyaning ham axloqiy, ham tarbiyaviy-estetik jihatdan ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi. – T., 2019.
2. Dictionnaire de l'argot. J.-P. Mével, Larousse, 1992.
3. Dictionnaire des expressions et locutions. A. Rea, S. Chantreau. P., 1984.
4. Бабкин А.М. Фразеология и лексикография // Проблемы фразеологии. М.;
5. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: Изд-воиностр. Лит., 1955.
6. Богин Г. И. Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов. Л., 1984.

ИНГЛИЗЧА ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ ТАРЖИМАВИЙ-ПРАГМАТИК ТАҲЛИЛИ

М.Мустофақулова
ЖДПУ.

Annotation

The pragmatic and translational analysis of the verb “talk” and the definition of its synonymic lexemes have been carried out in terms of semantics and translation in the paper. Connotative and denotative shades of meanings of synonymic lexemes are discussed as well.

Keywords: connotative, denotative, pragmatic, verb, analysis.

Сўз туркумлари — тилдаги сўзларнинг ўзаро умумий категориялар маънонинг, грамматик категориялар ягона тизимининг, ўзига хос сўз ўзгариш, шакл ва сўз ясашиш типларининг, синтактик вазифалар умумийлигининг мавжудлигига қараб ажратиладиган гуруҳларидир.

Демак, сўзларни гуруҳларга, туркумларга ажратишда асосан уларнинг синтактик, морфологик ва маъновий (семантик) хусусиятларининг ўхшашлиги ҳисобга олинади. Сўз туркумлари аввало 2 асосий гуруҳга бўлинади:

1. Мустақил сўз туркумлари; бу гуруҳга ўзбек тилида мустақил сўзлар яъни от, сифат, сон, феъл, равиш ва олмош кабилар киради.

2. Ёрдамчи сўз туркумлари — кўмакчи, боғловчи, юклама [“Большой Англо-Русский Фразеологический словарь” М. 1984; 36].

Инглиз тилидаги барча сўзлар англатган лексик-грамматик маъноси, морфологик фпрмаси ва ўзаро синтактик алоқага киришиши ҳамда гапдаги вазифасига кўра маълум гуруҳларга бўлиниб, улар грамматикада сўз туркумлари деб юритилади. Инглиз тилидаги сўз туркумларини турли олимлар турлича талқин қиладилар. Масалан: Диониский ўзидан аввалги олимларнинг фикрига таяниб, сўзларни қуйидаги саккизга туркумга ажратади [қ.: Бўронов Ж.Б. “Инглиз тили ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси”. Т.,1973; 28]:

1. От,
2. Феъл,
3. Сифатдош,
4. Артикл,
5. Олмош,
6. Предлог,
7. Равиш,
8. Боғловчи.

Феъл сўз туркуми — ҳаракат билдирувчи сўзлар туркуми. Грамматикада “ҳаракат” сўзи кенг тушунчали бўлиб, нафақат ҳаракатни, балки ҳолат ёки ҳодиса (умумий маънода, ҳар қандай акт)ни ҳам билдиради. Масалан: *югурмоқ, йигламоқ, ухламоқ, ўйламоқ, севмоқ* ва бошқалар.

Феъллар луғавий маъно (денотатив маъно)га эга ёки эга эмаслигига кўра 2 турга бўлинади: 1) мустақил феъллар; 2) ёрдамчи феъллар. Мустақил феъллар, луғавий маънога эга бўлиб, гапнинг мустақил бўлаги вазифасида (синтактик функция) кела олади. Ёрдамчи феъллар луғавий маънога эга бўлмайди. Улар турли ёрдамчи вазифалар (функционал вазифа)да келиб, турли кўшимча (функционал) маънолар ифодалаш учун хизмат қилади ёки бир-бирига синоним ҳам бўлиб келиши мумкин. Ўз навбатида, айнан бир ақтни ифодалаш учун турли маънодош сўзлардан ҳам фойдаланиш мумкин бўлади. Масалан: ўзбек тилидаги *сакрамоқ* ақтини инглизча *to jump, to leap, to spring, to bound* каби феъллар орқали ифодалаш мумкин. Аммо, таржимада уларнинг умумий денотатив маъносидан ташқари коннотатив маъносини ҳам инобатга олиш адекват таржимага эришиш учун муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, бу ҳолат *синонимик қатор*ларни таржимада беришда ҳал қилувчи вазифани ташкил этади.

1. Синоним — маънолари бир хил ёки бир-бирига яқин бўлган, айтилиши ва ёзилиши жиҳатидан турли шаклларга эга бўлган сўзлар тизмасига *синонимлар* дейилади. Синоним аслида грекча “номдошлик, бир хил номлилиқ” демақдир. Шунга караганда, юқоридаги таъриф синонимларнинг моҳиятини тўла очиб бера олмайди. Шунинг учун денотатив маъноси бир хил, коннотатив маъноси (кўшимча маъно оттенкаси, семантик бўёғи) ва бошқа хусусиятлари фарқли бўлган сўзларга синонимлар дейилади деб ҳам таъриф берилади [“Большой Англо-Русский Фразеологический словарь” М. 1984;36]. Масалан: *жамол, ораз, рухсор, чеҳра, юз, бет, афт, башара, турқ; чиройли, гўзал, кўркам; илжаймоқ, жилмаймоқ, тиржаймоқ, ишшаймоқ* каби.

Инглиз тилида “talk” сўзининг тадқиқотда аниқланган 23 та синоними мавжуд [қ.: Albert Rowe, Joan Rowe, The Word Finder, 1987: 725]. Бу сўз ушбу синонимик қаторда доминанта ҳисобланади. Келтирилган синонимик қатор бирлик (лексема)лари учун умумий бўлган семантик маъно, яъни уларнинг семантик матрицаси ядросини “субъектнинг оғзаки ёки ёзма нутқий ҳаракат(акт, фаолият)и” ташкил этади.

Ушбу мақолада улардан айримларининг таржимавий-прагматик таҳлилини амалга оширамиз.

Улар куйидагилар:

1) To address — 1. Денотатив маъноси: суҳбатлашмоқ, гаплашмоқ; 2. Коннотатив маъноси: расмий мурожаат қилмоқ, йўлламоқ. Масалан: The President Mirziyoyev addressed to the Oliy Majlis (Parliament) on Dec. 28, 2018 [қ.: The Tashkent Times.2018]. Ушбу гапда “addressed” феъли *мурожаат қилишнинг расмийлигининг* деган коннотатив маънони билдиради.

2) To blurt out — 1. Денотатив маъноси: айтмоқ, демоқ; 2. Коннотатив маъноси: дабдурустдан, ўйламасдан айтмоқ, беихтиёр оғзидан чиқиб кетмоқ. Масалан: Finally, he *blurted out* what was really on his mind [sentencedict.com] — Ушбу феълли бирикмани, коннотатив маънони ҳисобга олмасдан, денотатив маъноси бўйича таржима қилинса, у ҳолда “У ҳаёлидаги нарсани айтди” қабалидаги гап юзага

келади. Бизнингча эса прагматик нуктаи назардан тўғри таржима куйидагича бўлган бўлар эди: “*Ваниҳоят, унинг ҳаёлидаги нарса озгидан чиқиб кетди*”.

3) To chatter — 1. Денотатив маъноси: гапирмоқ, демоқ; 2. Коннотатив маъноси: валдирамоқ, алжирмоқ, вайсамоқ. Масалан: I could hardly talk, my teeth were *chattering* so much [www.sentencedict.com]. Ушбу гапда “chatter” феъли *шақирламоқ* коннотатив маъносини беради яъни “Тишларим шунақанги *шақирлардики*, мен зўрға гапирардим”. Денотатив маъносида эса “Тишларим шунақанги гапирардики, мен зўрға гапира олардим” деб таржима қилинган бўлар эди.

4) To consult — 1. Денотатив маъноси: гаплашмоқ, маслахатлашмоқ, сўраб билмоқ; 2. Коннотатив маъноси: қараб билиб олмоқ, суриштирмоқ, қулоқ солмоқ, назар солмоқ. Масалан: But my dear child, *consult* only your own heart [қ.: Leo Tolstoy, War and Peace, 1941: 25]. Агар ушбу гапда феъл денотатив маъноси бўйича таржима қилинса, у ҳолда “*Лекин болам, фақатгина юрагингдан сўра*” маъноли гап юзага келади. Аслида эса прагматик нуктаи назардан тўғри таржима куйидагича бўлган бўлар эди: “*Бироқ болам, фақатгина юрагинга қулоқ сол*”.

5) To converse — 1. Денотатив маъноси: гаплашмоқ, суҳбатлашмоқ; 2. Коннотатив маъноси: расмий суҳбатлашмоқ. Масалан: Deaf people can *converse* sign language [manythings.org]. Ушбу феълни денотатив ҳамда коннотатив маънолари деярли бир хил яъни “Қар инсонлар тил ишоралари орқали гаплашадилар”.

6) To declaim — 1. Денотатив маъноси: расмий усулда ифодали қилиб ўқиб бермоқ, айтмоқ; 2. Коннотатив маъноси: жахл билан гапирмоқ, бақириб гапирмоқ. Масалан: Anyone can *declaim* about these things, but I pin my faith to material interests [wordhippo.com]. Бу гапдаги *declaim* феълни денотатив маъноси билан таржима қилинса, у ҳолда “Ҳар ким бу нарсалар ҳақида айта олади, лекин мен эътиборимни материал қизиқишларига қаратдим” деб таржима қилинарди. Прагматик нуктаи назардан эса таржима куйидагича бўлар эди: “Ҳар ким бу нарсалар ҳақида *баралла жар сола олади*, лекин мен эътиборимни материал қизиқишларига қаратдим”.

7) To gush — 1. Денотатив маъноси: гапирмоқ, мақтамоқ; 2. Коннотатив маъноси: нутқда кўпиртириб ёки бўрттириб гапирмоқ. Масалан: I wished Mummy wouldn't *gush* over Peter's little success at school; it makes him feel a fool in front of his friends [snetencedict.com]. Бу гапда *gush* феъли кўпиртириб мақтамоқ деган коннотатив маънода келаяпти. Денотатив маънода эса шунчаки айтди, мақтади деган бўлар эдик, бу эса вазиятни қабул қилувчига тўғри етказа олмаган бўлар эдик.

8) To harangue — 1. Денотатив маъноси: баланд овозда гапирмоқ, уқтирмоқ; 2. Коннотатив маъноси: бақириб сўзини ўтқизмоқ, мажбурлаб кўндирмоқ. Масалан: A drunk in the station was *haranguing* passer-by [sentence.yourdictionary.com]. Ушбу феълни, коннотатив маънони ҳисобга олмасдан, денотатив маъноси бўйича таржима қилинса, у ҳолда “*Бир алкаш йўловчиларга баланд овозда гапирарди*” қабилидаги гап юзага келади. Бизнингча эса прагматик нуктаи назардан тўғри таржима куйидагича бўлган бўлар эди: “*Бир алкаш йўловчиларга ўшқирарди*”.

9) To pontificate — 1. Денотатив маъноси: қатъий гапирмоқ, уқтирмоқ; 2. Коннотатив маъноси: Сўзини ўтқизмоқ, жар солмоқ. Масалан: There are lots of people

in Washington who pontificate on the issue of the day [wordsinasentence.com]. Ушбу феълни, коннотатив маънони ҳисобга олмасдан, денотатив маъноси бўйича таржима қилинса, у ҳолда *“Вашиントンда кун масаласи бўйича гапирадиган инсонлар кўп”* қабилидаги гап юзага келади. Бизнингча эса прагматик нуқтаи назардан тўғри таржима қуйидагича бўлган бўлар эди: *“Вашиントンда кун масаласи бўйича жар соладиган инсонлар кўп”*.

10) To prattle — 1. Денотатив маъноси: гапирмоқ, гаплашмоқ; 2. Коннотатив маъноси: алжирамоқ, вайсамоқ. Масалан: Don't prattle with this woman, he cautioned with himself [sentencedict.com]. Ушбу феълни, денотатив маъноси бўйича таржима қилинса, у ҳолда *“Бу аёл билан гаплашма, у ўзини огоҳлантирди”* маъносидаги гап юзага келади. Бизнингча эса прагматик нуқтаи назардан тўғри таржима қуйидагича бўлган бўлар эди: *“Бу аёл билан валақлашма, у ўзини огоҳлантирди”*.

11) To spout — 1. Денотатив маъноси: гапирмоқ, гаплашмоқ; 2. Коннотатив маъноси: гап сотмоқ, валақлашмоқ, вайсамоқ. Масалан: He spouts a load of pretentious nonsense and people are stupid enough to believe him! [қ.:Cambridge, Advanced Learner's Dictionary, third edition;]. Ушбу феълни, денотатив маъноси бўйича таржима қилинса, у ҳолда *“У шунақанги кўп гаройиб сафсаталар ҳақида гапирардики, инсонлар эса унга шиошига етарлича аҳмоқдирлар”* маъносидаги гап юзага келади. Бизнингча, эса прагматик нуқтаи назардан тўғри таржима қуйидагича бўлган бўлар эди: *“У шунақанги кўп гаройиб сафсаталар ҳақида гап сотардики, инсонлар эса унга шиошига етарлича аҳмоқдирлар”*.

Хулоса ўрнида, ўтказилган таҳлил натижаларидан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, таржимон матн устида ишлаш жараёнида асар муаллифининг коммуникатив истагини тўлиқ тушуниб олиши керак. Ҳар қандай матн нимадандир хабар беради, қандайдир маълумотни ўз ичига олган бўлади. Ўқувчи яъни рецептор ўша маълумот ёки хабарга диққат қилмаса, унда матннинг коммуникатив вазифаси адо этилди деб бўлмайди. Ўша маълумот ёки хабарга эътибор қаратиб, уни ўзлаштирган рецептор ўз-ўзидан мазкур матнга муносабат билдирган бўлади. Муносабат турлича, салбий ёки ижобий, хайратланиш ёки жирканиш каби турли эмоционал-экспрессив ҳолатларда кўриниши мумкин экан. Рецепторнинг матнга нисбатан пайдо бўлган муносабати прагматик муносабатларни пайдо қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бўронов Ж.Б. “Инглиз тили ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси”. Т.,1973;28
2. “Большой Англо-Русский Фразеологический словарь” М. 1984; 36
3. Albert Rowe, Joan Rowe, “The Word Finder”, 1987: 725
4. The Tashkent Times.2018
5. sentencedict.com
6. Leo Tolstoy, “War and Peace”, 1941: 25
7. manythings.org
8. Cambridge, Advanced Learner's Dictionary, third edition

9. Mustafakulova Maftuna. (2020). *Lingua-Pragmatic and Translational Analysis of the Synonymic-Line of the Verbs “To Look” and “Қарамоқ ” in the English and Uzbek Languages*. *International Journal of Advanced Science and Technology*, Vol. 29, No. 7, (2020), pp. 8749-8751

10. Mustofakulova, M. (2022). *THE CHALLENGES AND DIFFICULTIES IN TEACHING WRITING: THE CHALLENGES AND DIFFICULTIES IN TEACHING WRITING*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(1).

11. Maftuna Mustofakulova.(2022). *The positive, neutral and negative connotative senses of the adjective “sly” in translating from english into uzbek*. *O‘zbekiston milliy universiteti xabarлари*, 244-246.

ZAMONAVIY INTERNET MEDIA NUTQIDA FRANSUZCHA JARGON SO‘ZLAR

M.A.Allaberganova

SamCHTI ,lingvistika ,fransuz tili yo‘nalishi magistranti

***Abstract:** This article, information is provided about slang phrases and words that are often used in French, one of the most beautiful languages in the world, and their Uzbek translation options are analyzed.*

***Key words:** slang, eat, a guy, a girl, friend, being lazy*

Til- eng ulug‘ va buyuk ahlning zukko tafakkuriga ham birdek xizmat qilaveradigan ne‘matdir. Turli millat vakillari orasida do‘stlikni, hamkorlik aloqalarini tamirlab beruvchi eng chiroyli vositadir. Hech kimga sir emaski bugungi kunda jamiyatdagi barcha tabaqa vakillari yoshi, qiziqishlari, kasbidan qati nazar chet tillarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratyabdi. Aynan fransuz tilini oladigan bo‘lsak ,fransuz tili dunyodagi eng chiroyli va betakror tillardan biri hisoblanadi. Albatta, bu tilni o‘rganayotgan o‘rganuvchi fransuz tilida ravon gapirishni orzu qiladi, shunday emasmi? Ammo haqiqat shundaki, biz maktabda va darsliklarda o‘rganadigan fransuz tili mahalliy odamlar gapiradigan fransuz tiliga o‘xshamaydi. Nima uchun? Chunki bu tilda so‘zlashuvchlar kundalik suhbatlarida jargon so‘zlardan ko‘proq foydalanadilar.

Jargon (fransuzcha jargon – safsata) – biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos muloqotida uchraydigan so‘zlar va atamalarni ifodalaydigan tushuncha. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi, turli sheva hamda lahjalardan farq qiladi. Ko‘p hollarda, jargon inson ma‘naviyatidagi salbiy qusurlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Uni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralastirmaslik lozim. Jargon barqaror bo‘lmaydi, u ham til, ham uslubiy jihatdan turli-tuman va tezda o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Yoshlar orasida «ketdim» o‘rnida «sirpandim», «pul» o‘rnida «soqqa»; «pul» o‘rnida «yakan» va shu kabi jargonlar uchraydi.

Jargon ba‘zida badiiy ijodda asar qahramoni xususiyati, tabiatini ochib berish uchun xizmat qiladi, jargonlar turli tillarda so‘zlashuvchi xalq vakillarining bir-birlari bilan aloqa qilishida yoki turli xalq vakillari yig‘iladigan joylar (masalan, chegara, portlar)da ham

paydo bo'ladi. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan bo'lsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli bo'ladi, shu toifadagilarning vaziyat, sharoit taqozosiga ko'ra boshqalardan yashirin tutiladigan maqsadlariga xizmat qiladi.

Agar siz fransuz tilida gapirishni istasangiz, fransuz tilini o'rganishingizda bazi mashhur jarangli iboralardan foydalanishingiz mumkin. Tilni o'zlashtirgandek his qilish uchun har bir fransuz jargon atamasini bilish shart emas. Hatto ulardan bir nechtasini bilish va ularni suhbat paytida qo'sha olish ham suhbatdoshlaringizga juda ta'sirli bo'ladi.

Shuning uchun bu maqolada qo'llash yordam berish uchun fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda qo'llaniladigan mashhur jarangli so'zlar va iboralar ro'yxatini ko'rsatib o'tamiz.

Masalan; fransuz tilidagi mashhur jargon so'zlar:

1. Bouffer (manger)-yemoq

Bouffer fe'li fransuz tilidagi "yemoq" fe'lining o'rnini bosuvchi jargon so'z bo'lib, u manger so'zining o'rnida ishlatiladi. Biroq, ko'ngil aynish haddan tashqari, hatto ochko'zlik bilan ovqatlanish kabi tarjima qilishimiz mumkin. Bu so'z yoshlar va o'smirlar tomonidan ko'p qo'llaniladi.

Masalan: Je vais bouffer: je vais manger. (men hozir ovqatlanaman)

Siz "ovqat" degan ma'noni anglatuvchi *une bouffe* atamasini ham eshitishingiz mumkin.

2. Un mec -yigit

Bu jargon atama oddiy va eslab qolish juda oson. Yigit erkak jinsdagi odamni nazarda tutadi. Siz erkak do'stlaringizga ham, yigitingizga ham *mec* atamasi bilan murojat qilishingiz mumkin. Bu ingliz tilidagi "bro" so'ziga o'xshaydi.

3. Un truc (une chose)-narsa/buyum

Bu so'zni kundalik internet tarmoqlarida, fransuzlar suhbatida juda tez-tez ishlatiladi. Un truc fransuzcha "narsa" so'zi uchun norasmiy so'zdir. Odatda, biz nomini endi eslay olmaydigan obyekt haqida gapirish uchun ishlatiladi. Biz ushbu jargon atamadan "*ce n'est vraiment pas mon truc* (bu haqiqatan ham meniki emas)" deyish uchun ham foydalanishingiz mumkin. Bu media sohasida ham juda ko'p foydalaniladi.

4. Une meuf (une femme, une fille, une nana) - ayol, qiz

Siz ayol kishiga yoki qiz do'stingizga murojaat qilish uchun "*meuf*" so'zidan foydalanishingiz mumkin. *Meuf* aslida fransuzcha *femme* (ayol) so'zi o'rnida ishlatiladi.

5. Un bordel (un gros gâchis) -chalkashlik, katta tartibsizlik

Agar siz ushbu so'zni so'zma-so'z tarjima qilsangiz, bu "ishratxona" degan ma'noni anglatadi, ammo ishratxona odatda "tartibsizlik" yoki "tartibsizlik" ma'nosini bildiruvchi jargon atama sifatida ishlatiladi.

Fransiyada bu ibora juda ko'p ishlatilganini eshitishingiz mumkin: Qanday tartibsizlik! Qanday tartibsizlik! (*Quel bordel ! Quel bordel!*)

U "qanday falokat!" kabi bir narsani ifodalashi mumkin. Shuning uchun agar siz shunday so'z bilan qichqirishayotganini yoki salbiy baqirishganini eshitsangiz hayron bo'lmang.

6. Pote (ami, copain, compagnon)-Turmush o'rtog'i (do'st, do'st, hamroh)

Fransuz tilidagi haqiqiy do'st so'zi ami/amie. Pote- bu do'st so'ziga yaqin (erkak yoki ayolga) murojaat qilish uchun ishlatiladigan jargon atamasi. Ushbu so'zning o'zgarishi - pote. Ingliz tilida biz *mate* atamasini ishlatamiz, bu xuddi shu narsani anglatadi.

Misol: *Marc est mon meilleur pote* . Marc est mon meilleur *ami*.

Mark mening eng yaqin do'stim. Mark mening eng yaqin do'stim.

7. Je me casse (Je m'en vais)-Men ketyapman (ketaman)

G'alati, agar siz *Je me casse* so'zini so'zma-so'z tarjima qilsangiz, bu men o'zimni buzaman, sindiraman (je me brise) degan ma'noni anglatadi. Ammo bu ibora odatda siz biron bir joyni to'satdan tark etishga qaror qilganingizda "men ketyapman" deyish uchun ishlatiladi. Bu kimdir sizni chindan ham bezovta qilganda yoki ijtimoiy tadbirdan zerikkaningizda foydalansangiz bo'ladi. Siz bu iboradan eng yaqin do'stlaringiz orasida foydalanishingiz mumkin, chunki bu juda qo'pol ko'rinishi mumkin. Uni rasmiy ish uchrashuvi o'rtasida ishlatmang!

8. Avoir la flemme (on ne peut pas s'en soucier)-dangasa bo'lish

Bu keng tarqalgan fransuz jargon iborasi bo'lib, so'zma-so'z "dangasalik" deb tarjima qilinadi. Bu siz biror narsa qilishdan bezovta bo'lmasligingizni, tashvishlanmasligingizni aytmoqchi bo'lganingizda foydalanish uchun ajoyib iboradir. Biroq, uni rasmiy ish muhitida ishlatmang!

9. Je te kiffe-(je t'aime bien)- menga yoqadi.

Kiffer atamasi aslida arab tilidan kelib chiqqan bo'lib fransuz tilidan tarjimasi: biror narsani yoqtirish, biror narsadan zavqlanish yoki jalb qilish deb tarjima qilinadi. Bu so'z asosan fransuz o'smirlari tomonidan qo'llaniladi. Agar kimdir sizni yaxshi ko'raman (je te kiffe) desa, ular sizni yaxshi ko'rishlarini (je t'aime bien) aytishadi .O'zingiz yoqtirgan narsalar haqida gapirish uchun kiffe so'zidan foydalanishingiz mumkin. Masalan; *je kiffe bien ton style* (j'aime vraiment ton style) menga sizning uslubingiz juda yoqadi .

Bu yerda fransuz tilida o'z tanishlaringiz, do'stlaringiz bilan internet saytlarida, chatlarda foydalanishingiz mumkin bo'lgan va fransuz tilida ko'p qo'llaniladigan jargon so'zlar va iboralarni keltirib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Dufour,J.Mainguet.Edito B1 méthode de français.-F:Didier.2018.-B.93-94
- 2.X.Ibragimov,A.Mamadaliyev.Fransuzcha-O'zbekcha lug'at.T:Nihol 2008-B.328,428
- 3.A.Хожииев. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т :Ўқитувчи. 1985. – Б. 44.

YAPON TILIDAGI GAP BO'LAKLARI IZOHI

N.M. Saidaxmedova
SamDCHTI magistranti

Kesim yapon tilida 述語 deb nomlanadi va gapning markazini tashkil qiladi, qolgan gap bo'laklari kesimga bog'lanadi. Kesim nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Kesim fe'l, sifat, ot, son, ravish bilan ifodalanishi mumkin. Kesim quyidagicha ifodalanadi:

Fe'l: 父は車で会社へ行く。 Otam ishga mashinada boradilar.

Sifat: このかばんは高い。(です) Bu sumka qimmat.

Ot: 私は学生です。 Men-talabaman.

Son: 家賃が万円だ。 Kvirtira to'lovi-10000 ien.

Ravish: 老人の話はゆっくりだった。 Chol past ovozda gapirar edi.

Tuzulishiga ko'ra kesim soda va murakkab bo'lishi mumkin:

Sodda: 私は帰ります。 Men qaytaman.

私の父は教師だ。 Mening otam o'qituvchi.

Murakkab: 店へ行って来ます。 Do'konga borib kelaman.

Gap kesimining qo'shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak egadir (主語). Ega, asosan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib keladi. Yapon tilida egani toppish qiyin emas: bu o'zidan keyin bosh kelishikdagi は (wa) yoki が (ga) ko'makchilari turadigan so'zdir. Ega ot, olmosh, son bilan ifodalangan bo'lishi mumkin [Sherov 2007: 201].

Eganing ifodalanishi:

Ot: 私の好きな季節は春です。 Mening sevimli faslim bahor.

Olmosh: 彼女は今日も来なかった。 U bugun ham kelmadi.

Son: 一本は300円です。 Bitta shishasi 300 ien turadi.

Sifat: 白いのはゆりです。 Oqi-bu nilufarlar.

Butun bir gap: 昨日友達にみせたのは新しい本でした。

Kecha (men) o'rtog'imga ko'rsatganim yangi kitob edi.

Yapon tilida eganing ikki xil shakli bor va ular bir biridan farqlanadi. は (va) ko'rsatkichi mavzu (tema) ni ifodalaydi, ya'ni so'zlovchiga ma'lum bo'lgan mavzu. Bunda gap suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan, ammo oldin aynan ta'kidlanmagan mavzu bo'ladi. が (ga) ko'rsatkichi esa gapdagi xabar ifodasining markazi, yangiligini taqozo etadi (rema).

英語は山田が上手です。 Ingliz tilini, Yamada zo'r biladi.

Yapon tilida aniqlovchi shyushyokugo (修飾語) deb nomlanadi. Aniqlovchi qanday? qaysi? kimniki? qanaqa? va hakoza so'roqlardan biriga javob beradi. Aniqlovchi predmetning belgisini bildiruvchi va otga, kishilik olmoshiga hamda substantivatsiya qilingan har qanday boshqa so'z turkumiga tegishli bo'ladigan ikkinchi darajali gap bo'lagidir.

Aniqlovchining ifodalanishi:

Sifat: 庭に大きい木があります。 Bog'da katta daraxt bor.

Sifatdosh, sifatdoshli jumla : 歌っている人. Qo'shiq kuylovchi odam (qo'shiq aytadigan odam).

9時に始まる授業. Soat 9 da boshlanadigan dars.

Ot : 私の名詞 . Mening tashrifnomam .

Ko'rsatish olmoshi : この家. Bu uy.

Aniqlovchi bir xil narsa buyumning belgisini yoki narsa-buyumning kimga yoki nimaga qarashli ekanligini bildirishiga ko'ra ikki turga ajratiladi : sifatlovchi aniqlovchi va qaratqichli aniqlovchi.

彼には赤い車があります. Unda *qizil* mashina bor.

日本の車. *Yaponiyaning* mashinasi.

Yapon tilida to'ldiruvchi *setsukakugo* (接格五) hamda *mokutekigo* (目的語) deb nomlanadi va gapdagi biror bo'lakka bog'lanib uni to'ldirib, izohlab keladi. Yapon tilida ham vositali va vositasiz to'ldiruvchilar mavjud bo'lib, ba'zi tomonlari bilan o'zbek tilidan farqlanadi.

To'ldiruvchining shakllari. Vositasiz to'ldiruvchini yasashda を kelishik ko'rsatkichidan foydalanilsa, vositali to'ldiruvchini yasashda esa に、へ、と、で (jihaz ma'nosidagi), から、まで、より kelishik ko'rsatkichidan ko'proq foydalaniladi :

先生は授業の後で学生たちに宿題をだしました。 O'qituvchi darsdan so'ng *talabalarga uyga vazifa* berdi.

ミルクを飲みません. (Men) sut ichmayman.

Yapon tilida hol *jyoukyougo* (状況語) deb nomlanadi va *qanday qilib? qay tarzda? qayerda? qachon?* va h.k.z. so'roqlardan biriga javob beradigan gap bo'lagini hol deb hisoblaymiz [Sherov 2007: 203].

Hol sifat (く li shakl), oraliq shakldagi yarim predikativ sifat (に li shakl), ravish, こう、そう、どう va こんあに、そんあに、あんあに qatori ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan bo'lishi mumkin.

- ▶ 今晚は早く帰ろうと思っています。 Kechqurun vaqtliroq qaytishni o'ylayapman.
- ▶ とてもきれいに書きました。 Sen juda chiroyli yozibsan.
- ▶ 大変疲れました。 Men juda charchadim.
- ▶ どうやってするんですか。 Buni qanday qilish kerak.

Bundan tashqari quyidagilarni ham hol jumlasiga kiritadilar:

a) ravishdosh shaklidagi fe'l (ながら li)

私はお茶をのみながらテレビを見ます。 Men choy ichib, televizor ko'rayotgandim.

b) o'rin va payt holi パン屋は右側にあります。 Non do'koni o'ngda joylashgan.

田中さんは図書館で勉強しています。 J-b Tanaka kutubxonada shug'ullanardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Minna no nihongo Yapon tili o'quv darsligi. 3anet.com. Tokyo, 2010
2. YAPON TILI. O'quv uslubiy qo'llanma. Sunnat Sherov Toshkent, 2007
3. Yapon tili. O'quv qo'llanma. N.T.Xalmurzayeva. Toshkent, 2006

KALAMBUR STILISTIK VOSITA SIFATIDA VA UNI TARJIMA QILISH ASOSLARI

Sh. Jabborova.

SamDCHTI magistranti

Kalambur nima? Kalambur - bir xil so'z uchun turli xil ma'nolarni ishlatadigan adabiy vosita. O'yinlar orqali xatga hazil qo'shishi mumkin va ba'zi hollarda diqqatli o'quvchilarni qiziqtirish uchun kutilmagan hazilni yashirishi mumkin. Odatda, so'z o'yinlari kulgili maqsadlar uchun mo'ljallangan, ammo adabiy asarlarda ular ko'pincha jiddiy ma'noga ega. O'yin va hazil o'rtasidagi farq bormi? Odamlarga hazildan so'z birikmalarini ajratish qiyin bo'lishi mumkin, chunki ular tabiatan o'xshash, ammo bir xil emas. So'z o'yinlari so'z o'yinlariga asoslangan nutq figuralidir, hazil esa kulgili effekt uchun mo'ljallangan hikoya tuzilishiga ega hazil namoyishidir.

Jahon adabiyoti namunalarida ko'plan adiblarning kalambur vositasiga murojaatini ko'rishimiz mumkin va ularni aynan o'zbek tiliga tarjima qilishda bir qancha jihatlarga e'tibor qaratish talab qilinadi. Tarjimashunoslik ilmida ko'plab masala va vazifalar hamon o'z yechimini kutmoqda. Kalambur (so'z o'yini) tarjimasida masalasi ham shular qatoridandir. Xorij ilmidagi bugungi kungacha qadar mazkur sohada ko'plab izlanishlarning amalga oshirilganligiga qaramasdan, kalambur kabi vositaning xususiyatlari to'g'risida hali bir to'xtamga kelinmagan va uning etimologiyasi to'g'risidagi turli fikr-mulohazalar mavjudligi e'tirof etilmoqda. Kalambur so'zining kelib chiqishi tarixida calambour, calembourg kabi yozilishi shakllari mavjud bo'lib, mazkur terminni Kalemberg shahri nomi yoki turli latifalardagi tarixiy shaxslar ismlari bilan bog'laydilar: Lyudovik XIV davrida yashab o'tgan, tilni bilmaganligi sababli fransuzchani buzib, o'zining beixtiyor yaratgan kinoyali, dudmol qochirimlari bilan mashhur bo'lgan vestfaliyalik graf Kalanber yoki Kalembergdir. Kalambur so'zi italyanча «calamoburlare» (peroda (yozuv quroli) hazillar yozmoq ifodasidan kelib chiqqanligi to'g'risida ham taxminlar mavjud. Yana bir o'ziga xos rivoyatda bayon etilishicha, mazkur so'z qachonlardir Hindistondan Yevropa mamlakatlariga olib kelingan kalambur daraxti nomidan olingan bo'lib, nutqda nomuvofiq

qo‘llanilishi tufayli kulgili holatni keltirib chiqargan va oqibatda Fransuz dramaturgi Fuzelye tomonidan aniqlanganidek, iste’dotsiz shoir, abbat (Fransiya katoliklarning ruhoniysi) Sheryening hazilomiz she’riy uydirmalarida aforizm ko‘rinishida (Pleurons tous en ce jou, Du bois decalambour. Bugun ham ko‘z yosh qilamiz, kalambur daraxti uchun) o‘z ifodasini topgan. XVIII asrning oxiriga kelib esa kalambur so‘zi fransuz tili lug‘atidan joy olib ulgurdi. Tilshunoslik ilmida ham hamon kalamburning asl mohiyatini yorituvchi yagona bir tushuncha shakllanmaganligi tufayli mazkur termin atrofidagi ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, tahlilimizdagi termin – “so‘z o‘yini”, “so‘z o‘tkirligi”, “ikki ma’noli”, “hazil” kabi nomlarni olgan. Shuni ham hisobga olish kerakki, barchasining ma’no va mazmuni turlicha sharh-izohlarga ega bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab xorij izohli lug‘atlarida kalambur so‘zining manosiga turli talqinlar keltirilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, S.I.Ojegovning “Rus tili lug‘atida” “Kalambur – komiklikka (kulgili) asoslangan, talaffuzi o‘xshash, ammo ma’nolari turli xil so‘zlardan iborat hazildir” kabi ta’rif keltirilgan.[Ojegov I, 1989,. 734]

Kalamburning asosiy stilistik maqsadi – kitobxon diqqat-e’tiborini jalb eta olgan matnning ma’lum bir nuqtasidagi komik effekt yoki satirik ohang bo‘lib, mazkur vositaning aynan shu jihati mutarjim tomonidan tarjimada to‘laqonli aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir. I.V.Lyoxin va professor F.N.Petrov tahririyati ostidagi “Chet tili so‘zlari lug‘atida” quyidagicha tavsif keltirilgan: “Kalambur – bu turli mazmundagi so‘zlarning o‘xshash talaffuziga asoslangan so‘z o‘yini”. Kalamburga keltirilgan bunday talqinlar ba’zi nazariyachilar tomonidan ma’qullanmagan. “So‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi chegara nisbiy va o‘zgaruvchandir. So‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarini taqqoslanishini kalamburning asosi deb qabul qilinishini adolatli deb bo‘lmaydi”. “Kalambur – bu komik ta’sirga ega talffuzlar o‘xshashligida qurilgan o‘tkir va zukko so‘z o‘yinidir[Lekxin I.V., F.N.Petrov., 1988,. 254.]

“Kalambur stilistik vosita emas, balki u badiiy nutqning alohida kichik janri bo‘lib, maqol, aforizm, topishmoqlar bilan bir qatorda turuvchi kichik shakldagi badiiy asar.[Norman B.Y., 2006, 8] Shuningdek, mazkur janrni B.Y. Normanning ham o‘tkir gap, anekdot bilan bir qatorda e’tirof etishi bejiz emasdir”.Tahlilimizdagi terminning tavsifi muammolari qatorida uni so‘z o‘yini sifatida o‘rganish masalasi ham o‘rin olgan. Ba’zi tilshunos olimlar “kalambur” va “so‘z o‘yini”ni bir-biriga tenglashtirsalar, boshqalari esa so‘z o‘yini tushchasini turli til vositalarini o‘z ichiga oluvchi, aksariyat hollarda, kalamburdan yiroq bo‘lgan ancha keng hodisa deb qaraydilar. O.S.Axmanova tahririyati ostidagi lingvistik terminlar lug‘atida quyidagicha ta’rifni kuzatishimiz mumkin: “Kalambur (so‘z o‘yini) – bir so‘zning turli mazmunlari yoki ikkita bir xil talaffuz etiluvchi so‘zlarning yumoristik (parodiyali) qo‘llanilishiga asoslangan nutq shaklidir”. [Axmanova O.S., 1968,. 69] Yuqorida keltirilgan ta’rif va tavsiflarda so‘z o‘yini va kalambur kabi tushunchalar ajratib ko‘rsatilganligi va mualliflar ularni ifodalar tuzilishi xususiyatlaridan kelib chiqib, ajratganliklarini kuzatishimiz mumkin.

Y.P.Xodakovaning fikricha, kalamburning vujudga kelishi uchun so‘z o‘ynini qurilmasi zarur bo‘lib, mazkur strukturaning asosiy maqsadi esa gapiruvchi ifdasining belgilangan vaziyat va tinglovchiga nisbatan hazil, kinoya, hajviy, satirik munosabatini aks

ettirishi zarur. Vaholanki, keltirilgan kontestda bunday intilish bo‘lmasa, demak, so‘z o‘yini qurilmasi ham mavjud bo‘lmay, kalambur haqida ham gap bo‘lishi mumkin emas”. Bir nechta ilmiy nashriyotlarda kalambur – paronomaziya (talaffuzlari o‘xshash, ammo ma’nolari har xil so‘zlarning kalamburga oid jipslashgan stilistik shakli) kabi terminiga tenglashtirilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Shu jumladan, A.V.Filippov “paronomaziya kalamburning sinonimi”. [Filippov A.V. va boshqalar 2010, 143.] deb ataydi. Ammo, shuni aytish kerakki, paronimlar yordamida yuzaga keluvchi stilistik effekt, aynan bir hil emas, balki talaffuzlari o‘xshash so‘zlar asosida quriladi. Masalan, agarda omomnimlar talaffuzda to‘liq mos kelsa, paronimlar, aksincha, sodir bo‘ladigan hodisadir. Ma’lumki, omofonlar va omograflar kalamburning asosiy manbayi sifatida qabul qilingan (omofonlar – bu talaffuzlari bir xil, ammo yozilishi va ma’nolari har xil so‘zlar (masalan: son – sun, hour – our, meet – meat) bo‘lib, omograflar – bu yozilishi bir xil, ammo talaffuzi turli xil so‘zlardir (masalan, can – qila olmoq, banka), live – (yashamoq, onlayn translyasiya) wave – (to‘lqin, silkitmoq, qoqmoq, qanot qoqmoq, qo‘l silkitib chaqirmoq, ishora qilmoq). Yuqorida keltirilgan kalambur va so‘z o‘yini kabi tushunchalarining ajratilishi kerak, degan fikrining davomi sifatida L.K.Bobilevaning quyidagi ta’kidlarini keltirishni ma’qul ko‘rdik: “Agarda kalambur – bitta so‘zning turli ma’nolarini yoki ikkita o‘xshash talaffuz etiluvchi so‘zlarnig parodiya, hajv tarzida qo‘llanilishiga asoslangan nutq shakli bo‘lsa, unda so‘z o‘yini – bu boshqa har xil so‘zlarga nisbatan alohida bir so‘zning turli ma’nolarining vujudga kelishidir” [Bobileva L.K.. 1973, 156] Umuman, boshqa stilistik vositalardan farqli o‘laroq, kalamburning bir xil saviyadagi ikki qismdan iborat ekanligi kabi omili uning o‘ziga xos lingvistik xususiyatini belgilaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida ko‘rsatilgan kalamburning ikki qismlari nafaqat qarama-qarshi qo‘yilib, balki dialektik jihatdan bir butunga birlashtiriladi ham. Vositaning har bir qismi alohida mazmunga ega bo‘lib, ammo talaffuzlari o‘xshashligi kabi xususiyati beixtiyor kalamburning hosil bo‘lishiga to‘liq asos yaratadi. Shuningdek, fonografik va semantik munosabatlar asosida yaratilgan kalamburlarning bir nechta turlarini ajratish mumkin. Shuningdek, yuqorida biz kalambur terminini belgilash kabi muhim masalani o‘rganishga harakat qildik. Aslida, fanda kalambur tushunchasiga oid ko‘plab tavsiflar keltirilgan bo‘lib, hamon mazkur til hodisasi xususida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Kalambur – bu turli ma’nolarga ega, ammo bir xil talaffuz etiladigan yoki o‘xshash talaffuz etiladigan so‘zlar, so‘zlar guruhi, bitta so‘z yoki so‘z iborasining turli ma’nolarining komik tarzda qo‘llanilgan stilistik nutq iborasi yoki ma’lum muallifning miniaturasidir. Ma’lumki, kalambur termini tasnifi muammosiga oid ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan. Bu kabi tadqiqotlar bir-biridan kalamburga oid tafsilotlari, batafsil tekshiruvlari bilan birmuncha ajralib turadi. Shuningdek, olimlar kalamburning turli, ya’ni semantik jihatdan (polisemiya, omonimlar, omofomalar) yoki fonetik jihatdan (masalan, omofonlar) kabi ko‘rinishlarini o‘rganadilar.

Leksik “bazoviy” hodisalarga muvofiq, A.P.Skovorodnikov kalamburning keyingi turlarini ajratib bergan: – polisemik; – omonimik; – antonimik; – paronimik; – “mualliflik etimologiyasiga” asoslangan leksemalar.1 Kalambur tarjimasida muammosi tarjimashunoslikning tor sohasini tashkil etasa-da, uni tadqiq etish qiziqarli va istiqbolli vazifalardandir [Skovorodnikov A.P.,2004,129]. Kalambur tarjimasida mutarjim, eng

avvalo, muallifning niyati yoki vositaning shaklini asrab qolish kabi muammolariga duch keladi. Aslida, muallifning kalamburni yaratishdan asosiy maqsadi mazmun va ifoda usulining nomutanosbligi yordamida tinglovchining e'tiborini jalb etish yoki uni kuldirishdan iborat. U. Shekspirning "Hamlet" asaridan olingan kalamburning Jamol Kamolning asliyatdan amalga oshirgan o'zbek tarjimasida tahlillarni keltiramiz: Claudius: But now, my cousin Hamlet, and my son, – Клавдий: Qalay jiyan-o'g'lonimiz Hamlet bu nafas? Hamlet: A little more than kin, and less than kind.² ХАМЛЕТ: O'g'illigi yolg'on, lekin jiyanligi rost. ³ (J. Kamol tarjimasida) Ingliz tilidagi kin – qarindosh, avlod – ajdod va kind – mehribon, iltifotli, xushmuomala, qadrlil, aziz, samimiy kabi ma'nolarga ega. Bu yerda Klavdiy Hamletdan my cousin – jiyanim va my son – o'g'lim deb so'zlarni o'z lug'aviy ma'nolarida qo'llaydi. Asliyatdan keltirilgan misolda til vositalari va asar syujetining bevosita bog'liqlik ekanligi aniq ko'rinib turibdi. Ya'ni, asarni o'qiganda haqiqatdan ham Hamlet nutqidan o'zining va Klavdiyning, hatto qarindoshdan ham yaqinligi (amaki-jiiyan, o'gay ota-o'gay o'g'il) ammo ularning munosabatlari hech ham samimiy emas ekanligiga nisbatan ifodalagan kinoyasini payqash mumkin. Asar boshida Laert bilan bo'lgan birinchi suhbatini tugatgach, Klavdiy Hamletga yuzlanib, "But now, my cousin Hamlet, and my son" (so'zma-so'z tarjimasida – "Endi esa, mening jiyanim Hamlet va mening o'g'lim"), ya'ni, Klavdiy Hamletga qarab, "jiyan" deganida ularning qarindosh ekanligini va "o'g'lim" deganida, endi qarindoshdan ham yaqinligini nazarda tutadi. Intellektual obraz sifatida Hamlet qirollikdagi o'zgarishlarni boricha qabul qilmasligi tayin va atrofida ro'y berayotgan voqealar to'g'risida atroflicha fikr yuritishi, tabiiy. Shuning uchun ham o'zining jiyanligini tan olsa-da, amakisiga o'g'il bo'lganligi to'g'risida hali xulosa qilishga shoshilmaydi. Shuningdek, tragediyadagi Hamletning ilk nutqida ham ikki ohangdosh so'zlar o'yini qatnashgan (kin/kind). Ko'rinadiki, Klavdiy Hamletga qarab "jiyan" va "o'g'lim" deganida shahzoda "a little more than kin and less than kind" kabi javobini keltiradi. Ya'ni, o'z javobida bosh obraz amakisining jiyaniga ko'rsatayotgan xushomadlariga ishonmasligini nazarda tutadi. Demak, qirolning quruq dabdabali "Qalay jiyan-o'g'lonimiz Hamlet bu nafas?" kabi savoliga motamdor shahzoda javobining pragmatikasidan – qarindoshdan yaqinroq, ammo hech ham iltifotli emas kabi kinoyali mazmunni tushunib olish mumkin. Tarjimadagi kalamburda semantik siljish minimal darajada bo'lib, J. Kamol Shekspir matnining asl mohiyatini anglagan holda, yuqorida Klavdiyning shahzodani "my cousin" (jiyan) va "my son" (o'g'lim) deb boshlab bergan zanjirning mantiqiy davomi sifatida o'z tarjimasida "O'g'illigi yolg'on, lekin jiyanligi rost." kabilarning kontrastida dramaturg bandining parodiya usuhgglini asray olgan. Mutarjimning tarjima varintini tanlashdagi qo'llangan strategiyasi natijasida ikki xil interpretatsiyaga undovchi situativ analogning yaratilishiga olib kelingan. Kalambur o'g'irmasida so'zma-so'z tarjima usulini qo'llash orqali kutilgan natijaga erishish, amrimahol, chunki bunday strategiya vosita elementlaridagi semantik va sintaktik og'ishlarga zamin yaratadi. Shu sababli mutarjimlar kalambur tarjimasida turli tarjima usullari, ya'ni kalka, tushirib qoldirish yoki kompensatsiya kabilarni qo'llaydilar.

Demak kalambur ham stilistik vositalardan biri bo'lib muallif tomonidan to'g'ri qo'llanilganda asarning ta'sirchanligini oshiradi, qahramon emotsiyasini yaqqolroq namoyon qiladi va o'quvchi e'tiborini jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. М., 1968,69.
2. Bobileva L.K. "Обыгрывание слов как стилистический приём". 1973. 39. 156)
3. Filippov A.V., Romanova N.N. Словарь речевого общения: этика, прагматика, психология, 2010, . 143.
4. Lekhin I.V., F.N.Petrov "Словарь иностранных слов". Изд.3-е, М., "Русский язык", 1988, . 254
5. Norman B.Y. "Игра на гранях языка", 2006,8.
6. Ojegov I. "Словарь русского языка. 70000 слов". 1989, 734.
7. Skovorodnikov A.P.. О понятии термина «языковая игра». Филологические науки, 2004,129.

КОРЕЙС ВА ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА ҲИКОЯ ЖАНРИ МАСАЛАСИГА ДОИР

Д.А. Эргашева.

Кимё халқаро университети мустақил тадқиқотчиси.

Ҳикоя насрнинг энг етакчи жанри ҳисобланади. Ҳар бир насрий жанр эса ўзига хос хусусияти билан ажралиб туради. Аммо корейс адабий оламида ҳикоя жанри фаоллиги билан ажралиб туриши кузатилади. Зеро, Хуршид Дўстмуҳаммад асосли таъкидлаганидек: *“Ҳар бир миллий адабиётнинг ўзига хос кундалик нафаси, қадам олиши, мавқеи – пулси ҳикояда кўпроқ намоён бўлади”*²⁵.

Корейс ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри ўзига хос тараққиёт босқичига эга бўлиб, шакл ва мазмундаги изланишлар самараси ўлароқ муттасил равишда янгилинмоқда.

Корейс адабиётида насрий жанрлар *сосол* туркумига кирувчи асарлар тарзида берилди. Сосолнинг учта: кичик *танхён-сосол*, ўрта *чунхён-сосол* ва катта *чжанхён-сосол* каби турлари мавжуд. Кореяда чоп этилган *“Катта лугат”* фундаментал нашрида *сосол* атамасига қуйидаги таъриф берилган: *“Сосол – наср шаклларида бири бўлиб, унда фактлар ва муаллифнинг бадиий тўқимаси бирикмаси асосида ҳаёт, шунингдек барча юксак эстетик нарса ва ҳодисалар акс эттирилади. Узун, ўртача ва қисқа сосол фарқланади”*²⁶.

Жаҳон адабиёти тарихидан маълумки, ҳикоя насрнинг кенг тарқалган ва тараққий этган жанрларидан ҳисобланади. Х.Дўстмуҳаммад таъбири билан айтганда: *“Бинобарин, ҳар бир адабиётнинг ўзига хос кундалик нафаси, қадам олиши, мавқеи ҳикояда кўпроқ намоён бўлади”*²⁷.

²⁵ Хуршид Д. Йил ҳикоялари: ютуқлар ва изланишлар. //Тил адабиёт таълими, 2017, №7.

²⁶ 큰 사전. –서울, 1995. – 23-73-쪽.

²⁷ Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати. Шарқ юлдузи. 2011. №1.

Сосол туркумига кирувчи асарлар (Сайдазимова У.Т.)²⁸ пхэсол адабиётининг муносиб давомчиси ҳисобланади. *Пхэсол* атамаси Хан даврида шаклланган (эр.ав. 220-206 йиллар) хитой адабий жанри “*байшо вэнсюэ*” ёки “*байгун вэнсюэ*” номи билан бошланади. Рус тадқиқотчиси Д.Д. Елисеев²⁹ *сосол* деганда шартли равишда қисса, новелла, роман, рус олимаси А.Ф. Троцевич³⁰ эса қисса ва роман жанрларини тушунади.

Ўзбек адабиётида ҳикоя жанрига шундай таъриф берилади: “*Ҳикоя эпик турга мансуб кичик ҳажмли жанр бўлиб, у ўзига хос имконият ва ҳаётий қамровга эга. Ҳикояда тасвирланган воқеа ўз моҳияти ва аҳамияти жиҳатидан эпик турнинг роман, повест каби жанрларидан фарқланмаса ҳам, бироқ тасвирнинг кўлами, сюжет ва композициянинг нисбатан соддалиги, баённинг асосан бир шахс томонидан олиб борилиши жиҳатидан фарқланиб туради. Ҳикоя шаклий жиҳатдан прозаик ифодага эга бўлса-да, айрим ҳолларда у шеърий шаклда ҳам яратилади*”³¹.

Корейс адабиётида *танпхён-сосол* жанри ҳозирги даражасига етгунча узоқ ҳамда мураккаб жараёни босиб ўтди. Илк *танпхён-сосол* пхэсол адабиёти тўпламларида учрайди. Мазкур тўпламларга киритилган *танпхён-сосол*нинг аксарият қисми тарихнавислик йўналишида вужудга келган бўлиб, ўз тараққиёти давомида (XVIII асрнинг бошигача) тарихий воқеаларни ёритиш хусусиятини сақлаб қолган. Кўплаб *танпхён-сосоллар* реал тарихий шахслар ва воқеалар асосига қурилган.

Бу ҳодиса хитой адабиётида ҳам кузатилади. Хусусан, хитойшунос олим Озод Очиллов “*Хитой фольклор ҳикояларининг асосий мавзуси кундалик турмуш тарзи бўлиб, реал ҳаётдаги инсонлар бу турдаги ҳикояларнинг бош қаҳрамонлари сифатида гавдаланади*”³², деб таъкидлайдилар. Мақолада олим хитой фольклор ҳикояларини “Амалдорлар ва оддий халқ ҳақидаги ҳикоялар”, “Меҳнат ҳикоялари”, “Оилавий ҳикоялар”, “Севги-муҳаббат ҳикоялари” каби турларга ажратади. Хитой фольклор ҳикояларига воқеа ва шахс албатта тарихий воқелик билан боғланиши шартлиги, одатда сюжет тўқима, ҳикоя қаҳрамонларининг исмлари келтирилмаслиги хослигига урғу беради.

Корейс *танпхён-сосоли*да қаҳрамонлар сохта (тўқима) образ сифатида келади, жумладан, “Денга ҳақида ҳикоят”, “Бамбук хоним”, “Доно Қулмоқ” ва ҳ.к. Шу билан бирга бу ҳикояларда ҳам хитой фольклор ҳикоялари каби “*қадим замонларда*”, “*...уругидан экан*”, “*...округидан экан*” каби кўрсаткичлардан ҳамда қаҳрамон исмлари ўрнига “*бир одам бўлган экан*” “*чедок*”, “*муса*”, “*кисен*” кабилардан фойдаланилади.

Алоҳида муаллифлик тўпламлари тарзида кенг тарқалган *пхэсол* турли мавзулардаги қайдлар ва қаҳрамонлар ҳақидаги кулгили тарихий воқеалар, ғаройиб

²⁸ Сайдазимова У.Т. XVII-XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. Филол. фан. док. дисс...автореф. – Тошкент, 2018. – 5 б.

²⁹ Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья. – М.: Наука, 1977. – С.67.

³⁰ Троцевич А.Ф. Корейский средневековый роман. – М., 1986. – С.10.

³¹ Хотамов И ва бошқ. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент. Ўқитувчи. 1979. – Б. 251.

³² Очиллов О. Хитой фольклор ҳикоялари. “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations”. – Т., 2021. – Б.382.

саргузаштлар ва уларнинг қизиқарли баёни орқали кўнгилхушлик асарлари сифатида китобхонларда қизиқиш уйғотиб, уларнинг қалбидан ўрин олган³³.

Чхон Ё тўпламидан жой олган “Сандиқ ичидаги яланғоч чедок” ҳикояси ғоявий мазмуни жиҳатидан ўзбек шоири, ёзувчи, театр арбоби Ҳамзанинг “Майсаранинг иши” комедиясини ёдга солади.

Адабиётшунос олим Л.Р. Концевич таснифига кўра, пхэсол тўпламларидан муносиб жой эгаллаган ҳикоя жанри ханмунда яратилганлиги сабабли шакли жиҳатидан *юксак* насрга киритилган. Аммо мазмун жиҳатидан қуйи даражага мансуб ҳисобланган. *Пхэсол* тўпламига киритилган, кўнгилочар наср сифатида баҳоланган ҳикояларда халқнинг оғир ижтимоий аҳволи ва ҳаётнинг беқарорлиги акс эттирилган.

Пхэсол тўпламидан жой эгаллаган ҳикояларнинг мавзулар кўлами кенг, ижтимоий ҳаёт масалалари қамраб олинган, қизиқарли воқеалар асосига этнографик ва географик мулоҳазалар киритилган бўлса-да, характер турғун, ташқи кучлар таъсири кузатилмайди, муболағадан холи. Кўнгилочар мотивларда инсоннинг ижтимоий ҳаётга бўлган муносабати очиб берилган. Бундай кўнгилочар наср, зерикканда ўқиладиган ҳикоялар тўплами ҳам Шарқ, ҳам Ғарбий Европанинг кўпгина халқлари адабиётига хосдир.

Буни мазкур даврда яратилган пхэсол тўпламлари номлари ҳам тасдиқлайди. Ли Инно “Бекорчиликдан”, Чхве Ча “Бекорчиликдан” тўпламига қўшимчалар, Л Гюбо “Осойишталик йиллари ҳақида тинчлик ҳикоялари”, Сон Хён “Ёнже шингил ҳикоялари”, Чхон Ё “Денгиздан шарқдаги мамлакатдан турли ҳикоялар”, О Суквон “Пхегван услубидаги турли қайдлар”, Ли Ки “Сонванинг аралаш ҳикоялари” Чхва Чхонно “Осан ҳикоялари ўрмони”, Ли Токхён “Бамбук дарча олдида айтилган ҳикоялар”, муаллифи номаълум “Бекорчиликда ёзилган кичик ҳикоялар” ва ҳ.к.

Рус олими Д.Д. Елисеев ўрта аср адабиётининг кичик шакли ҳикоянинг вужудга келиши замирида халқ оғзаки ижоди ва классик историография ётади, деб ҳисоблайди, унда ҳам бадиий, ҳам нобадиий жанрлар йиғиндисини кўради³⁴.

Мумтоз давр корейс адабиётининг қуйи даража намунаси ҳисобланган, *пхэсол* тўпламига киритилган ҳикоя жанри халқ оғзаки ижоди билан узвий боғлиқ. Айнан материални баён этишнинг *юксак* шакли билан мавзунинг оддийлиги уйғунликда *пхэсолни* Чосон даврининг корейс адабиёти ривожланиш жараёнининг янги босқичида пайдо бўлган ўзига хос адабий ҳодиса сифатида тавсифлаш учун асос беради³⁵.

XVII асрга келиб кичик наср *танпхён-сосол* кенг раванқ топди. Тарих саҳифаларига *Имжин уруши* номи билан муҳрланган, XVII-XVIII асрларда Япония билан бўлиб ўтган уруш бу давр ҳикояларининг етакчи мавзусига айланди. Бир қатор олимлар сюжетли наср танпхён-сосолнинг пайдо бўлиши XV асрга тааллуқли ва бу

³³ Сайдазимова У.Т. Корейс ёзувчиси Пак Чи Вон “Хитой кундалиги” асарининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбекистон-Хитой: тарихий-маданий, илмий ва иқтисодий алоқалар ривож. Илмий конференция. 18-ноябрь, 2017.

³⁴ Елисеев Д.Д. Корейская средневековая литература пхэсоль. – М., 1968. – С.18.

³⁵ Сайдазимова У.Т. Корейс ёзувчиси Пак Чи Вон “Хитой кундалиги” асарининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбекистон-Хитой: тарихий-маданий, илмий ва иқтисодий алоқалар ривож. Илмий конференция. 18-ноябрь, 2017.

Ким Си Сип номи билан боғлиқ, деб кўрсатишади. Дарҳақиқат, XV асрда Ким Си Сип томонидан яратилган “Кимодан янги ҳикоялар” тўплами илк сеҳрли корейс ҳикоялари тўплами ҳисобланади.

Айрим манбаларда Ким Си Сип қаламига мансуб ҳикоялар новеллалар тарзида берилади. Шунингдек, тадқиқотчилар Ким Си Сипни биринчи корейс новеллисти, деб аташади. Ўзбек адабиётшунос олими Д.Қуронови “Чўлпон насри поэтикаси” илмий тадқиқот ишида келтирган қуйидаги фикрлари бу масалага ойдинлик киритади:

“Маълумки, адабиётшуносликда “ҳикоя” ва “новелла” атамлари хусусида яқдиллик йўқ: айрим адабиётшунослар бу атамани синоним ҳисобласалар, бошқалари кескин фарқлайдилар. Биз бу масалада ҳикоянинг икки тури бор: биринчисида очерклилик (тавсифий-ривоявий), иккинчисида новеллистик (конфликтли-ривоявий) хусусияти устундир, деган фикрга кўпроқ қўшиламиз, яъни бу ўринда гап икки турли жанр ҳақида эмас, балки бир жанрнинг икки хил сифат кўриниш ҳақида боради”³⁶.

Олимнинг фикрига таяниб, Ким Си Сип яратган сеҳрли ҳикоялари тавсифий-ривоявий характердаги асарларга мансуб, дейиш мумкин. Илдизлари халқ оғзаки ижодига бориб тақалувчи мазкур тўпламга киритилган ҳикояларга маълум бир даражада иккита манба таъсир кўрсатди. Бир томондан бу хитой адабиёти, хусусан, Тан ва Сун сеҳрли новеллалари бўлса, иккинчи томондан халқ оғзаки ижодидан кенг фойдаланган маиший мавзуидаги пхэсол тўпламларига киритилган ҳикоялар эди.

Корейс адабиёти тарихида пхэсол адабиётининг янада юксалишида “Кимодан янги ҳикоялар” тўплами муҳим рол ўйнади. Аммо бу турдаги сеҳрли ҳикоялар вақт ўтган сари тараққий этмади ва бундай ҳикояларнинг тўпламлари бошқа яратилмади. Лекин шунга қарамасдан, айнан Ким Си Сип ижоди бадиий тўқима элементлари билан кейинги наср жанри тараққиётига таъсир кўрсатди.

Ким Си Сип ўрта аср корейс адабиёти ривожини, айниқса ҳикоя жанри тараққиётига ҳисса қўшган биринчи насрнавис. Адиб биринчилардан бўлиб ўз ҳикояларида ижодий тасаввурини сеҳрли элементлар орқали ифодалаган ижодкор ҳисобланади. Муаллиф тасвирлаган ажойиботлар, ғайри оддий нарсаларда инсон характери, унинг ички олами, руҳияти акс этиб туради.

Корейс адабиётидан фарқли равишда ўзбек адабиётида ҳикоя жанри узоқ асарлар давомида мураккаб жараёнларда шаклланди, яъни илк ҳикоя намуналари қадимги ёзма адабий ёдгорликларда учрайди. Жумладан, “Тўнъюк” ва “Култегин” битиктошларида воқеалар иштирок этувчилар томонидан ҳикоя қилинган. Аммо ҳикоя жанри ривожини бир текис, раван ва узлуксиз давом этмади. Дастлаб XII асрда Муҳаммад Авфий Бухорий томонидан яратилган “Жавоме ул-ҳикоёт ва лавоме ул-ривоёт” (“Ҳикоятлар тўплами ва ривоятлар ёлқини”)³⁷ номли китобидан сўнг орадан тўрт аср вақт ўтиб Пошшоҳўжанинг “Мифтоҳ ул-адл” ҳамда “Гулзор”³⁸ ҳикоялар тўплами яратилди. Ҳар икки муаллиф тўпламидаги ҳикоялар жанр талабларига тўлиқ жавоб бермайди. Шунингдек, Носириддин Рабғузийнинг “Қиссаи Рабғузий” асарида

³⁶ Қуронови Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ. 2004. – Б. 37.

³⁷ Муҳаммад Авфий Нодир ҳикоялар. – Т., АСН, 1977.

³⁸ Пошшоҳўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор”. – Т., БАН, 1962.

ахлоқий характердаги ҳикоялар мавжуд бўлса, Сўфи Оллоёрнинг “Сабот ул-ожизин”, Машрабнинг “Мабдаи нур” асарларида юздан ортиқ шеърӣ ҳикоятлар учрайди.

“Бу давр ҳикояларида асосан маълум ва машҳур ривоятлар, афсоналар, тарихий воқеалар қайта баён қилиниб, қиссадан ҳисса чиқарилар, бадийликдан кўра шарҳлаш устуворлик қиларди”³⁹.

Бу тарзда ҳикоя яратиш уч аср давом этди. Мумтоз адабиётдаги “ҳикоя” ва “ҳикоят” каби асарлар И. Ҳотамов асосли таъкидлаганидек: *“Ҳикоя шаклий жиҳатдан прозаик ифодага эга бўлса-да, айрим ҳолларда у шеърӣ шаклда ҳам яратилди”*⁴⁰ ҳамда йирик асарлар ичида йўл-йўлакай бериб ўтилди. Ўзбек адабиётидаги ҳикоя жанрининг бу кўриниши корейс адабиёти пхэсол тўпламларига киритилган ҳикоялар мазмун-моҳиятига ўхшайди. Ҳар икки халқ адабиётида ҳикоя жанри мукамал намунага шаклига келгунча узоқ масофани босиб ўтди.

XVIII-асрга келиб эса атоқли давлат арбоби, Сирхак ҳаракатининг фаоли, ёзувчи Пак Чивон илк бор корейс адабиётида сатира усулида ҳикоялар яратди. Муаллиф фикрига кўра, конфуцийчи олимлар фақат китоб ўқиш билан машғул, амалда эса улар ҳаракатсиз. Бу унинг *“Юйсяда кечқурун айтилган ҳикоялар”*, *“Масхарабоз Мин Юсин ҳақида хотиралар”*, *“Янбан билан бўлган воқеалар”* ҳикояларида ўз аксини топган. Барча ҳикоя қаҳрамонлари *“конфуцийчилик таълимоти мезонларига мувофиқ умр бўйи классик асарларни ўрганиш билан шуғулланади. Лекин бу уларга ҳаётда бирон нарсага эришишга ёрдам бермайди, улар умрининг охири кунларигача қашшоқликда яшайдилар”*⁴¹.

Пак Чивон ўз ҳикояларига бош қаҳрамон сифатида оддий халқ вакиллари – ишчилар, деҳқонлар, ҳатто ахлат тозаловчилар образлари киритди. Оддий халқнинг амалдорлар томонидан аёвсиз таҳқирланиши, улар меҳнатининг қадрсизлиги, инсон шаънининг оёқ ости қилинишини тасвирлаш асносида жамиятдаги ижтимоий тенгсизлик, феодал қоқоқлик сабабли жирканч аҳволга келиб қолган мамлақати манзарасини очиб берди.

Корейс адиби томонидан илгари сурилган бу масалалар XX аср бошида ижод қилган ўзбек адиби Абдулла Қодирийнинг “Калвак Маҳзумнинг хотира дафтарида”, “Тошпўлат тажанг нима дейди”, “Обид кетмон” каби ҳикояларида ўз аксини топди. Бир қарашда кулгули, аммо аслида тараққиёт душмани Калвак маҳзум мазкур даврда янгиликларга қарши инсонларнинг йиғинди образидир. 1926 йили муаллифнинг “Йиғинди гаплар” танқидий ҳикояси “Муштум” журналида чоп этилди. Ҳикояда “аксиинқилобий ҳаракатлар”ни кўрган айрим кимсалар сабаб Абдулла Қодирий камоққа олинади. Аммо бу адибнинг танқидий асарлар яратишда давом этиши учун тўсқин бўла олмади.

XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида Кореяда юз берган Европалашув жараёни, даставвал япон тилидан таржимада кириб келган ғарб адабиёти ва

³⁹ Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. Мақолалар, суҳбатлар. – Фарғона. 2020. – Б. 12.

⁴⁰ Ҳотамов И ва бошқ. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент. Ўқитувчи. 1979. – Б. 251.

⁴¹ Сайдазимова У.Т. XVII-XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. филол. фан. док. дисс....автореф. – Тошкент, 2018.

маданияти, рус адабиётига бўлган қизиқишни кучайтирди. Гёте, Байрон, Тургенов, Чехов, Бальзак, Тагор, Пушкин, Есенин каби буюк ижодкорлар асарлари билан яқиндан танишган ҳамда таъсирланган корейс шоир ва ёзувчилари замонавий корейс насри ва назмида янги тараққиёт босқичига ўтдилар. Асрлар давомида тўқима образлар, тарихий шахслар, адабий қаҳрамонларга айланган, халқ орзусидаги персонажларга бўлган муносабат ўзгарди.

“Янги реал воқелик, европалашув жараёни, япон истибдодидан озодликка чиқиш, қашишоқликдан қутилиш, миллий маданият, маориф ва таълимнинг тараққий этиши учун кураш янги насрнинг ўзгачалигини белгиловчи реализм йўналишининг қонуний тараққиётини тақозо етмоқда эди”⁴².

Мумтоз ва ўрта асрларда яратилган *комил инсон* образини яратишга бўлган интилиш, бадий асар шакли учун белгилаб қўйилган ягона сюжет чизиғи, қаҳрамонларнинг ажойиб туғилиши, уларга ҳар доим муаммоларни ҳал қилишда етиб келувчи ташқи кучлар, асар сарлавҳасига олиб чиқилган *чон* морфемаси ўз аҳамиятини йўқотди.

Академик Д.С.Лихачев асосли таъкидлаганларидек: *“Ҳаққонийлик унсурлари реал воқеликни объектив равишда акс эттириш, зарур бўлган воқеликни ўзгартириб акс эттириш керак бўлган жойда кўпроқ намоён бўлади”⁴³.*

Мазкур даврда ёзилган Ли Гвансунинг “Қон билан ёзилган сатрлар” (илк номи “Нобуко”), “Қайғу”, Хён Санг Юннинг “Қувғин”, Ким Дониннинг “Бир сават батат”, “Олов сонатаси”, “Хайрлашув қўшиғи”, Ём Сансоннинг “Тажрибахонадаги қурбақа”, Хён Жингоннинг “Омадли кун”, На Дохяннинг “Сассиз Самрёнг” ҳикоялари соф реализм йўналишида яратилди.

Ли Гвансунинг “Қон билан ёзилган сатрлар” ҳикоясида ёзувчининг маҳорати реализмнинг муҳим тамойилларидан бири – характерларни ўз овозлари ёрдамида қайта тиклаш принципини қўллашда ўз ифодасини топти. Бу ўринда В.В.Виноградовнинг: *“бадий тасвирнинг барча қонун ва ақидаларига қарши тинимсиз кураш олиб бориш айнан реализмга хос принципдир”⁴⁴,* деган фикрлари ўз тасдиғини топади.

XX аср бошларида халқини озод, миллатини саводхон қилиш учун адабиёт майдонига жадидчилар шахдам қадамлар билан кириб келишди. Улар адабиётнинг моҳиятини чуқур англаб, жамият, миллат равнақида унинг муҳимлигини англаб етишди. Бу феодал қолақликдан сўнг уйғониш даври бўлиб, тараққийпарвар жадидчилар даврнинг асосий кучи сифатида майдонга чиқдилар. Жаҳолат қобиғида қолган халқни уйғотиш ҳамда озодлик учун курашга чорлаш учун жадидчилар ҳаётни ўзгартириш, янгилаш зарурлигини англаб етдилар.

Жадидчилар қўлда қурол билан эмас, балки маърифат йўли – янги тарздаги мактаблар очиш, нашриётларда миллий адабиётни чоп эттириш, мактаблар учун

⁴² Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: Saydazimova U., Choy So Yong, Kim V.N. va boshq. –Т.: Istiqlol, 2014. – В.6.

⁴³ Лихачев Д.С. Избранные работы. В 3 т. – Л.: Художественная литература, 1987.

⁴⁴ Виноградов В.В.О языке художественной литературы. – М.,1959. – С.472.

дарсликлар яратиш, турли маънавий-маърифий тўғаракларга асос солиш орқали курашишди.

Умуман олганда, XX-аср боши ўзбек адабиётида тарихида юз берган янгиланиш жараёнига Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романи муқаддимасида мазкур давр ижодкорларига қўйилган талаб англашилади: *“Модомики, биз янги даврга оёқ қўйдик, бас, биз ҳар бир йўсинда ҳам ана шу янги даврнинг янгилликлари кетидан эргашамиз ва шунга ўхшаш дostonчилик, рўмончилик ва ҳикоячиликларда ҳам янгаршига, халқимизни шу замоннинг “Тоҳир-Зухро”лари, “Чор дарвеш”лари, “Фарҳод-Ширин” ва “Баҳромгўр”лари билан танишдиришга ўзимизда мажбурият ҳис этамиз”*⁴⁵.

XX асрга келиб вақтли матбуот ривожланди: *“1905-йилги биринчи рус инқилобидан кейин Туркистонга турли гоявий ва эстетик йўналишдаги турк, озарбайжон ва биринчи навбатда татар адабиёти ва матбуоти тарқала бошлади”*⁴⁶.

Ўзбек насрида янги ўзгаришлар – мунозара, қисса, ҳикоя каби жанрларнинг шаклланиши кузатилди. Бу давр газета ва журнал саҳифаларида Чўлпоннинг “Қурбони жаҳолат”, “Дўхтир Муҳаммадёр”, “Ойдин кечаларда”, “Қор қўйнида лола”, “Новвой қиз”, Абдулла Қодирийнинг ўз халқини салоқатли, билимли ва маданиятли, озод кўриш истагидаги “Жувонбоз”, “Улоқда”, шунингдек, “Тошпўлат тажанг нима дейди?”, “Калвак маҳзумнинг хотира дафтарида” ҳажвий ҳикоялари, Фитратнинг “Қиёмат”, Шокир Сулаймоннинг янгиллик ва эскилик ўртасидаги аёвсиз курашни кўрсатувчи “Қотил”, “Ҳукм”, “Фармоза отаси”, “Лолазордаги шумғия”, “Паразитлар”, “Ямо ва Хамо” сингари ҳикоялари чоп этилди.

*“...жадид адабиётида шаклланиш даврига кирган ҳикоя, қисса, роман каби эпик жанрларнинг илдизлари мумтоз жанрлар ҳисобланган қисса ва ҳикоятларга бориб уланади. Шу жиҳатдан Саъдий “Гулистон”и билан Авлонийнинг “Туркий Гулисто ёки ахлоқ” асари, Хожанинг “Гулзор” ҳикоятлар мажмуаси билан Қодирийнинг ҳикоялари ўртасида жанрий ришталар мавжуд”*⁴⁷.

Муаллифлар ўз ҳикояларида ижобий ва салбий қаҳрамонлар образини яратишди, янги образлар давр ва муҳит ўчоғида тасвирланди, сюжет ва композицион курум мураккаблашди.

“Жадид адабиётининг намояндалари Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Ҳамза Ҳакимзода, Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпонлар бу жанрнинг янгиланишига муносиб ҳисса қўйдилар. Уларнинг сайъи ҳаракати билан ҳикояга илгари кўрилмаган сюжет бирлигига асосланган яхлит воқелик, шу воқеликни рўёбга чиқаришда муҳим рол ўйнайдиган қаҳрамон (гарчи улар характер даражасига кўтарилмаган бўлса-да), воқеа ривожига тўртки берувчи конфликт (айниқса, маърифат ва жаҳолат ўртасидаги кураш мисолида) каби зарур унсурлар кириб

⁴⁵ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар. –Т.: “Sharq”. 2014. – Б. 6.

⁴⁶ Турдиев Ш. Чўлпон ва татар адабиёти (алоқалар тарихи, манбалари) ЎТА, 1997. №9. – Б. 10.

⁴⁷ Тожибоева М.А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол. фанл. бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореф. – Тошкент. 2018. –Б. 24.

келди. Булар ҳикоянинг жанр сифатида мукаммаллашувида дастлабки мезонлар ролини ўйнади”⁴⁸.

Мана шу мураккаб даврда ижод қилган Абдурауф Фитрат янги адабиёт асосчилари сифатида майдонга чиқди. Унинг биргина “Мунозара” асари бутун Туркистон жадиждчиларини илҳомлантирди:

“Фитратнинг биргина, “Мунозара”си давр тараққиётига зоят кучли ва самарали таъсир кўрсатди”⁴⁹.

Манбаларда келтирилишича, адиб “Мунозара” асарини 23 ёшида – Туркия дорилфунунида талабалик йиллари ёзиб тугатган. Асарнинг тўлиқ номи “Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадижд мактаблари хусусинда қилгон мунозараси” деб номланган.

XX аср ўзбек адабиётининг ёрқин намоёнчаси, миллий уйғониш даврининг асрий давомчиси⁵⁰, шоир, драматург, адабиётшунос олим ҳамда ёзувчи Абдулҳамид Чўлпон шеър, роман, драма, танқид, таржима ҳамда ҳикоя каби жанрларда ижод қилди. Чўлпоннинг 20-йилларда яратган “Қор кўйнида лола”, “Ойдин кечаларда”, “Нонушта”, “Гавҳарой” каби ҳикоялари ўзбек аёллари тақдирига бағишланган.

Бадий адабиётнинг вазифаси халқни жаҳолат уйқусидан уйғотиш, жамиятнинг ривожига ва инсон баркамоллигига халақит берувчи иллатлардан халос бўлиш – руҳий, маънавий фориғланишдан иборат деб тушунган Чўлпон 1914-йили “Садои Туркистон” газетасида чоп этилган “Адабиёт надур?” мақоласида *“Ҳеч тўхтамасдан ҳаракат қилуб тургон вужудимизга, танимизга сув-ҳаво не қадар зарур бўлса, маишат йўлида ҳар хил қора кирлар ила кирланган руҳимиз учун ҳам шул қадар адабиёт керакдир”⁵¹* деб ёзади.

Чўлпоннинг “Қор кўйнида лола” ҳикоясида қари чолга учинчи хотин қилиб берилган ўн етти яшар Шарофатнинг қора, зулматли кунлари, аччиқ қисмати ёритилган. Тўй бўлиб ўтган кўчани *“Хўҳ-хў, кўча жуда зулмот-ку!”⁵²*, *“Бу кеча худди эшон бобонгнинг кўнглидек бўлибдир”⁵³* таърифларида қоқоқлик иллатлари берилган бўлса, ҳикоядаги Мамат қоровулнинг *“...дунё ўзи шу қадар тесқари дунё экан...лоланинг устига қор ёғди-да”⁵⁴* дейиши ҳақиқий фожиага берилган баҳодир.

Адиб ижодида фожиали вазият, фожиали муҳит ва шароит, фожиали қаҳрамонларни тасвирлаш бошқа жанрдаги асарлари каби ҳикояларида ҳам марказий масалага айланди. Жумладан, Бехбудийнинг “Падаркуш” пьесасидаги жаҳолат ва илмсизлик масалалари “Қурбони жаҳолат” ҳикоясида ўғирлик қилган йигит сабаб айбсиз йигитнинг ўлдирилиши тарзида берилади. Ҳикоя лейтмотиви жаҳолат қурбони Эшмуроднинг *“Биз одам бўлмаймиз...Битамиз...Инқироз бўламиз...Оҳ жаҳолат.*

⁴⁸ Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. Мақолалар, суҳбатлар. – Фарғона. 2020. – Б. 12.

⁴⁹ Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987.

⁵⁰ Мирзаева Н., Асқарова М. Чўлпон ижодида миллий уйғониш ҳаракати. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – Issue 5 /2020.

⁵¹ Абдулҳамид Чўлпон. Адабиёт надур?. Ўзбек адабий танқиди: [антология]/ тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов. “TURON-IQBOL” МЧЖ, 2011. – Б.28.

⁵² Abdulhamid Cho'lon. Buloqlar quchog'ida. She'rlar va hikoyalar. – Toshkent. “Zabarjad Media”. 2023. – B.83.

⁵³ Abdulhamid Cho'lon. Buloqlar quchog'ida. She'rlar va hikoyalar. – Toshkent. “Zabarjad Media”. 2023. – B. 83.

⁵⁴ Abdulhamid Cho'lon. Buloqlar quchog'ida. She'rlar va hikoyalar. – Toshkent. “Zabarjad Media”. 2023. – B. 83.

Жаҳолат, битдук, битдук. Ўлдук...тирилмайман...”⁵⁵ деган изтиробли сўзларида намоён бўлади. Миллат англаб етмаётган мактаб, илм-фан ибрат олиш каби сўзлар Эшмуроднинг бутун хаёлини чулғаб олган. Ҳатто жаҳолат ботқоғида турган, газета ўқигани учун устидан кулган отаси уни ташвишлантиради. Лекин ёруғлик манзилига етиб келмаган, зимистон кўйнида ҳалок бўлган илм – жаҳолат илдиэлари эди.

Абдулла Қодирий қаламига мансуб “Улоқда” ҳикояси ўзбек реалистик ҳикоясининг энг яхши намунаси бўлиб, 1916 йили чоп этилган. “Улоқда” ҳикоясида халқ урф-одатлари тасвири берилади, аммо адибни жаҳон миқёсида бўлаётган уруш ҳақида “содда” халқнинг беғамлиги ташвишга солади. Аммо ҳикояга Ойбек домла “*ҳикоячиликда реализм томон ишонч билан катта қадам ташлаган*”⁵⁶, деб юксак баҳо беради.

Ҳозирги корейс ва ўзбек ҳикоячилиги шакл ва мазмун, ифода жиҳатидан анча бойиди, миллий характер яратиш тажрибаси шаклланди. Фарб адабиёти таъсирида ҳар икки халқ адабиётида ҳикоя жанри янгича тасвир, қаҳрамон руҳиятини англашга бўлган интилиш, давр адабий қаҳрамони каби хусусиятлар билан бойитилди.

DECODING LEGAL DOCUMENTS IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE GUIDE

E.Ortikova

JDPU katta o'qituvchisi

Abstract

"Decoding Legal Documents in English: A Comprehensive Guide" is an illuminating exploration into the intricacies of understanding legal documents, elucidating the significance, complexity, and essential elements within. This comprehensive guide unveils the critical importance of mastering legal terminology and document structures in English, emphasizing their role in informed decision-making, compliance, and protection of rights. It delves into deciphering common legal terms, decoding document structures, interpreting clauses, and offers practical tips and resources to navigate this complex landscape with confidence and clarity.

Keywords: Legal Documents, Legal Terminology, Document Structures, Interpretation of Clauses, Understanding Contracts, Legal Language, Comprehension Strategies, Decoding Legal Jargon, Compliance and Rights Protection, Professional Assistance in Law Interpretation

Understanding legal documents in English thus becomes essential not only for legal professionals but also for individuals engaging in various personal or business transactions to ensure clarity, compliance, and protection of rights. Understanding legal documents in English holds significant importance for several reasons:

⁵⁵ Чўлпон. Асарлар. Адабий-бадий нашр. II жилд. –Тошкент. 1994. – Б. 269.

⁵⁶ Ойбек

Importance of Understanding Legal Documents in English:

Clarity in Agreements: Legal documents outline rights, obligations, and responsibilities in various agreements such as contracts, leases, and deeds. Understanding these ensures clarity about what is expected from each party involved.

Compliance and Adherence: Legal documents often contain terms and conditions that individuals or organizations must adhere to, ensuring compliance with the law. Misinterpretation or ignorance of these terms can lead to legal consequences.

Protection of Rights: By comprehending legal documents, individuals can protect their rights and interests. Understanding the language ensures that one is aware of their entitlements and can take necessary actions if these rights are violated.

Informed Decision-Making: Many legal documents involve significant decisions, such as contracts for business partnerships or employment agreements. Understanding the terms enables informed decision-making, minimizing risks and uncertainties.

Avoidance of Misunderstandings: Legal documents employ precise language to avoid ambiguity. Misinterpretation due to unfamiliarity with legal terminology can lead to misunderstandings, disputes, and costly legal battles.

Complexity and Specialized Language in Legal Texts:

Technical Terminology: Legal documents often use specialized terminology not commonly used in everyday language. Terms like "consideration," "force majeure," or "indemnification" have specific legal meanings that differ from their colloquial use.

Formal Structure: These documents follow a structured format and specific language conventions. Sections like recitals, covenants, and warranties have distinct purposes and must be understood in context.

Precision and Specificity: Legal language aims for precision and specificity. Small nuances in wording can have significant legal implications, making it crucial to grasp the exact meaning of each term or clause.

Historical Influence: Legal language often contains remnants of archaic terminology or Latin phrases, stemming from historical legal practices, adding another layer of complexity for those unfamiliar with such conventions.

Interpretation Challenges: Legal documents require careful interpretation. A single document might incorporate diverse clauses that interact in complex ways, demanding a thorough understanding of how each clause affects the overall context.

Common Legal Terminology

Defining Key Legal Terms: Understanding the terminology used in legal documents is fundamental for comprehensive comprehension. Here's a breakdown of some crucial terms:

Affidavit: A written statement confirmed by oath or affirmation for use as evidence in court. It is essential to understand the weight and legal implications of providing an affidavit.

Plaintiff and Defendant: The plaintiff is the party that brings a case against another in court, while the defendant is the party being sued or accused. Understanding these roles is crucial in understanding legal proceedings.

Jurisdiction: This refers to the authority of a court to hear and make judgments on a case. Different jurisdictions might have varying rules and regulations.

Consideration: In contract law, consideration refers to something of value exchanged between parties. It's essential to comprehend what constitutes valid consideration for a contract.

Statute of Limitations: This sets the maximum time after an event within which legal proceedings can be initiated. Understanding these limitations is crucial to avoid forfeiting one's legal rights.

Due Diligence: This term refers to the careful and thorough investigation or review of documents or information before entering into an agreement or transaction. It signifies taking reasonable steps to avoid legal repercussions.

Liability: The legal responsibility or obligation for one's actions or debts. It's crucial to understand the extent and nature of liability in various legal contexts.

Contextual Understanding and Precision

Each of these terms holds specific legal significance and must be understood within the context of legal documents. Precision in understanding these terms ensures accurate interpretation and minimizes the risk of misjudgment or misinterpretation.

Importance of Precise Interpretation: A precise understanding of legal terms is essential, as even minor misunderstandings can lead to significant consequences. For instance, a nuanced difference in the interpretation of 'shall' versus 'may' can drastically alter the obligations outlined in a contract.

Seeking Further Clarification: When encountering unfamiliar terms in legal documents, seeking clarification through legal dictionaries, professional advice, or supplemental resources becomes crucial to ensure accurate understanding.

Structure of Legal Documents

Legal documents follow a structured format, each section serving a distinct purpose:

Preamble: The introductory statement outlining the intent and purpose of the document. It sets the stage for what follows and often includes identifying details of the involved parties.

Recitals or Consideration: These sections detail the background, context, or reasons for the agreement. They establish the foundation upon which the agreement is based and provide essential historical information.

Definitions: This section clarifies and defines specific terms used throughout the document. Clarity in terminology reduces ambiguity and ensures mutual understanding between the parties involved.

Covenants and Conditions: These sections outline the promises, obligations, or duties of each party. Covenants are legally binding commitments that the involved parties must fulfill.

Warranties and Representations: Declarations made by parties regarding certain facts or circumstances. They assure the truthfulness or accuracy of information provided and can be legally binding.

Termination or Conclusion: The final section detailing conditions under which the agreement can be terminated or concluded. It often includes provisions for dispute resolution or the expiration of the agreement.

Significance and Purpose

Understanding the structure of legal documents is crucial for several reasons:

Clarity and Organization: Each section serves a specific purpose, contributing to the clarity and organization of the document. Recognizing these sections aids in navigating and comprehending the content effectively.

Legal Intent and Obligations: Different sections outline the legal intent and obligations of the involved parties. Knowing where these are articulated helps in understanding the rights and responsibilities of each party.

Contextual Interpretation: The sequence and arrangement of sections often provide context and insights into the intentions of the parties involved. It is essential for a comprehensive interpretation of the entire document.

Illustrative Examples: Providing examples or excerpts from sample legal documents can further clarify how these sections are structured and how they function within the document.

Importance of Detailed Examination: Thoroughly examining each section in detail is crucial to grasp the full scope of the document and ensure comprehensive understanding, thereby mitigating the risk of misinterpretation.

Interpretation and Clauses

Understanding Legal Language and Clauses

Interpreting Legal Language: Legal language often employs technical terms and nuanced phrasing. It's crucial to read the entire document carefully, considering each word's legal significance and how it contributes to the overall meaning.

Significance of Precise Wording: Even a small variation in wording can have substantial legal implications. Clauses like indemnification, arbitration, or force majeure require meticulous understanding to grasp their exact implications.

Implications of Clauses: Different clauses carry varying weight. For instance, an indemnification clause might shift liability from one party to another, while an arbitration clause determines the method of dispute resolution. Understanding these clauses aids in foreseeing potential scenarios.

Contextual Analysis: Clauses should be interpreted in the context of the entire document. Understanding how clauses interact with one another is essential for a comprehensive understanding of the legal document.

Tips for Understanding Legal Documents

Methodical Reading Approach: Reading legal documents slowly and methodically is crucial. Breaking down the document into manageable sections and comprehending each part before moving forward enhances understanding.

Consulting Legal Resources: Utilizing legal dictionaries, glossaries, or online resources can provide clarity on unfamiliar terms or complex clauses. These resources aid in deciphering technical jargon.

Professional Assistance: Seeking advice from legal professionals or translators when dealing with complex legal documents is advisable. Their expertise ensures accurate interpretation and minimizes the risk of misinterpretation.

Understanding Context and Purpose: Considering the context and purpose of the document is essential. It helps in framing the document's content and understanding the intentions behind specific clauses or terms.

Resources for Further Assistance

Reputable Online Resources: Recommending reliable online resources, legal glossaries, or databases can assist individuals in comprehending legal terminology and understanding complex legal documents.

Legal Advisors or Translators: Highlighting the importance of seeking assistance from legal advisors or translators for intricate legal documents. Their expertise ensures accurate interpretation and minimizes risks associated with misinterpretation.

Continual Education and Learning: Encouraging ongoing education in legal terminology and document understanding. Seminars, workshops, or online courses can further enhance comprehension of legal language.

Understanding legal documents in English is not just a matter of comprehension; it's a fundamental necessity for informed decision-making and safeguarding individual or organizational interests. Throughout this guide, we've highlighted the critical facets of decoding legal jargon and document structures, emphasizing their profound impact:

Informed Decision-Making: Mastery over legal terminology empowers individuals to make well-informed decisions. It enables one to navigate contracts, agreements, and legal texts with confidence, reducing risks and uncertainties.

Compliance and Protection: Clarity in understanding legal documents ensures compliance with legal obligations and protects rights. It serves as a shield against potential disputes or unintended liabilities.

Precision in Interpretation: The precision required in interpreting legal language and clauses cannot be overstated. Even subtle variations in wording can result in substantial differences in legal obligations or entitlements.

Seeking Assistance When Necessary: Recognizing the complexity of legal documents, seeking professional assistance or consulting reliable resources remains invaluable. Legal advisors, translators, and reputable online references play a pivotal role in clarifying intricate legal matters.

As you embark on your journey to understand legal documents in English, remember that patience and diligence are key. Approach each document methodically, dissecting its structure and terms meticulously. Context and purpose are your allies; understanding them provides insights into the document's intentions and implications.

Ultimately, the goal isn't mere understanding but mastery. Continuous learning and engagement with legal terminology and document interpretation refine your skills, ensuring you're equipped to navigate the complex landscape of legal language effectively.

References

Books:

1. "Legal English" by Rupert Haigh - Published by Routledge-Cavendish. London and New-York., the publication year for different editions ranges from 2009 to 2016.
2. "A Dictionary of Law" by Jonathan Law - Published by Oxford University Press, with multiple editions; the latest editions range from 2018 to 2021.
3. "Legal Writing in Plain English: A Text with Exercises" by Bryan A. Garner - Published by University of Chicago Press; the latest edition was in 2013.
4. "English for Law in Higher Education Studies" by Jeremy Day and Ian Badger - Published by Garnet Education, with various editions; the latest editions are from 2013 to 2017.
5. "Plain English for Lawyers" by Richard C. Wydick - Published by Carolina Academic Press, with different editions; the latest editions are from 2005 to 2019.
6. Black, Henry Campbell. (1968). Black's Law Dictionary. West Publishing Co.

Journals and Publications:

1. "Journal of Legal Studies" - Published by Wiley-Blackwell; issues are regularly published, and specific articles can be referenced by their volume and issue numbers along with publication years.
2. "Legal Writing: The Journal of the Legal Writing Institute" - Published by the Legal Writing Institute; articles can be found in issues published in specific years.
3. "International Journal of Legal Discourse" - Articles are published in volumes, with specific articles available in issues published in different years by various publishers like De Gruyter or Brill.
4. "Journal of Law and Society" - by Wiley-Blackwell;

KOREYA TURKIYSHUNOSLIK TARAQQIYOTINING IJTIMOIIY-MADANIY ASOSLARI

T.R.Kadirov,
SamDCHTI mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreya turkiyshunoslik taraqqiyotining ijtimoiy-madaniy asoslari yoritilgan bo'lib, Sharqning ilk turkologiya sohasidagi qadamlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: turkologiya, "Afrosiyob devoriy sur'atlari", Min sulolasi, "Koktan" til markazi.

Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston diyori va unga tutash hududlar, butun dunyo ahlini rom etib, yashagani tarixiy haqiqat. Bu haqda Xitoyning ko'plab orientalistikasi, turkologiya va islomshunosligiga doir tadqiqotlar, tarixiy- ilmiy ma'lumotlar, manbalar, faktlar bisyor. Nima uchun fan texnikasi, madaniyati rivojlangan, O'zbekistonda Inxa, Yoju, Aju, Pucheon kabi oliygochlarni ochib qo'ygan, Koreyani har tomonlama, madaniy-ma'rifiy, adabiy-ilmiy va ijtimoiy-tarixiy jihatdan o'rganmasligimiz

davomida Xitoy hukmronligi ostida qolgan bo'lib, koreyslarga ham turkshunoslik xitoy orqali ham yetib kelgan. Xitoyda Min sulolasi hukmronligi davrida, aniqrog'i 1407-yilda qirolning buyrug'i bilan "Sy-i-guan" (Siyiguan – chànghuan) tadqiqot va ta'lim muassasasi tashkil etilgan.⁶⁰ Yuqorida tilga olingan markaz o'sha paytdagi yagona o'quv va ilmiy markaz edi, o'sha davrda nafaqat hududda istiqomat qilgan ko'plab xalqlar o'qitish, til o'rganish va yozish bilan shug'ullangan, balki butun Osiyo va boshqa mintaqalar bilan shug'ullangan. Bu markazda ular Xitoy xalqlari tilini yaxshi biladigan tarjimonlarga dars bergan, o'rgangan yirik qo'shni davlatlarning tili, yozuvi, tarixi va madaniyati o'rgatilgan.⁶¹ Tarixiy manbalarga ko'ra, markaz turkiy-mo'g'ul tillarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borib, markaz qoshida 8 ta bo'lim tashkil etilib, ulardan ikkitasi "Tatar va Koktanskiy" bo'limi deb atalgan. Fundamental asarlar "Koktan" bo'limining yozilishi ("gàochangguan zazi") va "Koktan" bobi matnlari (gào-changguan ke) eng muhim yirik asarlar hisoblanadi. O'sha paytda markaz tomonidan amalga oshirilgan til va yozuvni o'rganishga bag'ishlangan turkiy xalqlar asarlaridan biridir. Ba'zi xitoy adabiy manbalarida "Koktan" bo'limining yozilishi "Tarjima" deb ham ataladi ya'ni bu "Koktan" tilidir. Bu nomli asar xitoy va qadimgi uyg'ur tillarining qiyosiy lug'atidir. Yuqorida tilga olingan asar 1403-1424 yillarda tuzilgan va nashr etilgan. Bu asardagi leksik birliklarning hajmi 2000 dan ortiq so'zni tashkil etgan. Lug'atdan nusxa ko'chirish, qayta yozish va qayta tuzishning hozirgi kungacha ko'plab variantlari mavjud edi, masalan, "Ming" nusxasining varianti, "Tsin" nusxasining varianti, yapon, koreys varianti deb ham ataladi. Koreys yarim orolida turklar ruhining kirib kelish tarixi VII asrlarda Xitoy hukumatining, "Turk hoqonligi" bilan o'zaro o'rnatgan hamkorligi bilan bog'liqdir. O'rta osiyo va Sharq xalqlari o'rtasidagi turkiy qavmlarning o'ziga xos tushunchalari, so'z va iboralarning yozilishi haqida Samarqand "Afrosiyob" devoriy sur'atlari xabar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2005. – 193b.
2. Javbo'riev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish. Dissertatsiya, Toshkent, 1991.
3. Sirojiddinov. Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari. – T., 2011.
4. Salomov G'., Komilov N. Tarjimon mahorati. – Toshkent, «Fan».2009- 234
5. 한국언어문화학] 중앙아시아 출신 유학생들의 한국어 학습 전략에 대한 연구 2016
6. 한국컴퓨터그래픽스학회] 외국인을 위한 가상현실 기반 한국어 학습 시스템 2018
7. Internet: <http://www.wikipedia.com/korean/compounds/.htm>
8. Internet: <http://wwwmpsttu.ru/works/koreanlexicology/ htm>

⁶⁰ Русско-корейский словарь. 러시아어-한국어 사전, 전국출판-서울팡진구군자등,-2012

⁶¹ Русско-корейский словарь. 러시아어-한국어 사전, 전국출판-서울팡진구군자등,-2012

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПЛАКАТА

М.Ж.Сафарова.
Докторант СамГИИЯ

В современном обществе в условиях бурного развития средств массовой информации политический плакат, утратив в значительной мере свою роль как средство быстрого информирования об актуальных политических событиях, продолжает оставаться важнейшим средством агитации и пропаганды. Причиной этому является его широкое коммуникативно-прагматические возможности и своеобразие его воздействия на адресата.

Как известно, коммуникативно-прагматическая характеристика политического плаката определяется целым комплексом конструктивных элементов, к которым относятся:

- сфера коммуникации;
- типовая ситуация общения;
- коммуникативная целеустановка;
- коммуникативная стратегия адресата и средств, используемая для ее реализации;
- функции, выполняемые плакатом в процессе общения.

Коммуникативная целеустановка политического плаката состоит из в том, чтобы убедить адресата в необходимости совершения определенного социально значимого действия и мобилизовать его к совершению этого действия. Данная целеустановка реализуется выбором адресантом соответствующей коммуникативной стратегии, которая заключается в том, чтобы:

- A. привлечь внимание адресата, заинтересовать его;
- B. сообщить адресату актуальную политическую информацию;
- C. воздействовать на адресата с целью изменить или укрепить его социально-политические установки;
- D. побудить адресата к совершению определенного действия.

Для оптимальной реализации своей коммуникативной стратегии автор плаката прибегает к средствам разных знаковых систем (вербальному) и невербальному коду (изображения, цвет, шрифт). В отличие от других типов текста, где невербальным средством обычно отводится вспомогательная роль, в политическом плакате данные средства играют, наряду с вербальными средствами, основную роль в организации текста. Их органичное соединение с вербальными средствами в одно структурное, смысловое и функциональное целое обеспечивает коммуникативную значимость текста, его комплексное воздействие на адресата.

Для того чтобы политический плакат осуществлял коммуникативную стратегию адресанта он должен соответствовать определенным требованиям, обладать коммуникативно-прагматическим потенциалом. Наряду с общими коммуникативно-прагматическими качествами, присущими всем пропагандистским

текстам (злободневность, оценочность, партийность, эмоциональность, конкретность и др.), характерными для политического плаката являются такие качества как броскость, лаконичность, диалогичность, оригинальность, в реализации которых принимают участие как вербальные, так и невербальные средства.

